

№1/2026

*Xalqaro ilmiy jurnal*

# STRATEGIK

ISSN 2992-9032

# KUCH



**9** ROSSIYANING TURLI DAVRLARDA  
XORAZM VA AMUDARYO HUDUDLARIDA  
OLIB BORGAN EKSPEDITSİYALARI

**31** XITONING JANUBIY XITOIY  
DENGIZIDAGI GEOSTRATEGIK  
SIYOSATI

№1.2026

*Xalqaro ilmiy jurnal*

# STRATEGIK

# KUCH

ISSN 2992-9032

Tahrir hay'ati raisi:  
Q.Q Quranbayev

Bosh muharrir:  
A.T. Jalilov

Ma'sul muharrir:  
A.Z. Sa'dullayev

Tahrir hay'ati azolari:  
A.S. Begmatov  
A. Kawano  
A. Ospanova  
K.B. Qodirov  
A.B. Yunusov  
N.I. Mingbayeva  
CH.X. Mirxoliqova  
A.J. Qaxxorov  
Z.T. Luxmanova  
E.Sh. Elmurodov  
S.B. Abduraxmonov  
T.O. Shodiyev  
D.A. Choriyeva  
A.T. Onorov  
S.H. Diyorov

Dizayner:  
S.S. To'rayev

*2022-yil asos solingan*

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari  
agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini  
o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash  
instituti

Tahririyat manzili:  
100066, Toshkent,  
Islom Karimov, 45.  
Telefon: 71-232-61-31  
E-mail: info@yomi.uz

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2022-yil 11-avgust 1696-son bilan ro'yxatga olingan.

Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar, dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnal dan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Guvohnoma №1696. 11.08.2022. Toshkent, Islom Karimov, 45.

<b>S. Abduraxmonov.</b> DEMOKRATIYANING GENDERLASHUVI SHAROITIDA AN'ANAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA GENDER TENGLASHTIRISH MASALALARI .....	4
<b>N. Djumageldiev.</b> ROSSIYANING TURLI DAVRLARDA XORAZM VA AMUDARYO HUDUDLARIDA OLIB BORGAN EKSPEDITSİYALARI .....	9
<b>I.O. Madaminov.</b> INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDA FOND BOZORINING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	15
<b>E. Mallayeva.</b> SUN'IY INTELLEKT VA OMMAVIY HUQUQ.....	20
<b>D.S. Muitov, R.U.Ergasheva.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYILASHUVINING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI.....	24
<b>SH. Iskandarov.</b> OLIV TA'LIM XIZMATLARINING MAMLAKAT IJTIMOYIY- IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI MAVQEINI BAHOLASHGA DOIR USLUBIY YONDASHUVLAR.....	27
<b>J. Turg'unboyev.</b> XITOVNING JANUBIY XITOV DENGIZIDAGI GEOSTRATEGIK SIYOSATI.....	31

<b>R.P. Sadullayev, Sh.A. Ibragimova.</b> O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XODIMLAR SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	36
<b>D.M. Yusupova.</b> RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT XIZMATLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ZARURIYATI.....	42
<b>A.U. Jumaboyev.</b> GLOBAL MOLIYAVIY TIZIMDA RAQAMLI AKTIVLARNI TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY DOKTRINAL ASOSLARI.....	47

# ДЕМОКРАТИЯНИНГ ГЕНДЕРЛАШУВИ ШАРОИТИДА АНЪАНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Санжар АБДУРАХМОНОВ,

Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли  
кадрларни тайёрлаш институти таянч  
докторанти.

**Аннотация:** Ушбу мақолада анъанавий қадриятлар трансформацияси ва уларнинг феминистик ғоялар билан интеграциялашуви муҳокама этилган. Бунда асосий эътибор, мазкур трансформация жараёнида анъаналарнинг гендер тенгликни рад этадиган жиҳатлари ижтимоий ва инсон ҳуқуқлари контекстида қайта баҳолашига қаратилади. Шунингдек, феминистик қарашларнинг анъанавий қадриятлар тизимига мослашуви ҳам тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** гендер тенглик, анъаналар, трансформация, феминизм, ислом, оила, таълим.

**Кириш.** Ғарбимийдоираларида феминистлар анъаналарга гендер тенглик ўрнатишдаги асосий тўсиқ сифатида қарашни улар тўғрисида эссенциалистик қарашларни шакллантирди. Умуман гендер дискриминацияга алоқадор бўлмаган анъана ва қадриятлар ҳам гендер тенгсизликнинг “рағбатлантирувчиси” сифатида баҳоланади. Бу, ўз навбатида, феминистлар ва анъаналар ўртасидаги мулоқотни йўққа чиқаришга хизмат қилади. Ғарбдан ташқаридаги жамиятлар учун феминистик ғоялар муқобил ечим сифатида хизмат қилиши ғояси аста секин шаклланаётган бўлса-да, бироқ анъаналарнинг гендер тенгсизликка муқобил ечимлар бериши ҳақидаги тасаввурлар умуман мавжуд эмас. Бунда анъаналарнинг тарнсформацияси, яъни ҳеч бўлмаганда, гендер тенгсизликни рағбатлантирмайдиган ҳамда муайян қадриятлар тизими доирасида маълум даражада феминистик ғояларни қўллаб-қувватлайдиган анъаналарни сақлаб қолиш ва ривожлантириш жуда муҳим аҳамият касб этади.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Илмий адабиётларда анъанавий қадриятларнинг гендер тенгликка муқобил сифатида ёки феминистик ғояларнинг анъанавий қадриятларга муқобил

бўла олиши тадқиқ этилмаган. Деярли барча адабиётларда “анъанавий қадриятлар гендер тенгликка қарши” тамойили гегемон дискурсга айланган ва таҳлиллар шу йўналишда олиб борилган. Масалан, Дюк Университети профессори, ҳуқуқшунос Катерин Бартлет феминистик қарашлар билан анъаналар ўртасидаги муносабатни ривожланиш контекстида тадқиқ этади. Унга кўра, феминистлар ривожланишни анъаналарга ва ўтмишга қарши ҳодиса сифатида таърифлашни таъкидлаб, улар ўртасида “муроса” ўрнатиш муҳимлигини илгари суради[1]. Антрополог Раъно Тўраева Марказий Осиё минтақаси аёллари ўзгаришлар агенти сифатида пост-совет даврда юз берган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар ва глобаллашув манзарасида қайта анъанавийлашиш шароитида анъанавийлик ва замонавийлик ўртасида “ўз йўлини топаётганликлари”ни таъкидлайди. Олима минтақада юз берган қайта анъаналашув тўсиқ эмас, балки уларнинг гендер ролларини қайта трансформациялашуви имкони дея баҳолайди[2]. Бошқа бир тадқиқотчи эса, анъанавий қадриятлар жамият аъзоларининг бир қисмининг фойдасига ишласа, бир гуруҳининг (масалан аёлларнинг) манфаатларига зарар

етказишини ҳамда улар ижтимоий ва ҳуқуқий контекстда мувозанатлаштирилиши, яъни бундай қадриятлар инсон ҳуқуқлари, демократия ва барчанинг тенг ҳуқуқлилигига кўра амал қилиниши керак дейди [3]. Антрополог Силвия Ватук мусулмон феминист ҳаракатларига тегишли бўлган умумий жиҳат – секуляр феминистлардан фарқли ўлароқ ўз ҳуқуқларини мамлакат конституцияси ёки инсон ҳуқуқлари асосида эмас балки Қуръонга асосланиб талаб қилиши ҳақида ёзади. Унинг фикрича, мусулмон феминист аёллари Қуръон ва суннатда белгиланган тамойил ва кўрсатмаларга таянган ҳолда мавжуд исломий ҳуқуқ тизимини ислоҳ этишни истайдилар[4]. Бунга сабаб, исломий тамойиллар ва кўрсатмалар патриархал муносабатлар нуқтаи назаридан талқин этилганлиги ва аёлларнинг ҳуқуқлари эркаклар манфаатидан келиб чиқиб изоҳланишида. Эътиборли жиҳати, кўпгина тадқиқотчилар мусулмон феминист аёллари ҳаракатлари асосий моҳияти айнан исломий кўрсатмалар секуляр ғарбона феминистик қарашларга муқобил сифатида қўлланилаётганини, аёлларнинг ҳуқуқларини камчитувчи ҳолатлар кўпроқ исломдан илгариги маданий тартибларга бориб тақалиши ва умуман ислом билан алоқаси йўқлигини[5] эътироф этишидир.

**Тадқиқот методологияси.** Ушбу мақолада анализ, синтез, қиёслаш усуллари ҳамда турли илмий ва даврий нашрлар материалларидан фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Бугун Ғарбда феминистик ҳаракатлар ҳаддан ортиқ фаол бўлсалар, Ғарб бўлмаган жамиятларда аёлларнинг ҳуқуқлари ва тенглиги борасида ислохотлар олиб боришга ирода этилмайди. Буни биз айниқса мусулмон мамлакатларида кузатишимиз мумкин. Чунки бу борадаги фарқ мусулмон ва Ғарб мамлакатлари ўртасида яққол намоён бўлади. Бу ерда зўравонлик Ғарбдагидек ижтимоий муҳитнинг кенг фазосига тўлиғича ўрнашиб олмаган бўлсада, бироқ оила ичидаги ҳолати бўйича ҳеч ҳам ундан қолишмайди. Гарчи мусулмон мамлакатларида Ғарб мамлакатларидагидек турли туман тадқиқотлар олиб борилмаса ҳам, қолаверса бундай ҳолатлар ошкор этилиши мақсадга мувофиқ эмас деб ҳисобланилиши унинг мавжудлигини рад қила олмайди. Бундай муаммолар оиланинг ички сири сифатида кўрилиши ҳам бунга сабабдир. Бир сўз билан айтганда, аёллар муаммоси кўпчилик мусулмонлар томонидан анча эҳтиёткорлик билан қабул қилинади. Кўпинча у исломга умуман алоқадорлиги бўлмаган хурофотлар билан чалкаштириб юборилади.

Шу боис бўлса керак, ислом ўзга дунё қаршида аёлларнинг ҳуқуқларини камситувчи образ сифатида намоён бўлади. Айни шу мавзу мусулмон мамлакатларининг ўзидан кўра Ғарбдаги мусулмонлар томонидан очиқ мунозара қилинапти. Мусулмонларнинг аёлларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда орта қолишида асосий сабаб бу уларнинг эътиқодлари учун ижтимоий насоқ бўлиб қолиши кўркувидир, - дея давом этади Хина Зубейри. – “Оиладаги зўравонлик” тушунчаси кўпгина мусулмонлар томонидан унинг феминистлар идеалларини эслатиши ва анъанавий исломий матнларда дуч келинмаганлиги сабабли шуҳали тарзда қабул қилинади. Яна бошқа сабаби шуки, кўпчилик ушбу муаммони оммавий муҳокамага олиб чиқишмайди. Чунки бу ислом зўравонликини қувватловчи дин деган стереотипни қайтадан жонлантиради деб қабул қилинади. Шу сабабли, Лондонлик Доктор Аҳмад Суфён: “Оиладаги зўравонликини диний муаммодан кўра ижтимоий ёки маданий муаммо деб қаралиши керак”, - дея таъкидлайди. Бу билан Доктор Аҳмад Суфён бутун мусулмон дунёси учун бош оғриғига айланган муаммони ҳал қилишнинг фавқулдда самарали ихчам механизмини таклиф қилди. Чунки мусулмон мамлакатларидаги аёлларнинг ҳолати маданий, ижтимоий-иқтисодий ва диний тасаввур ва тартибларнинг тартибсиз амалиёти натижаси сифатида баҳоланишига имкон яратади.

Кўшимча сифатида қуйидаги мисолни келтиришни жоиз деб топдик. Собиқ Иттифок даврида исломий диний амалиётдан узоқлашиб анча дунёвийлашган Қирғизистонда ўтказилган тадқиқотлар юқорида биз таъкидлаб ўтган мулоҳазани тасдиқлайди. Қирғизистон Соғлиқни Сақлаш Вазирлиги тақдим этган маълумотларга кўра, эркакларнинг 50 фоизи ва аёлларнинг 30 фоизидан кўпроғи эркакнинг хотинини уришга ҳаққи бор деб ҳисоблашар экан. (Расмий маълумотларга кўра 2014 йилда зўравонлик ҳолатлари бўйича икки мингдан ортиқ ариза келиб тушган, уларнинг 70 фоизи аёлларга тегишли бўлган)[6].

Шундай экан, мусулмон мамлакатларидаги аёллар муаммоси диний моҳиятдан кўра, ижтимоий-маданий тартиблар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб чиқади. Шундай бўлсада, бугун мусулмон мамлакатларида диний талқиндаги эркак ва аёлларнинг алоҳида хусусий маънодаги мақомлари жамиятнинг барча соҳаларига умумий тадбиқ этилиб келинмоқда. Бу эса аёлларнинг ҳуқуқлари борасидаги ҳар қандай уринишга “феминист” ёрлигининг ёпиштирилишига ва Ғарб мафқураси сифатида баҳоланишига олиб

келмоқда[7,8].

Шундан бўлса керак, биз кўриб чиқаётган контекста, бугунги кўпгина либерал мусулмонлар (уларнинг кўпчилиги Ғарб мамлакатларида истиқомат қилишади ёки таълим олишган) ушбу зиддиятни ҳал қилиш зарурати пишиб етилди дея ҳисобламоқдалар. Бу аслида феминистларнинг ўз доғмаларини тиқштиришлари туфайли бўлмасдан, балки мавжуд муаммони мусулмон аёллар манфаатлари билан жамият ва дин манфаатлари муштараклигига эришиш заруратидан келиб чиққандир. Чунки улар ўзлари ўз атрофидаги рўй бераётган воқеалар ривожининг феминистик амалиётда қандай

ҳалокатли тус олаётганига тўғридан-тўғри гувоҳ бўлиб турибдилар.

Ўйлашимизча, хавотирлар асосли. Бугунги кунда Британияда оиласида зўравонликка дучор бўлган мусулмон аёллар ҳимояси учун “ётоқхона”лар сони ортиб бораётгани ачинарли ҳолдир. Худди шундай мақсадларга хизмат қилувчи Миллий Закоат Жамғармасига ёрдам сўраб мурожаат қилганлар 18 ёшдан тортиб 72 ёшгача бўлиб, рухий ва жисмоний, жинсий, оиладаги зўравонликлар ва мажбурий никоҳ қурбонларидир. Муаммонинг кўлами ҳозирча бизга ноаниқ. Бироқ фаолларнинг таъкидлашича, мурожаатлар сони қутилган



миқдор(биргина Манчестрдаги ётоқхонага 54 та муслима жойлашган. Яна шундай масканларнинг иккитаси Лондон ва Бирмингемда мавжуд)дан ортиб кетган[9].

Яна бир қизиқарли жиҳати шундаки, мурожаатларнинг кўпчилиги Бангладеш ва Покистон каби маданий анъаналар диний тасаввурлар билан кучли чатишиб кетган мамлакатлар вакиллари бўлишган. Бир қатор тадқиқотлар буни тасдиқлайди. Масалан, тадқиқотчилар Насрен Ахтар ва Даниэл Метроларнинг фикрича, Покистондаги аёлларга қаратилган зўравонликлар қишлоқ жойларда кенг тарқалган исломдан олдинги қабилавий одатларга бориб тақалади[10]. Фикримизча муаммонинг “этник” хусусияти ҳам эътиборга олиниши лозим бўлган муҳим омиллардан ҳисобланади. Чунки феминистлар ислом билан тўқнаш келганда ҳамини эҳтиётсизликдан ва муаммони тўлиқ англаб етмасдан барчаси учун

уни айблашдан нарига ўтмайди. Бунда уларнинг шунчаки ўз ғояларини қайсарларча ҳимоя қилишдан бошқа нарсага қодир эмасликлари фош бўлиб қолади. Муаммони ҳал қилишга келганда эса ечим муаммонинг ўзида бўла туриб бошқа кескин воситаларни ишга солиши волюнтаризмдан ўзга нарса эмас.

Муаммони гендер тенглик асосида ҳал этиш ягона муносиб ечим бўла олмайди, балки у ечимнинг бошқа механизмларидан маҳрум қилиб қўяди.

Умуман олганда ҳар бир жамият оиладаги зўравонлик муаммосини ҳал қилишнинг ўзига хос тарихий шартланган ечимларини беради. Мисол учун Сингапур тажрибасини олайлик. Ажралишлардан азият чекаётган мамлакатни мамлакат миқёсида ташкил этилган турли дастурлар ушбу муаммодан самарали тарзда халос қилиб келмоқда. Никоҳ ёшига ёки турмуш қуриш арафасидаги ёшлар ўртасида

тушунтириш ишлари олиб бориш ёки ажралиш арафасида турган ёш оилаларга Мажбурий маслаҳатлашув дастурлари жорий қилиниши ижобий натижаларни бермоқда. Сингапур Ижтимоий ва Оила ривожланиши Вазирлиги маълумотларига қараганда, никоҳланганлар ўртасидаги ажралишлар 2003 йилдаги 14 фоиздан 2008 йилда 11.4 фоизга қисқарган. 2004 йилдан йўлга қўйилган Мажбурий маслаҳатлашув дастурларида 27 минг жуфтлик иштирок этган. Деярли ажралиш арафасида турганларнинг 44 фоизи ўз фикрларини ўзгартиришган[11]. Бу статистикаларнинг барчаси мамлакатдаги мусулмон аҳолисига тааллуқли бўлиб, биз одатланиб қолган зерикарли бир томонлама талқин қилинаверадиган манзарадан бутунлай фарқ қилади. Гарчи бу биз кўтарган муаммога бевосита дахлдор бўлмасда, билвосита умумий аҳволни тасаввур қилишимизга ёрдам бериши шубҳасиздир. Негаки юқорида бот-бот келтириб ўтилган статистик маълумотларга таянса ажралишлар сони бевосита оиладаги зўравонликлар билан алоқадорлигидан келиб чиқса, Сингапурдаги ҳолат ўзаро тушунтириш ва маслаҳатлашув дастурлари сабабли зўравонликлар статистикасининг камайишини ҳам англатишини эслатиб ўтмоқчимиз.

Феминизм Ғарб жамиятларигагина хос бўлган тарихий тараққиётнинг маҳсули эканлиги бугун ҳеч ким учун сир эмас ва бу қонунийлик тараққиётнинг ўзга палласида ва йўлида бўлган жамиятлар учун ягона ечим бўлмай, балки муқобил ечим бўлиб хизмат қилиши мумкин, ундан ортиқ эмас. Чунки юқорида кўриб чиққан мисолларимиз ва мавзуга доир мулоҳазаларимиз мантиғи шундай хулоса қилишимизга ундайди. Бизнингча, икки томоннинг ҳам устун ва камчиликлари бир-бирини тўлдириш учун ижодий фойдаланишга йўл очади, рад қилиш учун эмас. Бу ечимлар ўз ҳолича мукамал ҳам эмаслиги шунга ундайди. Бунинг ижобий натижаларини дунё миқёсида ҳам кўришимиз мумкин.

Гапимизни аввалида шуни алоҳида таъкидлаб ўтишни истардикки қуйида биз мурожаат қиладиган воқелик бевосита феминизм таъсири билан боғлиқ бўлмай, бошқа омиллар – ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ва у яратган шарт-шароитларга бевосита дахлдор бўлиб, буни қуйида ўзингиз ҳам англаб етасиз. Биз гапирмоқчи бўлган ҳолат ҳаммаша Ғарбдаги инсон ҳуқуқлари ҳимоячилари ва феминистлари томонидан аёвсиз танқид қилинадиган мусулмон дунёсидаги сўнги йилларда юз берган эврилишлар билан боғлиқ. Бу эврилишлар илгари мисли кўрилмаган ўзгаришлар – аёлларнинг жамият миқёсидаги фаоллиги

ортиши ва ижтимоий ривожланишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучларидан бирига айланиши жараёнини ўзида ифода этганлиги билан диққатга сазовордир. Буни биз Форс кўрфазидagi нефтга бой мамлакатлар – Саудия Арабистони, Қатар ва Бирлашган Араб Амирликлари, шунингдек, ислом оламининг бошқа вакиллари – Миср, Туркия, Бангладеш, Индонезия, Покистон каби малакатлардаги ижтимоий-иқтисодий вазиятнинг аёлларнинг тақдирида сезиларли ижобий рол ўйнаганлигида кўришимиз мумкин. Бу ўзгаришлар биринчи навбатда аёлларнинг олий маълумотлилиқ даражаси ортишида рўй берди. Бугун Жазоир, Баҳрайн, Иордания, Қувайт, Ливан, Уммон, Қатар, Саудия Арабистони ва Тунисда аёлларнинг университетлардаги иштироки миқдори эркаклар миқдоридан ортиб кетди... Ушбу жадаллик нафақат оммавий ва унинг суръати ҳақида маълумотлар ноаниқ, шунингдек у давом этапти. Мисол учун Туркияда университетда ўқиётган аёллар сони тезкор ўсиб бормоқда. Уларнинг даражаси 10 йил олдин эркаклар даражасига кўра 75 фоизни ташкил этган бўлса, ҳозир бу 85 фоизга етган. Мисрда эса ўн йиллар илгари университетда ўқиётган эркакларнинг тўрттасига учта аёл тўғри келган бўлса, ҳозир бу миқдор дээрли тенглашган. Табиий ресурсларга бой мамлакатларда вазият бундан ҳам жадалроқ. Бирлашган Араб Амирликларида университетларда ўқийдиган аёллар сони эркакларникига қараганда 3 марта кўпроқ. Саудия Арабистони университетларида гендер фарқлар ўн йиллар олдин йўқолган эди. Бироқ мутлоқ миқдор ўсишда давом этапти: университет ёшига етган гуруҳдаги аёлларнинг камида тахминан 50 фоизи амалда университетга қатнайди... Бу миқдор Хитой, Ҳиндистон ва Мексикадагидан анча юқори.

Буларнинг барчаси нимани англатади? Аёллар таълими оила ичида чуқур илдиз отиши ва одатий ҳолга келиши вақтида ўзгаришларнинг навбатдаги тўлқини тўлиқ сафарбарликда эди: аёлларнинг кўпчилиги ишга қатнаётганди. Сўнги ўн йилликда дээрли 40 миллион мусулмон аёллар ишчилар сафига қўшилдилар: уларнинг 9 миллиони Араб дунёсида, 8 миллиони Индонезияда, 7 миллиони Покистонда, 7 миллиони Бангладешда, 2 миллиони Туркияда ва бир миллиони Малайзияда... Натижада меҳнат бозорининг янги қисми ҳамда чексиз истеъмол гуруҳи пайдо бўлди. Бироқ иш яқунланмади. Аёл ва эркакларнинг меҳнат бозоридаги иштироки ўртасидаги йирик гендер фарқ сақланиб қолди: мисол учун Бирлашган Араб Амирликларида эркакларнинг 92 фоизи билан қиёслаганда ишга яроқли аёлларнинг тахминан 47 фоизи

ишламоқда. Агар келаси 15 йил давомида Яқин Шарқ ва Шимолий Африка бўйлаб аёлларнинг бандлиги сони ишда банд бўлган эркакларнинг учдан икки қисмига етса, бу минтақавий ЯИМни 20 фоиз ва ундан кўпроғига олиб чиқиш қудратига эга бўлади[12]. Юқоридаги мисоллардан кўриниб турибдики, иқтисодий ривожланиш ижтимоий ҳаётдаги кескинликни камайтириши билан бирга жинслар ўртасидаги зиддиятларни ҳам юмшатар экан. Албатта, бу тенгсизликка мутлоқ тарзда барҳам бериш иложсиз нарса, лекин уни минимал даражада ушлаб туриш ҳам улкан ютуқ ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар. Демократиянинг гендерлашуви жараёни кечаётган бир вақтда феминистик ғояларнинг турли маданиятлар қадриятлар тизимига интеграциялашувини амалга ошириш муҳимлигини англаган ҳолда ана шу қадриятларнинг ҳам трансформацияга учраши қонуний тус олиши жараёнини тадқиқ этиш муҳим. Хусусан бу ҳозирги замонда ривожланиш муаммолари интеграциялашган шаклда намоён бўлаётган пайтда жуда долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Bartlett, K., T. Tradition, Change, and the Idea of Progress in Feminist Legal Thought. //Wisconsin Law Review, 1995, p. 304. (303-343).
2. Turayeva, R. Women as Change Agents: Gender in Post-Soviet Central Asia. Women of Asia: Globalization, Development, and Gender Equity (1st ed.). London. Routledge. 2018. P. 16. (464).
3. Maluleke, M.J. Culture, tradition, custom, law and gender equality. // Potchefstroom Electronic Law Journal/Potchefstroomse Elektroniese Regsblad. VOLUME 15, No 1, 2012. P. 18 (2-22).
4. Vatuk, S. Islamic Feminism in India: Indian Muslim Women Activists and the Reform of Muslim Personal Law. // Modern Asian Studies, Vol. 42, No. 2/3, 2008, p. 491 (489-518).
5. Akhtar, N. and Métraux, D.A. PAKISTAN IS A DANGEROUS AND INSECURE PLACE FOR WOMEN. // International Journal on World Peace, Vol. 30, No. 2, JUNE, 2013, p. 35 (35-70).
6. Чыкынова, А. В Кыргызстане 50% мужчин и 30% женщин считают, что муж имеет право бить жену – минздрав. // Кыргызское телеграфное агентство. Июль 14, 2015. <https://kyrtag.kg/ru/news/v-kyrgyzstane-50-muzhchin-i-30-zhenshchinchishitayut-cto-muzh-imeet-pravo-bit-zheny-minzdrav>
7. Kucinskas, J. A Research Note on Islam and Gender Egalitarianism: An Examination of Egyptian and Saudi Arabian Youth Attitudes. // Journal for the Scientific Study of Religion, Vol. 49, No. 4, DECEMBER, 2010, p. 763. (761-770).
8. Vatuk, S. Islamic Feminism in India: Indian Muslim Women Activists and the Reform of Muslim Personal Law. // Modern Asian Studies, Vol. 42, No. 2/3, 2008, p. 491 (489-518).
9. Bano, R. High demand for hostels for Muslim women.//www.bbc.co.uk. December 1, 2013. <https://www.bbc.com/news/uk-england-24578426>
10. Akhtar, N. and Métraux, D.A. PAKISTAN IS A DANGEROUS AND INSECURE PLACE FOR WOMEN. // International Journal on World Peace, Vol. 30, No. 2, JUNE, 2013, p. 35 (35-70).
11. Recent Muslim marriages in Singapore see decline in divorce rate. // Tribune. April 8, 2015. <https://tribune.com.pk/story/866323/recent-muslim-marriages-in-singapore-see-decline-in-divorce-rate>
12. Zahidi, S. Women in the Muslim world taking the fast track to change. // www.mckinsey.com. March, 2015.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается трансформация традиций и их интеграция в феминистские идеи. Основное внимание уделяется переоценке особенностей традиций, противостоящих гендерному равенству, в контексте прав человека и социального контекста. Также анализируется адаптация феминистских идеалов к системе традиционных ценностей.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, традиции, трансформация, феминизм, ислам, семья, образование.

**Abstract:** This paper discusses the transformation of traditions and their integration to feminist ideas. A main focus is given to re-evaluation of features of traditions that oppose gender equality in the context of human rights and social context. It also analyzes the adaptation of feminist ideals to the system of traditional values.

**Keywords:** gender equality, traditions, transformation, feminism, Islam, family, education.

# ROSSIYANING TURLI DAVRLARDA XORAZM VA AMUDARYO HUDUDLARIDA OLIB BORGAN EKSPEDITSIYALARI

N. Djumageldiev,

Ajiniyoz nomidagi NDPI Tarix kafedrası dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya:** *Xorazm ekspeditsiyasi qadimgi shaharlar, sug'orish tizimlari va mahalliy xalqlarning turmush tarzini chuqur tahlil qilib, etnografik va arxeologik topilmalar orqali O'zbekistonning madaniy merosini dunyoga tanitdi. Amudaryo ekspeditsiyasi esa daryoning tabiiy xususiyatlarini, topografik xaritalarini va mintaqaning iqtisodiy ahamiyatini o'rgandi. Maqola ekspeditsiyalarni solishtirish orqali ularning o'ziga xos va umumiy jihatlarini yoritadi, shuningdek, ularning global ilmiy doiralarga ta'sirini va O'zbekistonning madaniy-tarixiy o'rnini ta'kidlaydi. Ilmiy manbalarga asoslangan ushbu maqola o'quvchilarga Markaziy Osiyo tarixini chuqur anglash imkonini beradi va zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi, Amudaryo ekspeditsiyasi, Xorazm ekspeditsiyasi, arxeologiya, etnografiya, madaniy meros, topografik xaritalar, Markaziy Osiyo, madaniy almashinuv.*

**Kirish.** O'tgan asrlarda, ayniqsa XVIII-XX asrlarda, Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoga katta e'tibor qaratgan. Bu hudud ularning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy rejalarida ham muhim o'rin tutgan. Shuning uchun bu yerda harbiy yurishlar bilan birga ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil etilgan. Ular orqali hududlarni o'rganish, xaritalar tuzish, odamlar hayotini va resurslarni bilishni maqsad qilingan. Markaziy Osiyo qadimdan turli xalqlar va madaniyatlar kesishgan hudud bo'lgan. Bu yerda Buyuk Ipak yo'li o'tgan va u Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan. Shuning uchun bu hududda boy tarix va madaniyat shakllangan.

XVIII asrda Pyotr I o'z davlati kuchli bo'lishini xohlagan. Shu sababli u faqat Yevropa emas, Osiyoga ham qiziqib qaragan. Pyotrning asosiy niyati — Hindiston bilan savdo qilish edi. Chunki u bu orqali Rossiyani boy qilishni istagan. 1714-yil 2-iyunda Pyotr I Preobrajenskiy polkini kapitan leytenant knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy Amudaryo hududida oltin manbasini topish tog'risida farmon chiqardi.[8] Bu davirda Rossiyada O'rta Osiya davlatlari, mintaqa geografiyasi, Hindistonga borish yo'llari haqida ma'lumot juda kam va tarqoq holatta edi.

Bu yurish Rossiyaga og'ir tushdi. Pyotr I tushundi:

O'rta Osiyoga yurish qilish oson emas ekan. Bu yurish omadsiz tugagani uchun Rossiya bir muddat O'rta Osiyoga boshqa yurish qilmay turdi. Lekin shunga qaramay, Rossiya bu hududlarga bo'lgan qiziqishini yo'qotmadi. Ular baribir yana kelishni istardi. Xivaga qilingan yurish Rossiyaning O'rta Osiyoga ilk urinishlaridan biri edi. Bu tajriba keyinchalik boshqa yurishlar uchun saboq bo'lib qoldi. Bu voqea shuni ko'rsatdi: O'rta Osiyo xalqlari ham o'zini himoya qila oladi, Rossiyaga qarshi kurashishga tayyor edi. Tarixda bu yurish Rossiyaning birinchi va eng omadsiz yurishlaridan biri sifatida eslab qolinadi. 1839-yildan 1842-yilgacha Rossiya Amudaryo atrofini o'rganish uchun harbiy ekspeditsiyalar o'tkazgan. Bu yurishlar Rossiyaning O'rta Osiyoga bo'lgan rejalarini bilan bog'liq edi. Ular siyosiy va savdo yo'llarini o'rganmoqchi bo'lgan.

Rossiya Amudaryo atrofini, suv yo'llarini o'rganmoqchi edi. Ular bu daryo orqali harbiy yurishlar qilsa bo'ladimi shuni bilmoqchi bo'lishgan. Bu yurish paytida ular Amudaryo atrofidagi yerlar, ob-havo va odamlar haqida ko'p narsalarni yozib olishgan. Bu safarlar keyinchalik Rossiyaning O'rta Osiyoga qilgan boshqa yurishlariga asos bo'lib xizmat qilgan.

XIX asrda Rossiya bu hududga katta qiziqish

bildirgan. Shuning uchun u yerga bir necha marta ilmiy guruhlar yuborilgan. Shulardan eng mashhurlari 1874-yildagi Amudaryo bo'yida ekspeditsiyalar asosan Rossiya davrida, XIX asrning oxiri yoki XX asr boshlarida boshlangan. Ularning maqsadi daryoning atrofini, suv yo'llarini va yerning holatini o'rganish bo'lgan. Rossiya bu joylarni yaxshiroq o'rganib, siyosiy va harbiy rejalar tuzmoqchi bo'lgan.

Ekspeditsiya ishtirokchilari Amudaryoning qayerdan qanday oqishini, suv miqdorini, atrofdagi yerlarning holatini o'rgangan. Ular xaritalar ham tuzgan. Yerlar qanchalik unumdorligini va bu joylarda dehqonchilik qilish mumkinmi, deb ham tekshirgan. Shu bilan birga, odamlarning qanday yashashi, urf-odatlarini ham kuzatilgan. Bu ekspeditsiya orqali Amudaryo bo'yidagi joylar haqida ko'p ilmiy ma'lumotlar to'plangan. Daryoning oqimi va yerlar qanday ekanligi o'rganilgan. Bu ma'lumotlar keyinchalik sug'orish (irrigatsiya) ishlariga yordam bergan. Bu ishlar tarix, geografiya va dehqonchilik fanlari uchun foydali asos bo'lib xizmat qilgan.

Keyinroq, Sovet davrida tashkil etilgan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi hisoblanadi. Bu ekspeditsiyalar faqat ilmiy natijalar emas, balki xalqimizning qadimiy madaniyatini dunyoga tanitishga ham xizmat qilgan. Bu ekspeditsiya yani Xorazm ekspeditsiyasi XX asrda, ya'ni 1937-yili Sovet davrida tashkil etilgan. U Xorazmning o'tmishi va xalqining hayot tarzini o'rganish maqsadida arxeologiya va etnografiyani birgalikda o'rgangan. Ekspeditsiyada arxeologlar, tarixchilar va xalq hayotini o'rganuvchi mutaxassislar ishtirok etgan. Ularning asosiy vazifasi Xorazmdagi qadimiy shahar va qal'alarni, shuningdek, odamlarning turmushini o'rganish bo'lgan. Ular qazish ishlari orqali qadimgi shaharlar, minoralar va boshqa tarixiy joylarni o'rgangan. Ayniqsa, Qo'yqirilganqal'a va Tupraqqal'a joylarida qilgan ishlari juda muhim bo'lgan. Ular qazilgan buyumlar, devorga chizilgan rasmlar, uylarning tuzilishiga qarab qadimgi odamlar qanday yashaganini bilib olishgan. Bu ekspeditsiya natijasida juda ko'p tarixiy joylar, yozuvlar va qadimiy buyumlar topilgan va o'rganilgan. Topilgan narsalar tarixchilarga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari qanday yashaganini yaxshiroq tushunishga yordam bergan. Bu ekspeditsiya arxeologiya fanining o'zimizdagi rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

Ekspeditsiya bu o'zi nima? Rossiya nima sabab bir necha marotaba Xiva xonligi hududiga turli ekspeditsiyalarni turli davrlarda tashkillashtirgan? Ulardan eng mashhurlari bu: 1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi, 1874-yilgi Amudaryo ilmiy ekspeditsiyasi 1937-yilgi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyalardir.

Ekspeditsiya lotincha "tartibga keltirish", "biror narsani jo'natib tarqatish" degan ma'noni bildiradi.

Maxsus guruhlarning ilmiy yoki harbiy maqsadlarda tashkillashtirgan sayohati yoki guruh faoliyati.[9]

Aynan shunday maqsadlar bilan Rossiya Xiva xonligi hududida ekspeditsiyalar o'tkazib, Xiva xonligini va hududini o'rganmoqchi bo'lgan. Ekspeditsiya maqsadlarini ko'rib chiqamiz. Boshqalar unchalik e'tibor bermagan jihatlar ya'ni "Buyuk o'yin".

Buyuk o'yin nima? XIX asrda Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida bo'lib o'tgan geosiyosiy raqobat mana shunday ataladi. Rossiyaning Markaziy Osiyo yerlarini o'rganishi strategik jihatdan ham juda muhim edi va shuning uchun ham ko'plab ekspeditsiyalar Markaziy Osiyoga qaratilgandi. Albatta, bu Buyuk Britaniyani xavotirga solardi. Agar Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni butunlay qo'lga kiritisa va Buyuk Ipak yo'lining tranzit nuqtalarini egallab, Hindistonga ham ko'z olaytirishi mumkin edi. Lekin voqealar rivoji bunday tus olmadi. 1873-yil Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida kelishuv tuzildi.

Ekspeditsiyalarga qaytadigan bo'lsak, Rossiya Pyotr I davridan beri Markaziy Osiyo yerlariga qiziqar edi. Shu sababli 1717-yili Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida ekspeditsiya shu hududga yetib keldi. Ekspeditsiyaning asl maqsadi oltin konlarini topish va harbiy jihatdan hududini o'rganish edi. Lekin ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sherg'ozixon ekspeditsiya a'zolarini maydalab, bir necha shaharlarga joylashtirdi. Sababi esa Xivaga kelgan barcha rus qo'shinlarini yashash resurslari bilan taminlay olmasligi va shuning uchun ularni 5 xil shaharga bo'lish kerakligiga ishonitirdi va qo'shinini tarqatib yubordi. So'ng hujumga o'tib, ularni yo'q qildi.[1]

Ekspeditsiya fojiali yakunlanganligi bilan o'zidan bir qancha iz qoldirdi va bu Rossiya uchun xulosa va tajriba bo'ldi. Ekspeditsiya Amudaryo o'zani va O'rta Osiyo geografiyasi haqida noto'g'ri ma'lumotlarga asoslangandi. Ular o'ylashgandiki, daryo oltin qumlar va oltin konlariga boy, lekin bu afsona edi. Cho'lda bo'lsa suvsizlik, oziq-ovqat yetishmasligi, ob-havo va mahalliy qabilalar hujumi tahdid solardi. Bu Rossiyaga mintaqa haqida aniqroq ma'lumotlar to'plashligi kerakligini ko'rsatib berdi. Natijada keyingi davrlarda Rossiya Kaspiy dengizi va O'rta Osiyo mintaqalarida ko'proq ilmiy izlanishlarni olib borishga qaratti.

1874-yilgi Amudaryo ekspeditsiyasi O'rta Osiyodagi eng muhim geografik va iqtisodiy imkoniyatlarni o'rganishga qaratilgan edi. 1874-yilda Rossiya imperiyasi Amudaryoga katta ilmiy ekspeditsiya yo'lladi. Bu oddiy sayohat emas, balki O'rta Osiyoning eng muhim tadqiqotlaridan biri bo'ldi. Olimlarning asosiy maqsadi daryoning oqimi, tabiiy resurslari va uning atrofidagi hayot haqida to'liq tasavvur hosil qilish edi. Ayniqsa,

Xiva xonligi va Amudaryoning quyi oqimlari, hozirgi Nukus atroflarida olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ekspeditsiya Amudaryoning har bir burilishida, har bir irmog'ida yangicha ma'lumot yig'di. Daryoning chuqurligi, kengligi, oqim tezligi o'Ichandi. Suv yo'llari xaritalandi, hatto deltaning Orol dengiziga ta'siri ham kuzatildi. Olimlar o'sha paytdanoq daryoning o'zani tinimsiz o'zgarib turishini payqab, bu hududni xaritalash naqadar murakkabligini qayd etishgan. Daryoning tarixan Kaspiy dengiziga oqib kelgani va keyinchalik Orol dengiziga yo'nalgani haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning asarlariga asoslanib tasdiqlangan. Ammo ular faqat suvni o'lchash bilan cheklanib qolishmadi. Nukus atrofidagi to'qay o'rmonlarini turang'il, tol, jiydalarni yozib olishdi.[4] Sho'rlangan tuproqlar, qumga singib ketayotgan suvlar haqida qaydlar qilishdi. Bu qaydlar bugun qarasak, Orol dengizi fojeasiga eltuvchi dastlabki ogohlantirishlar bo'lib chiqqan. Daryo bo'yida suv transporti uchun yo'llarni rivojlantirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan, chunki o'sha davrda Amudaryo suv transportida muhim rol o'ynagan. Safar davomida olimlar mahalliy aholi bilan ham muloqot qilishdi. Qoraqalpoq, o'zbek va turkman dehqonlari qanday yer haydashini, qanday suv chiqarishini, qanday turmush kechirishini yozib olishdi. Bu faqat ilmiy ma'lumot emas, balki etnografik boylik bo'lib qoldi.

Eng qiziqarlisi, shu tadqiqotlar davomida keyinchalik mashhur bo'lib ketgan Amudaryo xazinasiga yo'l ochildi. Amudaryo xazinasiga ming yillardan kelgan sir. 1877-yilda qadimiy Amudaryo bo'ylarida kutilmagan topilma olamshumul voqeaga aylandi. Bu oddiy qazilma emas edi 179 ta oltin, 7 ta kumush buyum va ming yarimga yaqin tangalar topildi.[7] O'sha buyumlar orasida marosimlarda ishlatilgan idishlar, ot va aravalari haykallari, bilaguzuklar, marjonlar, tangachalardan yasalgan taqinchoqlar bor edi. Xazinaning aniq maqsadi hali ham muhokama qilinadi. U diniy marosimlar uchun yig'ilgan sovg'alar, shoh xazinasiga yoki savdo karvoni yuklarining bir qismi bo'lishi mumkin. Xazinaning ayrim buyumlari bugun ham odamni hayratda qoldiradi. Masalan, hayvon shaklida ishlangan mayda haykalchalar yoki sirli marosim plitalari. Ularni qo'lga olib qaragan odam ming yillik tarixning nafasi, qadim odamlarning didi va dunyo qarashini his qilgandek bo'ladi. Xazina Ahomaniylar, Yunon-Baqtriya va mahalliy O'rta Osiyo madaniyatlarining aralashuvini aks ettiradi. Masalan, buyumlarda yunoncha uslubdagi naqshlar bilan birga mahalliy Zoomorfik (hayvon shaklidagi) tasvirlar uchraydi. Bu xazina, aslida, faqat oltin va kumush yig'indisi emas. U o'z davrining madaniy yodgorligi, o'sha zamon hayoti, e'tiqodi va san'atidan darak beruvchi

tirik guvohdir.

1877-yilda topilgan bu oltin va kumush buyumlar shohona taqinchoqlar, mayda haykalchalar va tangalar bugun xazina Britaniya muzeyida saqlanadi va dunyodagi eng muhim arxeologik to'plamlardan biri sifatida ko'riladi.[7] Uning ba'zi buyumlari Tojikiston muzeylarida ko'rgazmaga qo'yilgan, ammo asosiy qismi Londonda. Xazina haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ammo uning kelib chiqishi va maqsadi haqida hali ham savollar mavjud. Har bir buyum go'yo ming yillik tarixdan kelgan sirli maktubday taassurot uyg'otadi.

1874-1878-yilgi ekspeditsiya Amudaryo haqida katta ilmiy xulosalar berdi:

- daryoning strategik va iqtisodiy ahamiyati,
- suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari,
- arxeologik va tarixiy topilmalar,
- ekologik muammolarning ilk belgilari.

Shu tariqa, bu safar nafaqat Rossiya uchun, balki bizning tariximiz uchun ham muhim burilish bo'ldi. Chunki u O'rta Osiyo tabiatini, qadimiy madaniyatini va odamlarini ilmiy nuqtai nazardan dunyoga tanitdi. Endi bu hududni yanada chuqurroq o'rganish qiziqarli tuyulardi. Balki bunday topilmalar juda ko'pdir? Faqat buni o'rganish va izlanishning bir yo'li bor. Mana shunday bo'ldi ham. Keyingi davrlarda qariyb 40 yildan ortiq vaqt davomida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi o'z ishini olib bordi.

Eng katta va uzoq yillar moboynda olib borilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi 1937-yilda tashkil etilgan bo'lib, Xorazm vohasining tarixi va madaniyatini (paleolit davridan milodiy XVIII-XIX asrlargacha) o'rganishga bag'ishlangan. Ekspeditsiyaga sovet arxeologi va etnografi Sergey Pavlovich Tolstov asos solgan va qariyb 40 yil davomida rahbarlik qilgan. U hududni "Markaziy Osiyo Misri" deb atagan va uning moddiy va ma'naviy merosini o'rganishga umrini bag'ishlagan. Ekspeditsiya SSSRning eng muhim va yaxshi jihozlangan arxeologik loyihalaridan biriga aylandi, bu yerda birinchi marta keng ko'lamli aerofotosuratlar va turli fanlar mutaxassislarining hamkorligi qo'llanildi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda katta burilish yasagan tadqiqotlardan biridir. Ekspeditsiya davomida mingga yaqin arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ular orasida qadimiy saroylar, qal'alar va shahar xarobalari bor edi. Masalan, eramizning II–III asrlariga oid Tuproqqa'l'a saroyi, neolit davriga mansub Jonbosqa'l'a, miloddan avvalgi IV asr va milodiy IV asrlarda qurilgan Qo'yqirilganqa'l'a hamda o'rta asrning yirik shahri Ko'hna Urganch topilgan yodgorliklar sirasiga kiradi. Shuningdek, Tagisken va Uyg'arak qabristonlari, 1939-yilda kashf

etilgan Kaltaminor madaniyatiga oid topilmalar ham tariximizni yoritishda muhim o'rin tutadi. 1948-yilda S.P. Tolstov tomonidan aniqlangan Tozabog'yoq madaniyati esa Xorazm tarixini o'rganishda yangi bosqich ochdi.[2] Ekspeditsiyaning muhim jihatlardan biri – ilmiy usullardagi yangiliklar edi. Tadqiqotlarda nafaqat arxeologlar, balki etnograflar, geologlar, tuproqshunoslar, antropologlar va boshqa mutaxassislar ham qatnashdi. Bu yondashuv Xorazm tarixini kompleks tarzda o'rganishga imkon berdi. Eng qiziqarli shundaki, 1946-yildan boshlab qadimiy qal'a xarobalarini aniqlashda aerofotosuratlardan foydalanildi.[2] Airplanlarda olingan suratlar Yevrosiyadagi eng yirik arxeologik aerofoto arxivini yaratdi. Shuningdek, qadimiy sug'orish tizimlari xaritada tushirilib, vohaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini chuqurroq anglash imkoniyati tug'ildi. Bu ekspeditsiya Xorazm tarixiga oid mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Masalan, qadimiy Xorazmning janubroqda, hatto Hirot atrofida

joylashganligi haqidagi ilmiy taxminlar tasdiqlandi. O'rta asrlardagi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni va savdo aloqalari yanada aniqroq o'rganildi. Numizmatik topilmalar – qadimiy tangalar orqali esa Xorazmning iqtisodiy qudrati va xalqaro aloqalari haqida muhim dalillar to'plandi.

Qazishmalar davomida qiziqarli topilmalar ham ancha ko'p uchradi. Masalan, Ellikqal'a tumanidagi Qo'yqirilgan qal'ada qadimiy xorazmlik erkakning yuz qiyofasi tasvirlangan portret va toshdan yasalgan yirik bosh haykali topildi. Bu Xorazm san'ati va madaniyatining yuqori darajaga yetganidan dalolat beradi. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar Amudaryo o'zani o'zgarishi bilan bog'liq holda yangi sug'orish tizimlari va aholi manzillari paydo bo'lganini ko'rsatdi. Ekspeditsiyaning asosiy rahbari Sergey Pavlovich Tolstov o'zining 16 jildlik ilmiy merosi va "Qadimgi Xorazm" (1948) asari orqali bu yodgorliklarni xalqaro ilm-fanga olib chiqdi. Uning



ishlari bugungi kunda ham fundamental manba sifatida qadrlanadi. Shu bilan birga, ekspeditsiya natijalari nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 1987-yilda YUNESKO tomonidan amalga oshirilgan "Ipak yo'li – muloqot yo'li" loyihasi aynan Xorazm yodgorliklarini o'rganishga tayanib ish yuritdi.[5]

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi nafaqat yangi yodgorliklarni kashf etdi, balki ilmiy usullardagi yangiliklari, xalqaro ahamiyati va qiziqarli topilmalari bilan ham ajralib turadi. Qo'yqirilgan qal'adagi portret yoki aerofotosuratlar arxivi kabi misollar ekspeditsiyaning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ham ushbu tadqiqotlar O'zbekiston arxeologiyasi va etnografiyasini rivojlantirishda katta

ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

O'rta Osiyo tarixini o'rganish jarayonida Rossiya va keyinchalik Sovet davlati tomonidan o'tkazilgan ekspeditsiyalar alohida o'rin tutadi. Ularning orasida 1717-yilda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga uyushtirilgan yurish, 1874-yilda tashkil etilgan Amudaryo ilmiy ekspeditsiyasi va 1937-yilda boshlangan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi ayniqsa muhimdir. Bu uch voqea nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi tarix fani uchun ham qimmatli saboqlar qoldirgan. Ularni bir butun holda ko'rib chiqqanda, biz Rossiyaning O'rta Osiyoga munosabatini yaqqol ko'ramiz: dastlabki harbiy kengayishdan boshlab, ilmiy qiziqish va sistematik tadqiqotlarga bo'lgan jarayon.

Uch ekspeditsiya bir-biri bilan bevosita bog'langan bosqichlar sifatida namoyon bo'ladi. 1717-yilgi Bekovich Cherkasskiy yurishi – bu Rossiyaning O'rta Osiyoga qilgan ilk "tajribasi", u ko'proq harbiy va diplomatik maqsadlarni ko'zlagan. 1874-yildagi Amudaryo ekspeditsiyasi esa allaqachon ilmiy qiyofa ostida o'tkazilgan bo'lsa-da, amalda imperiyaning kolonial manfaatlariga xizmat qilgan. Nihoyat, 1937-yilda Tolstov boshchiligidagi boshlangan Xorazm ekspeditsiyasi esa keng ko'lamli arxeologik va etnografik tadqiqotlar bosqichini ochdi. Shu tariqa, O'rta Osiyo "noma'lum" hudud sifatida tasvirlanishdan chiqib, ilmiy jamoatchilik oldida qadimiy madaniyatlari, tabiiy sharoitlari va xalqning turmush tarzi bilan mashhur bo'la boshladi.

Bugungi kunda bu ekspeditsiyalar tarix faniga juda ko'p jihatdan hissa qo'shgan: ular orqali O'rta Osiyo qadim sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida qayta tan olindi, ekologik muammolar chuqurroq anglandi, hamda postkolonial tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratildi. Eng muhimi, bu izlanishlar mahalliy xalqlarning o'z tarixini qayta anglash va qadrlashiga yordam berdi.

Pyotr I farmoni bilan yuborilgan bu yurishning asosiy maqsadi Xiva xonligini Rossiya ta'siri ostiga olish, Amudaryo bo'yida oltin konlarini qidirish va savdo yo'llarini ochish edi. 4000-5000 kishilik qo'shin Kaspiy bo'yidan chiqib, Amudaryo deltasi orqali Xivaga yaqinlashadi. Biroq Xiva xoni Sherg'ozixonning hiylasi tufayli ekspeditsiya fojiali yakun topadi: deyarli butun qo'shin yo'q qilinadi. Bu voqea o'sha davrdagi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga qilgan dastlabki tajovuzi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u Xiva xonligining mustaqillikni himoya qilish yo'lidagi qat'iy qarshilik sifatida ham tarixda o'rin oldi. Bugungi kunda bu ekspeditsiya kolonializmning dastlabki bosqichlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. U orqali Rossiya imperiyasi va mahalliy davlatlar o'rtasidagi murakkab siyosiy munosabatlar, qarshilik va hiyla bilan olib borilgan siyosat ochib beriladi. Zamonaviy tarixchilar, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston olimlari bu voqeani milliy qarshilik ramzi sifatida qayta talqin qilmoqdalar.

Xiva 1873-yilda bosib olingach, Rossiya imperiyasi bu hududni ilmiy jihatdan ham o'rganishga kirishdi. 1874-yilda tashkil etilgan Amudaryo ekspeditsiyasi aslida ilmiy nom ostida bo'lsa-da, uning siyosiy va amaliy vazifalari yaqqol edi: Amudaryoning gidrologiyasini o'rganish, hududni xaritalash, etnografik va botanik ma'lumotlarni yig'ish. Ekspeditsiyada rassom N. Karazin ishtirok etib, ko'plab chizmalar va tasvirlar yaratdi. Bu tasvirlar orqali XIX asr oxiridagi O'rta Osiyo hayoti bugungi kunda ham ko'z oldimizda gavdalanadi.

Ekspeditsiyaning eng muhim natijasi shundaki, u

Amudaryo suv tizimlari haqida dastlabki mukammal ma'lumotlarni berdi. Bugungi ekologik tadqiqotlarda, xususan, Oral dengizi fojeasini tushinishda bu materiallar bebaho ahamiyatga ega. Shu jihatdan, 1874-yilgi ekspeditsiya nafaqat ilmiy kuzatuv, balki kelajakdagi ekologik siyosat uchun ham saboq bo'lib qoldi. Shu bilan birga, u "Buyuk o'yin" davridagi geosiyosiy raqobat Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi raqobat kontekstida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning eng mashhur ilmiy loyihalaridan biri bu Tolstov rahbarligida 1937-yilda boshlangan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasidir. Dastlab Sovet Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan bu ekspeditsiya 1991-yilgacha davom etib, O'rta Osiyo arxeologiyasida inqilobiy natijalar berdi.[8]

Uning maqsadi Xorazmning qadimiy yodgorliklarini qazish, qadimiy sug'orish tizimlarini o'rganish va mahalliy xalqlarning etnografiyasini hujjatlashtirish edi. Natijada Tuproqqal'a, Qo'yqirilgan qal'a kabi buyuk yodgorliklar o'rganildi. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoning qadimiy davlatlari haqida tasavvurlarni tubdan o'zgartirdi va uni Mesopotamiya yoki Misr kabi buyuk sivilizatsiyalar qatoriga qo'shdi.

Ekspeditsiya natijalari faqat arxeologiya bilan chegaralanib qolmadi. U Sovet siyosiy ideologiyasining ham bir qismi sifatida qaraldi, chunki u orqali O'rta Osiyo xalqlarining "qadimiy madaniyati" targ'ib qilinadi, shu bilan birga iqtisodiy loyihalar, masalan, paxta yetishtirish uchun zarur suv tizimlari haqida amaliy ma'lumotlar ham to'plangan. Bugungi kunda uning arxivlari raqamlashtirilmoqda va yangi ilmiy talqinlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu uch ekspeditsiya O'rta Osiyoning geografiyasi, ekologiyasi, madaniyati va siyosiy tarixini o'rganishda turli darajada hissa qo'shdi.

– Bekovich-Cherkasskiy – yurishi mustamlakachilikning dastlabki fojiali saboqlarini ko'rsatdi.

– Amudaryo ekspeditsiyasi – ekologik va etnografik kuzatuvlari bilan bugungi ekologik muammolarni anglashga asos bo'ldi.

– Xorazm ekspeditsiyasi – arxeologiya va etnografiyaning oltin davrini boshlab berdi, O'rta Osiyo sivilizatsiyasini jahon tarixida munosib o'ringa ko'tardi.

Bugun ular tarix fani uchun uchta asosiy yo'nalishda ahamiyatlidir:

1. Ekologik saboq – suv resurslarining noto'g'ri boshqarilishi qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rsatdi.

2. Kolonializmni tushinish – Rossiya va Sovet davri ilmiy ekspeditsiyalari aslida siyosiy maqsadlarga ham xizmat qilganini ochib berdi.

3. Madaniy merosni qadrlash – qadimiy Xorazm yodgorliklari va XIX asr O'rta Osiyosining vizual hujjatlari bugun xalqaro miqyosda ham bebaho boylik sifatida tan olinmoqda.

Shunday qilib, 1717, 1874 va 1937-yillardagi ekspeditsiyalar O'rta Osiyo tarixini o'rganish zanjirining turli bosqichlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan farq qilsa-da, umumiy jihatdan O'rta Osiyoni tashqi dunyo uchun "noma'lum"

hududdan "ilmiy o'rganilgan" makonga aylantirdi. Ularning merosi bugun ham dolzarb: kimdir ularni mustamlakachilikning ramzi sifatida ko'rsa, yana boshqalar qadimiy sivilizatsiyalarni qayta kashf qilish imkoniyati deb baholaydi. Eng muhimi, bu ekspeditsiyalar orqali O'rta Osiyo xalqlari o'z tarixini nafaqat o'tmish sifatida, balki kelajak uchun saboq va ilhom manbai sifatida qayta ko'rib chiqmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jollibekov, B.R. (2023). "Amudaryo ilmiy ekspeditsiyasi – 1874". Nukus: Ilmiy nashr.
2. Isakov, R. "Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasida etnografik tadqiqot guruhlarini tashkil etilishi". "Sharq Jurnal".
3. Bartold, V.V. (1928). "Turkiston tarixi". Sankt-Peterburg: Rossiya Imperatorlik Geografik Jamiyati Arxivi.
4. Khanykov, N.V. (1851). "Markaziy Osiyoga sayohat yozuvlari". Moskva: Ilmiy nashrlar.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000–2005). "Xorazm tarixi va madaniyati". Toshkent: Davlat Ilmiy Nashriyoti.
6. Karazin, N.N. (1875). "Amudaryo pasttekisliklarida". Sankt-Peterburg: Rossiya Imperatorlik Geografik Jamiyati.
7. John Curtis (2012) "The Oxus Treasure British museum objects" British Museum Press 8. Library.ziyounet.uz

**Аннотация:** Хорезмская экспедиция провела глубокий анализ древних городов, ирригационных систем и образа жизни местных народов, представив миру культурное наследие Узбекистана через этнографические и археологические находки. Амударьинская экспедиция, в свою очередь, исследовала природные особенности реки, топографические карты и экономический потенциал региона. Путем сравнения экспедиций в статье освещаются их уникальные и общие черты, а также подчеркивается их влияние на мировые научные круги и культурно-историческое место Узбекистана. Статья, основанная на научных источниках, позволяет глубже понять историю Центральной Азии и служит важным пособием для современных исследований.

**Ключевые слова:** экспедиция Бековича-Черкасского, Амударьинская экспедиция, Хорезмская экспедиция, археология, этнография, культурное наследие, топографические карты, Центральная Азия, культурный обмен.

**Abstract:** The Khorezm expedition provided a profound analysis of ancient cities, irrigation systems, and the lifestyles of local peoples, showcasing Uzbekistan's cultural heritage to the world through ethnographic and archaeological discoveries. Meanwhile, the Amu Darya expedition studied the river's natural characteristics, topographic mapping, and the economic potential of the region. By comparing these expeditions, the article highlights their unique and common features, emphasizing their impact on global scientific circles and the cultural-historical standing of Uzbekistan. Based on scholarly sources, this article enables a deeper understanding of Central Asian history and serves as an essential guide for modern research.

**Keywords:** Bekovich-Cherkasskiy expedition, Amu Darya expedition, Khorezm expedition, archaeology, ethnography, cultural heritage, topographic maps, Central Asia, cultural exchange.

# INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDA FOND BOZORINING AHAMIYATI VA ZARURLIGI

I.O. Madaminov,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi PhD, dotsent.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatda investitsion faollikni oshirishda fond bozorining tutgan o'rni va uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, fond bozori orqali kapitalni samarali taqsimlash, investorlar va emitentlar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni shakllantirish hamda iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Toshkent Respublika fond birjasining 2019–2024-yillar ko'rsatkichlari mintaqaviy taqqoslash kontekstida o'rganilgan, fond bozorining investitsion jarayonlardagi funksional roli, emitentlar va investorlar tarkibi hamda bozorni chuqurlashtirishning strategik yo'lalishlariga oid kompleks tahlil amalga oshirilgan. Maqolada fond bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, kapital bozori, investitsion faollik, investitsion jozibadorlik, moliyaviy bozor, qimmatli qog'ozlar, portfel investitsiyalari, institutsional investorlar, listing, IPO (birlamchi ommaviy taklif), moliyaviy vositalar, likvidlilik, diversifikatsiya, innovatsion rivojlanish, fintech.

**Kirish.** Zamonaviy globallashtirish sharoitida har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishi, avvalo, investitsion jarayonlarning faolligi va samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, balki iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli investitsion faollikni oshirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Investitsion resurslarning yetarli darajada shakllanishi va ularning samarali taqsimlanishi esa rivojlangan moliyaviy tizim mavjudligini talab etadi. Mazkur tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida fond bozori alohida ahamiyat kasb etadi. Fond bozori iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamlash, ularni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish va shu orqali kapital aylanishini jadallashtirish imkonini beradi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi ta'minlanadi hamda yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Fond bozori nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish vositasi, balki iqtisodiyotdagi turli subyektlar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni shakllantiruvchi muhim mexanizm hamdir. Unda investorlar o'z

mablag'larini turli moliyaviy instrumentlarga joylashtirish orqali daromad olish imkoniyatiga ega bo'lsa, korxonalar esa o'z faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli kapitalni jalb etadi. Bu jarayon, o'z navbatida, bozor tamoyillariga asoslangan holda resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, fond bozorini rivojlantirish orqali investitsion faollikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fond bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsion resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi investitsiyalar hajmining oshishi fond bozori kapitalizatsiyasining YaIMga nisbatining oshishiga olib keladi[1]. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan mamlakatlarda investitsiyalarning 40-60 foizi fond bozoriga to'g'ri kelib, ulardagi kapitalizatsiya darajasi esa YaIMdan bir necha barobar oshib ketadi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar fond bozorini yanada

faollashtirish yo'lida sezilarli natijalar berdi. Xususan, "Toshkent" Respublika fond birjasida savdo hajmi 2019-yildagi 1,24 trln. so'mdan 2023-yilda 8,94 trln. so'mga oshdi. Emitentlar soni esa 312 tadan 638 taga yetdi[2]. Biroq, bozor kapitalizatsiyasi darajasi YaIM nisbatan 6,8 foizni tashkil etdi. Lekin, mamlakatimiz fond bozorining ulkan rivojlanish imkoniyatlariga egaligini aytib o'tish lozim. Ushbu maqolaning maqsadi fond bozorining investitsion faollikni oshirishdagi funksional rolini ilmiy tarzda asoslab berish, Toshkent fond birjasining joriy holatini tahlil qilish hamda bozorni yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Fond bozori va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlik masalalari ko'plab taniqli iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Amerikalik olimlar Frederik S.Mishkin, Stanley G.Eakinslar "Moliya bozori va institutlari" nomli kitobining sakkizinchi nashrida moliya bozori tarkibini tahlil qilishib, ular fikricha "pul-kupyura- pul bozorlarida sotilmaydi. Pul bozorida savdo qiladigan qimmatli qog'ozlar qisqa muddatli va yuqori likvidli bo'lganligi sababli, ular pulga o'xshash bo'ladi"[3] deb ta'riflaydilar.

Bir guruh yevropalik iqtisodchilar H.David, G.Mark, T.Sheridanlar o'zlarining "Moliya bozori va korporativ strategiya" asarining Yevropa uchun ikkinchi nashrida kapital bozori tuzilmasini tasvirlaganlar. Ular amerikalik iqtisodchilardan kapital bozori tarkibiga yondashishda boshqacharoq yo'l tutgan, ya'ni ushbu yevropalik olimlar kapital bozori tarkibini tahlil qilishda (guruhlariga ajratishda) ularning moliyalashtirish manbalarini instrumentlari xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashishgan. Amerikalik iqtisodchilar esa, ko'proq ta'minot va kafolat nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib kapital bozorini guruhlashga e'tibor qaratganlar[4].

Hindistonlik iqtisodchilar B.Sidharz, J.Sharma va boshqalar tomonidan nashr etilgan "Moliya bozoriga kirish" asarining birinchi qismida Hindiston moliya tizimida kapital bozorini qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'oz bo'lmagan bozorlar sifatidagi guruhlariga bo'lib o'rganganlar.

Biz tadqiqotimiz davomida investitsion faollikning fond bozoriga ta'siri, emitentlar va investorlar tarkibi hamda bozorni rivojlantirishning strategik yo'lalishlariga oid kompleks tahlillarni amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda fond bozorining investitsion faollikka ta'siri o'rganiladi. Bunda nazariy tahlil, statistik va taqqoslash usullaridan foydalaniladi. Fond bozori ko'rsatkichlari va investitsiyalar hajmi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Ma'lumotlar rasmiy statistika va moliyaviy hisobotlardan olinadi. Tadqiqot natijasida fond bozorining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati

baholanadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Fond bozorida muvaffaqiyatli investitsiya qilishni boshlash uchun fond birjasi haqida ko'proq bilish va fond bozorida mexanizmlarni tushunish muhim. Fond birjasi savdo maydoni bo'lib, bu yerda tovar sotib olmoqchi bo'lganlar va sotmoqchi bo'lganlar yig'iladi. Fond birjasidagi tovar esa qimmatli qog'ozlar: aksiyalar, obligatsiyalar va investitsiya fondi birliklaridir. Oddiy qilib aytganda, fond birjasi – bu qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan uyushgan bozor. Asosiy ishtirokchilardan tashqari, birjada quyidagi ishtirokchilar faoliyat yuritadilar: Banklar–brokerlik xizmatlarini ko'rsatadi va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni moliyalashtiradi. Tahlilchilar–bozor holati va alohida qimmatli qog'ozlar haqida ma'lumot va prognozlar beradi. Savdogarlar (trejderlar)– qimmatli qog'ozlar bo'yicha qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshiradi va narxlarning o'zgarishidan foyda olishga intiladi.

Fond birjasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun indekslardan foydalaniladi. Birja indeksi – bu ma'lum bir davr mobaynida muayyan aksiyalarning qiymati o'rtacha qanchalik o'zgarganligini taqdim etadigan ko'rsatkichdir. Jahon birjalarining asosiy indeksleri qatoriga quyidagilar kiradi: S&P 500-AQShning eng yirik 500 kompaniyasining bozor qiymatini kuzatadi. FTSE 100-Londondagi fond birjasida ro'yxatga olingan eng yirik 100 britan kompaniyasini o'z ichiga oladi. Nikkei 225 (N225)-Tokio fond birjasining indeksidir va 225 ta eng faol aksiyalarning o'rtacha qiymatini ko'rsatadi. IMOEX-Moskva birjasining indeksi bo'lib, Rossianing eng yirik kompaniyalarining aksiyalarini o'z ichiga oladi. Birja indeksleri investorlar uchun aksiyalarning narxlari qanday o'zgarayotganini va bozorning umumiy holatini baholash uchun yordam beradi.

Fond bozori investitsion jarayonlarda kapital safarbar etish, likvidlikni ta'minlash, risklarni taqsimlash, axborot generatsiyasi va monitoring, korporativ boshqaruvni yaxshilash kabi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Fikrimizcha, fond bozorining investitsion faollikka ta'sirini quyidagi nazariy munosabat bilan ifodalash maqsadga muvofiq[8]:

$$I = \alpha_0 + \alpha_1 \cdot \text{CAP\_GDP} + \alpha_2 \cdot \text{LIQ} + \alpha_3 \cdot \text{TURN} + \alpha_4 \cdot \text{INST} + \varepsilon$$

bu yerda: **I** - investitsiyalar/YaIM; **CAP\_GDP** - kapitalizatsiya/YaIM; **LIQ** - bozor likvidligi; **TURN** - aylanma koeffitsienti; **INST** - institutsional investorlar ulushi;  $\varepsilon$  - xatolik haddi. Koeffitsientlar musbat ( $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4 > 0$ ) bo'lib, bu fond bozorining rivojlanishi investitsiyalar hajmini to'g'ridan-to'g'ri oshirishini anglatadi [7].

"Toshkent" Respublika fond birjasi - O'zbekiston Respublikasi hududidagi yagona fond birja, ya'ni

fond bozori hisoblanadi. U 1994 yil 8 aprelda tashkil etilgan. Ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlar birjalarga joylashtiriladi, u yerdan ularni jismoniy va yuridik shaxslar – investorlar xarid qilishi mumkin. Bu yerda yuzlab, minglab odamlar, kompaniyalar va institutsional investorlar har kuni qarorlar qabul qiladi, bu esa aksiyalar narxining doimiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. Aksiyaning bahosi oddiy qilib aytganda, unga bo'lgan talab va taklifga qarab belgilanadi. Agar biror kompaniyaning aksiyasiga ko'p odam qiziqsa, ya'ni ko'proq odam uni sotib olmoqchi bo'lsa, uning narxi oshadi. Bundan

tashqari, fond bozori kengroq iqtisodiy va siyosiy muhitdan ham mustasno emas. Masalan, Markaziy bank foiz stavkalarini oshirsa, bu investorlar uchun moliyaviy xarajatlar ko'payishini anglatadi. Natijada, aksiyalarga talab pasayadi va narxlar tushishi mumkin. Yoki, aksincha, hukumat iqtisodni qo'llab-quvvatlovchi yangi islohotlar boshlasa, bu ijobiy muhit yaratadi va investorlar ishonch bilan sarmoya kiritadi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, "Toshkent" Respublika fond birjasida so'nggi besh yilda jadal o'sish dinamikasi kuzatildi.

1-jadval


Toshkent fond birjasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2023 yy.)

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
Ro'yxatdagi emitentlar soni	312	354	418	512	638
Savdo hajmi (trln. so'm)	1.24	1.86	3.42	5.71	8.94
Bozor kapitalizatsiyasi (trln. so'm)	18.6	24.3	35.8	52.4	71.2
Kapitalizatsiya/YalM (foizda)	3.2	3.8	4.9	5.8	6.8
Korporativ obligatsiyalar (trln. so'm)	0.42	0.68	1.35	2.84	4.72
Faol investorlar soni (ming kishi)	12.4	18.6	31.2	54.8	89.4
O'rtacha P/E nisbati	8.2	9.1	11.4	13.7	15.3

Ushbu 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2019–2023-yillarda savdo hajmi 7,2 barobar o'sib, 8,94 trln. so'mga yetgan. Bozor kapitalizatsiyasi 3,8 barobar kengayib, 71,2 trln. so'mni tashkil etgan. Faol investorlar soni esa 12,4 ming kishidan 89,4 ming kishiga ko'paydi. Lekin, kapitalizatsiya darajasi

YalMga nisbatan 6,8 foiz bo'lib, bu raqobatchi mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ancha past.

Bizningcha, O'zbekiston fond bozorining rivojlanish darajasini ob'ektiv baholash uchun mintaqaviy taqqoslash o'tkazish zarur. Quyidagi 1-rasm ushbu taqqoslashni ko'rgazmali aks ettiradi.



1-rasm. Fond bozori kapitalizatsiyasining YalMga nisbati: mintaqaviy taqqoslash (2019–2023-yy., foizda)

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, fond bozorining kapitalizatsiya darajasi YalMga nisbatan O'zbekistonda (6,8 foiz), Qozog'istonda bu (42,3 foiz) va Gruziyada (31,5 foiz). Biz bu borada ancha orqada qolib, jahon o'rtachasi (104,7 foiz) dan 15 barobar pastdamiz. Fikrimizcha, ushbu farqning asosiy sabablari fond bozorida kotirovkalangan kompaniyalar soni va tarkibining kamligi, institutsional investorlar, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari bazasining nisbatan zaifligi,

aholi moliyaviy savodxonligining hali ham biroz past darajadali va ular orasida fond bozori haqidagi bilimlarning yetarli emasligi hisoblanadi.

Shuningdek, fond bozorining sifat parametrlarini baholashda emitentlar va investorlar tarkibini o'rganish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 2-rasmda "Toshkent" Respublika fond birjasidagi emitentlar va investorlar tarkibi ko'rsatilgan:



2-rasm. Toshkent fond birjasi emitentlari va investorlari tarkibi (2023-yil)

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, emitentlar tarkibida davlat korxonalari 38 foiz, xususiy kompaniyalar 31 foiz va banklar 22 foizni tashkil etmoqda. Investorlar tarkibida esa korporativ investorlar (35 foiz) va xorijiy investorlar (24 foiz) yetakchi o'rinni egallaydi. Jismoniy shaxslar ulushining 29 foizni tashkil etishi ijobiy tendentsiya bo'lib, aholining moliyaviy savodxonligi o'sib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, hali ham institutsional investorlar, pensiya va sug'urta fondlari ulushi past.

Xulosa va takliflar. Bizningcha, ushbu tadqiqotimiz fond bozorining investitsion faollikni oshirishdagi ahamiyati va zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Chunki, O'zbekistonda fond bozorining 2019–2023 yillardagi dinamikasi (savdo hajmi 7,2 barobar o'sishi, emitentlar soni 2 barobar oshishi) islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Biroq bozor kapitalizatsiyasi darajasi YalMning 6,8 foiz atrofida qolayotgani, institutsional investorlar bazasining to'liq rivojlanmaganligi va moliyaviy instrument xilma-xilligining cheklanganligi kabi muammolarni hal etish asosiy masala bo'lib qolmoqda.

Fikrimizcha, O'zbekistonda fond bozori rivojlanishiga to'siq bo'ladigan quyidagi to'rtta asosiy muammo mavjud:

- institutsional investorlar bazasining zaif rivojlanganligi
- moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining cheklanganligi
- moliyaviy savodxonlikning pastligi
- korporativ boshqaruvning xalqaro talablariga to'liq moslashmaganligi

Tadqiqotimiz davomidagi tahlillar va mavjud muammolarni hal etish, ya'ni jahon tajribasi asosida fond bozorini rivojlantirish va investitsion faollikni oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar taklif sifatida ishlab chiqildi.

- IPO dasturini yanada kengaytirish
- Pensiya va sug'urta kapitalini fond bozoriga jalb qilish
- Moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini oshirish
- Xalqaro integratsiyani yanda kuchaytirish

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar kelgusida fond bozori kapitalizatsiya darajasi oshishiga, emitentlar va investorlar soni ortishiga, obligatsiyalar bozori kengayishiga va bu pirovardida fond bozori orqali jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining o'sishini ta'minlashga muhim hissa qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Bank. Global Financial Development Report 2024: Financial Resilience in a Changing World. - Washington, D.C.: World Bank Group, 2024. - 218 p.
2. "Toshkent" Respublika fond birjasi. 2023 yil faoliyati bo'yicha batafsil hisobot. - Toshkent: TFB, 2024. - 84 b.
3. Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins-Financial Markets and Institutions: Eighth Edition, USA, 2015. p.251.
4. David Hillier, Mark Grinblatt, Sheridan Titman Financial Markets and Corporate Strategy, Published by McGraw-Hill Education, 2012. p.6.
5. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlari
6. Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется роль фондового рынка в повышении инвестиционной активности в стране и его значение для экономического развития. В частности, рассматриваются вопросы эффективного распределения капитала через фондовый рынок, формирования взаимовыгодных отношений между инвесторами и эмитентами, а также привлечения дополнительных финансовых ресурсов в экономику. Также в контексте регионального сравнения изучаются показатели Ташкентской республиканской фондовой биржи за 2019–2024 годы, проводится комплексный анализ функциональной роли фондового рынка в инвестиционных процессах, состава эмитентов и инвесторов, а также стратегических направлений углубления рынка. В статье выдвигаются выводы и предложения по ускорению экономического роста, обеспечению финансовой стабильности и повышению инвестиционной привлекательности за счет развития фондового рынка.

**Ключевые слова:** фондовый рынок, рынок капитала, инвестиционная активность, инвестиционная.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the role of the stock market in increasing investment activity in the country and its significance for economic development. In particular, it examines issues related to the efficient allocation of capital through the stock market, the establishment of mutually beneficial relationships between investors and issuers, as well as the attraction of additional financial resources into the economy. In addition, within the framework of a regional comparative analysis, the indicators of the Tashkent Republican Stock Exchange for the period 2019–2024 are studied, and a comprehensive analysis is conducted on the functional role of the stock market in investment processes, the composition of issuers and investors, and the strategic directions for market deepening. The article also presents conclusions and recommendations aimed at accelerating economic growth, ensuring financial stability, and increasing investment attractiveness through the development of the stock market.

**Keywords:** Stock market, capital market, investment activity, investment.

# SUN'IY INTELLEKT VA OMMAVIY HUQUQ

**E. Mallayeva,**

*O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, PhD.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalalari, uning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar hamda jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarining kognitiv funksiyalari, metodlari va ularni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, huquqiy tartibga solish, sensor inqilobi, konstitutsiyaviy huquq, axborot tizimlari, kognitiv funksiyalar, mashinaviy o'rganish, raqamli huquqlar, intellektual tizimlar

**Kirish.** Sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementidir. Uning jadal rivojlanishi va amaliyotda qo'llanilishining kengayishi ushbu hodisani huquq sohasiga "qo'shish"ni taqozo etadi [3]. Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan boliq bo'lgan u yoki bu tarzda jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish murakkab vazifa bo'lib, mutaxassislar qaysi sohalar va faoliyatni tartibga solish kerakligi haqida turli xil qarashlarga ega va tartibga solishga taklif etilayotgan yondashuvlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi [4]. Sun'iy intellektning ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, u bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solish kelgusi yillarda ham milliy, ham xalqaro miqyosda kun tartibida bo'ladi. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish blokini shakllantirishda turli mamlakatlar hukumatlari o'rtasida kelishilgan pozitsiyani ishlab chiqish muhim, buning uchun bunday tartibga solishni yaratish ehtiyojlarini tushunish kerak. Bu mazkur mavzu bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borish va tegishli yo'nalishda o'quv kurslarini yaratishga turtki bo'lmoqda [5].

Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalasi va bundan kelib chiqadigan muammolar allaqachon dunyoning yetakchi universitetlari talabalari tomonidan o'rganilmoqda. Masalan, 2018-yildan boshlab Stenford universiteti dasturiga "Sun'iy intellektni tartibga solish" (Regulating Artificial Intelligence) interaktiv kursi kiritilgan. Razvedka), kurs mualliflari sifatida kelajakdagi yuristlarning ushbu sohadagi joriy va o'rta muddatli muammolarni tushunishlarini chuqurlashtirish uchun mo'ljallangan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning bir qator umumiy va maxsus metodlaridan foydalanildi. Jumladan:

- Tahlil va sintez metodi – sun'iy intellekt tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va huquqiy jihatlarini o'rganishda qo'llanildi;

- Taqqoslash metodi – turli mamlakatlarda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish yondashuvlarini solishtirish imkonini berdi;

- Tizimli yondashuv – sun'iy intellektni murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish va uning elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda ishlatildi;

- Normativ-huquqiy tahlil metodi – mavjud qonunchilik hujjatlari va konstitutsiyaviy tamoyillarni o'rganishda qo'llanildi;

- Mantiqiy umumlashtirish metodi – olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda xizmat qildi.

Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi [4; 5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt va uning huquqiy tartibga solinishi masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, maqolada ta'kidlanganidek, sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi va ularning kognitiv funksiyalarni bajarish qobiliyati huquqiy tizimga yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Sun'iy intellektning nazariy asoslari Barr, Cohen va Feigenbaum tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi fundamental ishlardan biri hisoblanadi [1].

Barfield va Williams sun'iy intellektning etik va huquqiy jihatlarini o'rganib, texnologik rivojlanish inson huquqlariga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan [2].

Zyryanov hamda Laptev tomonidan sun'iy intellektni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish masalalari keng yoritilgan [3; 4]. Lipchanskaya esa sun'iy intellekt asosidagi munosabatlarni

konstitutsiyalashtirish zarurligini asoslab bergan [5].

Styuart Russell va Piter Norvig tomonidan yozilgan "Artificial Intelligence: A Modern Approach" asarida sun'iy intellektning nazariy asoslari chuqur yoritilgan bo'lib, unda aqlli tizimlar yaratish va ularning jamiyatga ta'siri keng tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar sun'iy intellektni huquq sub'ekti sifatida tan olish masalasida turli qarashlarni ilgari suradilar. Ba'zi olimlar bu jarayonni ma'naviy va etik muammolar bilan bog'lasa, boshqalar esa uni huquqiy tizimni modernizatsiya qilish zarurati sifatida ko'radilar.

So'nggi yillarda sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha Yevropa Ittifoqi, AQSh va Rossiya Federatsiyasi tajribasi ham keng o'rganilmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda xalqaro tajribaning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlil va natijalar. Sun'iy intellekt – bu insonning kognitiv funksiyalarini taqlid qiluvchi va mustaqil qaror qabul qilishga qodir tizimlar majmuasi hisoblanadi [1]. Ushbu tizimlar inson faoliyatiga yaqin natijalarni ko'rsatadi va ba'zi hollarda undan ustun ham bo'lishi mumkin [8]. Insoniyat o'zini Homo Sapiens turi (lotincha - aqlli odam) deb ataydi, bu aqlli qobiliyatlarning kundalik hayotda ham, o'zini o'zi anglashda ham muhimligini anglatadi. Sun'iy intellekt bo'yicha dunyodagi eng mashhur darsliklardan biri "Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv" mualliflari Styuart Jonatan Russell va Piter Norvigning so'zlariga ko'ra, birinchi marta 1995-yilda nashr etilgan (kitobning to'rtinchi nashri allaqachon 2020-yilda nashr etilgan). Sun'iy intellekt aqlli mavjudotlarni tushunishga va yangi aqlli shaxslarni yaratishga harakat qilmoqda. "Hech kim kelajakni batafsil bashorat qila olmasa-da, inson darajasidagi (yoki undan yuqori) aql-zakovatga ega kompyuterlar bizning kundalik hayotimizga va tsivilizatsiyaning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi aniq".

Sun'iy intellekt tizimi - bu ma'lum bir fan sohalari bilan boliq ijodiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan, bilimlari intellektual tizim xotirasida saqlanadigan dasturiy-apparat majmuasi. Bunday tizim vaziyatni tahlil qilish va muayyan maqsadlarga erishish uchun muayyan darajadagi avtonomiya bilan harakatlarni amalga oshirishda oqilona xatti-harakatni namoyish etadi. Sun'iy intellekt bo'yicha ilmiy tadqiqotlar Informatika sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi - elektromexanikadan matematikagacha turli bilim sohalari elementlarini birlashtirgan va algoritmlar nazariyasi, dasturlash tillari, qurilish masalalarini o'z ichiga olgan fanlararo xususiyatdagi fan bo'limi. kompyuter tarmoqlari va boshqalar.

Sun'iy intellektning huquq sub'ekti sifatida tan olinishiga "ma'qul" yoki "qarshi" dalillarni ilgari surar ekan, tadqiqotchilar ko'pincha savolning axloqiy

tomonida haqida gapirishadi: inson Sun'iy intellektga yuridik shaxs berish uchun ma'naviy majburiyatga egami? Zero, ijtimoiy muloqotga qodir "aqlli" robotlar axloqiy sub'yektlarning umume'tirof etilgan tushunchasidan chiqarib tashlansa, bu har qanday odamlar guruhining huquqlarini poymol qilish bilan barobar bo'ladi. Zamonaviy Sun'iy intellekt tizimlari odamlar bilan etarli darajada umumiy xususiyatlarga ega emasligi, ularni huquq sub'ekti sifatida tan olish uchun ma'naviy majburiyat mavjudligi haqidagi fikr ustunlik qiladi. Shu bilan birga, aksariyat konstitutsiyalarda mustahkamlab qo'yilgan asosiy tamoyil inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etishdan iborat. Kelajakda bu tamoyil amalda tatbiq etilishi uchun Sun'iy intellektni tartibga solish asoslarini konstitutsiya darajasida belgilash zarur. Konstitutsiyaviy huquq yangi sharoitlarda inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini ta'minlashga majburdir. Insonning shaxsiy hayotga bo'lgan huquqi qanday ta'minlanadi? Sun'iy intellekt tizimlari tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni ko'plab sensorlar va sensorlardan oladi, yaqinlashib kelayotgan "sensor inqilobi" ni hisobga olgan holda, ularning soni va kuzatish qobiliyati barqaror o'sib bormoqda. Odamlar deyarli har bir qadami ko'rinadigan va yozib olish moslamalari tomonidan yozib olinadigan dunyoda yashaydilar: - uyda (shaxsiy elektron yordamchilardan foydalanish hisobiga, "aqlli soatlar", "aqlli" maishiy texnika vositalari orqali); - ish joyida (binodagi turli sensorlar, "aqlli" jihozlar va kiyim-kechaklar orqali); - jamoat joylarida. Agar biror kishi uyda texnik yutuqlardan foydalanishdan bosh tortsa ham, ko'chada, do'konda, jamoat transportida u doimiy nazorat ostida bo'ladi va ma'lumotlar deyarli real vaqt rejimida qayta ishlanadi.

"Sun'iy intellekt - bu insonning kognitiv funksiyalarini taqlid qilish (shu jumladan o'z-o'zini o'rganish va oldindan belgilangan algoritmsiz echimlarni topish) va hech bo'lmaganda inson intellektual faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan aniq vazifalarni bajarishda natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologik echimlar to'plami. Texnologik yechimlar majmuasiga axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi (shu jumladan, axborot tizimlari, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotni qayta ishlashning boshqa texnik vositalari), dasturiy ta'minot (shu jumladan, mashinani o'rganish usullaridan foydalanadiganlar), ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari va xizmatlari hamda yechimlarni izlash kiradi.

Sun'iy intellekt metodlari insonning ijodiy funksiyasini taqlid qilish, kognitiv qobiliyatlarni namoyish etish imkonini beruvchi texnologik echimlar to'plamini tashkil qiladi. Ushbu texnologiyalarga asoslangan echimlar, ularga yuklangan vazifalarni

bajarishda, hech bo'lmaganda insonning intellektual faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni ko'rsatadi va ulardan sezilarli darajada oshadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy kichik guruhlarini (subtexnologiyalar) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) kompyuter ko'rish texnologiyalari;
- 2) tabiiy tillarni qayta ishlash texnologiyalari;
- 3) nutqni aniqlash va sintez qilish texnologiyalari;
- 4) mashina tavsiyalari va qarorlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyasi.

Zamonaviy tadqiqotlar sun'iy intellektni huquq sub'ekti sifatida tan olish masalasi murakkab ekanligini ko'rsatadi [4]. Shu bilan birga, uni huquq ob'ekti sifatida tartibga solish zarurati ortib bormoqda [5].

Rossiya Federatsiyasida sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bu amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega [6].

Kompyuterni ko'rish sohasidagi texnologik echimlar ob'ektlarni topish, kuzatish va tasniflash, video va foto tasvirlarni sintez qilish imkonini beradi. Tabiiy tilni qayta ishlash nutqni tushunish va mazmunli matn olishga, odam kompyuter bilan aloqa qilganda tabiiy tilda muloqot qilish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Nutqni aniqlash va sintez qilish texnologiyalari ozaki so'rovni matnga tarjima qilish, ovozning tembrini va ohangini tahlil qilish, his-tuyularni tan olish va nutqni sintez qilish imkonini beradi. Masalan, bu ma'ruzachining shaxsini tasdiqlash yoki nutqidagi yashirin tarkibni qidirish uchun ishlatilishi mumkin. Qarorlarni qo'llab-quvvatlashning aqlli tizimlari inson aralashuvisiz jarayonlarning bajarilishini ta'minlaydi, yechim tanlashda yordam beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tegishli ilmiy-texnik yo'nalish doirasida ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi, uning maqsadi inson ongi bilan an'anaviy bog'liq bo'lgan qobiliyatlarga ega. Sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va amalga oshirish: tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi huquqiy tizim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, sun'iy intellekt tizimlarining avtonom qaror qabul qilish qobiliyati ularning huquqiy maqomini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

- Sun'iy intellekt hozirgi bosqichda to'liq huquq sub'ekti sifatida tan olinishi uchun yetarli asos mavjud emas;
- Biroq, uni huquq ob'ekti sifatida tartibga solish zarurati tobora ortib bormoqda;

- "Sensor inqilobi" sharoitida shaxsiy hayotni himoya qilish muammosi keskinlashmoqda;

- Sun'iy intellektdan foydalanish doirasi kengaygani sari maxsus tarmoq qonunchiligini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda;

- Konstitutsiyaviy darajada raqamli huquqlarni mustahkamlash istiqbollari mavjud.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari – kompyuter ko'rish, tabiiy tilni qayta ishlash, nutqni aniqlash va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari – amaliy jihatdan katta samaradorlik ko'rsatmoqda. Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, alohida mualliflar bundan mustasno, tadqiqotchilarning aksariyati kelajakda ham. Sun'iy intellektga huquq sub'ekti maqomini berishni qo'llab-quvvatlamaydi. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar Sun'iy intellekt huquq ob'ekti sifatida mavjud bo'lgan konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq degan fikrga qo'shiladilar va hatto "Sun'iy intellektning huquqiy munosabatlar ob'ekti sifatidagi alohida pozitsiyasi" ekanligini ta'kidlaydilar. Maxsus konstitutsiyaviy qonun qabul qilinishini talab qiladi, bu sun'iy intellektni majburiy davlat litsenziyalash va uning faoliyatini cheklashni nazarda tutadi.



"Sun'iy intellektni rivojlantirish vektorlari Rossiya Federatsiyasida qabul qilingan strategik hujjatlarda belgilangan bo'lib, kelajakda mustaqil keng qamrovli qonunchilik aktini qabul qilish imkoniyatini istisno qilmaydi va yangi konstitutsiyaviy raqamli inson huquqlari paydo bo'lishi mumkin". Bundan tashqari, hozirgi vaqtda transport sohasida, tibbiyotda, ta'limda va hokazolarda Sun'iy intellektdan foydalanishga oid qonunlar tayyorlanmoqda va kelishilgan tarmoq qonunchiligi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan tartibga solish asoslarini (tamoyillarini) talab qiladi.

Kelajakda odamlar va mashinalar o'rtasida aniq huquqiy farqni ajratib bo'lmaydi, chunki bu ikki guruh tom ma'noda jismoniy ajralmas bo'ladi. Konstitutsiya darajasida vaqt o'tishi bilan inson tabiatini himoya qiluvchi huquqiy kafolatlarni shakllantirish kerak bo'ladi. Kelgusi o'n yillikda

Sun'iy intellekt neyroimplantlarining tarqalishi nafaqat yo'qolgan funksiyalarni tiklash, balki insonning imkoniyatlarini ham oshirish prognoz qilinmoqda. Bu jismoniy va aqliy qobiliyatlari yaxshilangan, oddiy odamning imkoniyatlaridan sezilarli darajada oshib ketgan odamlar sonining o'sishini rabatlantiradi, shuning uchun bunday neyroimplantlardan foydalanmaydigan odamlarning huquqlari va neyroimplantlari bo'lgan odamlarning huquqlari himoya qilinishi kerak.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sun'iy intellekt zamonaviy jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, uni huquqiy tartibga solish zarur.

2. Hozirgi bosqichda sun'iy intellektni huquq sub'ekti sifatida tan olishdan ko'ra, uni huquq ob'ekti sifatida tartibga solish maqsadga muvofiq.

3. Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash sun'iy intellekt rivojlanishi sharoitida ustuvor vazifa hisoblanadi.

4. Sun'iy intellektga oid maxsus qonunchilik bazasini yaratish zarur. Takliflar sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- Sun'iy intellektni tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilish;
- Konstitutsiyaga raqamli huquqlarni kiritish;
- Sun'iy intellekt tizimlarini majburiy sertifikatsiyadan o'tkazish;
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va yagona standartlarni ishlab chiqish;
- Sun'iy intellektdan foydalanishda etik me'yorlarni belgilash.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish dolzarb masaladir [3].

Aksariyat olimlar uni huquq sub'ekti sifatida tan olishga hali erta deb hisoblaydilar [4].

Shu bilan birga, sun'iy intellektni huquq ob'ekti sifatida tartibga solish, maxsus qonunchilik bazasini yaratish va konstitutsiyaviy darajada raqamli huquqlarni mustahkamlash zarur [5; 6].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Barr A., Cohen PR, Feigenbaum EA Sun'iy intellekt bo'yicha qo'llanma. 1-nashr. Stenford universiteti: HeurisTech Press. 1981.
2. Barfild V., Uilyams A. Qonun, kiborglar va texnologik jihatdan rivojlangan miyalar // Falsafalar. 2017. Yo'q. 2(1). P.6.
3. Zyryanov IA Sun'iy intellektni konstitutsiyaviy va huquqiy tartibga solish muammolari / "Zamonaviy boshqaruv tendentsiyalari va raqamli iqtisodiyot: mintaqaviy rivojlanishdan global iqtisodiy o'sishgacha" 2-xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya (MTDE 2020). Iqtisodiyot, biznes va menejment tadqiqotlaridagi yutuqlar, 2020. jild. 138.
4. Laptev V.A. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning ishi uchun huquqiy javobgarlik // Qonun. Oliy Iqtisodiyot maktabi jurnali. 2019. No 2.
5. Lipchanskaya M.A. Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda munosabatlarni konstitutsiyalashtirish // Ijtimoiy va gumanitar sharh. 2021 yil. No 2. S. 78-son.
6. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2020 yil 28 oktyabrdagi 1750-sonli "Raqamli innovatsiyalar sohasidagi eksperimental huquqiy rejimlar doirasida qo'llaniladigan texnologiyalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlari to'plami. 2020 yil. 44-modda. 7003.
7. Stenford universiteti tadqiqot kurslari. LAW 4039: Sun'iy intellektni tartibga solish. URL: [https://explorecourses.stanford.edu/search?view=catalog&filter-coursestatus=Active=on&q=LAW%204039:%20Regulating%20Artificial%20Intelligence&academicYear=2018 2019](https://explorecourses.stanford.edu/search?view=catalog&filter-coursestatus=Active=on&q=LAW%204039:%20Regulating%20Artificial%20Intelligence&academicYear=2018%202019) (kirish 01/02).
8. Foerst A. Sun'iy sotsializm: singdirilgan Aldan shaxsning yangi tushunchalarigacha // Jamiyatdagi texnologiya. 1999 jild. 21. Iss. 4.
9. Mallayeva E.M. Noosfera va imon (inson shakllanishida imon va e'tiqod). Monografiya, Toshkent, "BOOKMANY PRINT", 2025 yil.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы правового регулирования искусственного интеллекта, проблемы, возникающие в процессе его развития, а также его влияние на общество. Особое внимание уделено когнитивным функциям и методам систем ИИ, а также необходимости их конституционно-правового регулирования.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, правовое регулирование, сенсорная революция, конституционное право, информационные системы, когнитивные функции, машинное обучение, цифровые права, интеллектуальные системы.

**Annotation:** This article examines the legal regulation of artificial intelligence, the challenges arising from its rapid development, and its impact on society. It also analyzes cognitive functions and methods of AI systems and highlights the necessity of their constitutional and legal regulation based on modern scientific approaches.

**Keywords:** artificial intelligence, legal regulation, sensor revolution, constitutional law, information systems, cognitive functions, machine learning, digital rights, intelligent systems.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYILASHUVINING O‘ZIGA XOS TAMOYILLARI

**D.S. MUITOV,**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Siyosiy fanlar kafedrası dotsentlari, siyosiy fanlar  
nomzodlari,*

**R.U. ERGASHEVA,**

*2-son Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi  
texnikumi Gigiyena va laboratoriya kafedrası o‘qituvchi.*

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy faolligi, imkoniyatlari hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlanish omillariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, parlament, yoshlar, ma'naviyat va ma'rifat, ijtimoylashuvmasalalari.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatimizni yanada modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy faolligi, imkoniyatlari hamda sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishimizni hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarga nisbatan yoshlarning mas'ulligi, har tomonlama barkamol avlod sifatida shakllanishi davlatimiz e'tiborida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Istiqbolimizni belgilovchi bu muhim strategik vazifa mafkuramizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunimizning talabi yoshlarning mustaqil fikri va dunyoqarashi yukasalishiga ko'maklashish, hayotda o'z pozitsiyasi va yondoshuvini qat'iy belgilab olishiga yordamlashish, ularni bilimli qilib tarbiyalash, tevarak – atrofdagi voqe'lklarga beparvo bo'lmaslik, vatanga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashga intilishini ta'minlashdan iborat.

Asosiy qisim. Mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarni ushbu jarayonlarning sog'lom va ongli, ijimoiy-siyosiy jihatdan yetuk ishtirokchisi sifatida shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga davlat va jamiyat hayotining yanada demokratlashtirilishi, erkinlashtirilishi mamalakat taraqqiyoti yo'lida Prezidentimiz tomonidan belgilab qo'yilgan milliy yuksalishimizni belgilovchi beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasi (2017-yil 7-fevral) va beshta muhim tashabbus (2019-yil 19-mart)

O'zbekiston - 2030 strategiyasi (2026-yil 16-fevral) zahirida O'zbekistonning kelajagini ko'p jihatdan asoslovchi yoshlar ijtimoiy qatlamining jamiyatdagi barcha soha va tizimlar bilan integratsiyalashuvi, moslashuvi hamda davlat va jamiyat qurilishi ishlarida, siyosiy tizimni yanada takomillashtirishda bevosita qatnashishlarini ta'minlash vazifalari qat'iy belgilab qo'yildi.

Bugun dunyo miqyosida ikki milliardga yaqin yoshlar bo'lib, ularning aksar qismi muammolarini o'rganish, tahlil qilish va yechim topish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Taniqli sotsiolog – futurolog E.To'ffler, "Yangi kishi shaklanayotgan yo'q, yangi ijtimoiy xarakter shakllanmoqda. Shuning uchun ham asotir shaklidagi "odam" qiyofasini emas, balki xarakterning o'ziga xos belgilarini aniqlashimiz darkor, negaki, u ehtimol ertangi tarqqiyot tomonidan baholanishi mumkin" [1], – degan fikrni bildiradi.

2017-yil 19-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surgan [2] "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" hamda "Yoshlar masalalari" bo'yicha maxsus rezolyutsiyalarini ishlab chiqish taklifi e'tiborga olinib, 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyutsiya qabul qilinganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

O‘zbekiston yoshlarining bilim darajasi va ularning ilg‘or g‘oyalarini amalga oshirishni rag‘batlantirish maqsadida 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun [3] ning ijrosini ta‘minlash va davlatimiz rahbarining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni [4] dan kelib chiqqan holda yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaytirilmoqda. Chunonchi, Prezidentimizning 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq [5] O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Maqsad, yoshlar muammolarini o‘rganish, tahlil etish, yosh kadrlarni tanlash va yo‘naltirish orqali davlat va jamiyatimiz faoliyatida ular

ishtirokini mustahkamlashdan iborat. Shuningdek, Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 21-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida Oliy Majlisning har ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlamentlarini tashkil etish va ularning tarkiblarini shakllantirish tartibini belgilash nazarda tutilgan edi. Shundan kelib chiqib, o‘tkazilgan keng muhokama va xorijiy davlatlar tajribasiga muvofiq 202- yil 29-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi o‘rtasida Qonunchilik palatasi huzurida “Yoshlar parlamenti”ni tashkil etish bo‘yicha bitim imzolandi. Mazkur bitim bilan “Yoshlar parlamenti”, respublika komissiyasi, Nizomi, Reglamenti va tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

“Yoshlar parlamenti”ning asosiy maqsadi – mamlakat yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatning faol ijtimoiy qatlamiga



aylantirish, siyosiy bilim va ko‘nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb etish va qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ‘ibotini ta‘minlash orqali ularni parlament hayotiga daxldorligini oshirish belgilangan. Shuningdek, yoshlarning huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, qonun ijodkorligi va hhuquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash, qonun loyihalarini yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalarining amaliyotga tadbiriq etilishi yoshlarga bo‘lgan e‘tibordan dalolat. Endilikda yoshlarimiz mazkur parlament orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, ular kengashining, qo‘mitalari va komissiyalarining,

deputatlar birlashmalarining majlislarida ishtirok etadi, tegishli xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda o‘zaro tajriba va axborot almashishi mumkin bo‘ladi.

“Yoshlar parlamenti”ga 18-30 yoshdagi O‘zbekiston fuqarolari saylanadi (muomalaga layoqatli bo‘lmaganlar, jazoni ijro etish muas-sasalarida saqlanayotganlar bundan mustasno). “Yoshlar parlamenti”ga a‘zolari saylash uchun hududiy komissilar tashkil etiladi. Komissiya ikki bosqichda saylov jarayonlarini tashkil etadi. Birinchi bosqichda nomzodlar o‘zining saylovoldi dasturi bilan tuman (shahar) komissiyasida ishtirok etadi. Birinchi bosqich yakuni bo‘yicha komissiya besh nafar nomzodni, ya‘ni har bir siyosiy partiyaning bir nafardan nomzodini yashirin ovoz berish bilan saylaydi. Ikkinchi bosqichda nomzodlar saylovoldi dasturi taqdimoti bilan tegishli tuman (shahar) xalq

deputatlari Kengashida ishtirok etadi. Tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari bir nafar nomzodni yashirin ovoz berish orqali saylaydi. Demak, “Yoshlar parlamenti” o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, tegishli siyosiy partiyalar va O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga hisobdor bo‘lib, “Yoshlar parlamenti”ning a‘zosi parlamentning vakolatlari muddatiga jamoatchilik asosida saylanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy vazifa jamiyatning ijtimoiy qatlami hisoblanuvchi yoshlarning hayotiy tajribasini mustahkamlashdir.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi” [6].

Haqiqatda ham sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga ega boshqa masalalar bo‘yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda

davlatning o‘zi yo‘naltiruvchi kuch sifatida manzilli o‘z strategiyasini belgilab olgan.

2026-yil 16-fevral kuni “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni imzolandi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada 100 ta maqsad va 437 ta samaradorlik ko‘rsatkichi belgilangan [7]. Har bir ko‘rsatkichning moliyaviy manbalari aniq ko‘rsatilib, ularning ijrosi yilma-yil rejalashtirilgan. Hujjat doirasida 60 ga yaqin davlat organiga aniq vazifalar yuklatilgan. Shulardan kelib chiqib yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xulosa sifatida aytganimizda, Yangi O‘zbekistonni bunyod etuvchi qatorida yoshlarning ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy – ma’rifiy, huquqiy – madaniy saviyasining yuksalib borishi negizida Vatan taraqqiyoti, xalqimizning farovonligi, yurtimizning tinchligi va g‘oyaviy yuksalishi turar ekan, bunda ilm-fanga intilish doimo maqsadimiz bo‘lishi shart.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Тофлер Э. “Третья волна”. М.Акт. 1999. – С. 602.
2. 2017-yil 19-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 21-sentabr
3. 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 21-sentabr.
4. 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 16-iyul
5. Prezidentimizning 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 16-iyul. –B 1-2.
6. “Uchinchi renesans davr poydevori” Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Vatanparvar gazetasi, 2020-yil, 4-sentabr. – B.1-3.
7. “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2026-yil. 17-fevral. – B.1-2

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы правового регулирования искусственного интеллекта, проблемы, возникающие в процессе его развития, а также его влияние на общество. Особое внимание уделено когнитивным функциям и методам систем ИИ, а также необходимости их конституционно-правового регулирования.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, правовое регулирование, сенсорная революция, конституционное право, информационные системы, когнитивные функции, машинное обучение, цифровые права, интеллектуальные системы.

**Annotation:** This article examines the legal regulation of artificial intelligence, the challenges arising from its rapid development, and its impact on society. It also analyzes cognitive functions and methods of AI systems and highlights the necessity of their constitutional and legal regulation based on modern scientific approaches.

**Keywords:** artificial intelligence, legal regulation, sensor revolution, constitutional law, information systems, cognitive functions, machine learning, digital rights, intelligent systems.

# OLIJ TA'LIM XIZMATLARINING MAMLAKAT IJTIMOYIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI MAVQEINI BAHOLASHGA DOIR USLUBIY YONDASHUVLAR

SH. Iskandarov,  
SamDU tayanch doktoranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini baholashga doir mavjud uslubiy yondashuvlar tahlil etilgan. Xususan, yalpi xizmatlar tarkibida oliy ta'limning ulushi, aholi iste'mol xarajatlari, hududlar kesimida bitiruvchilar taqsimoti va ta'lim davomiyligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholash usullari o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning uslubiy yondashuvlari solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida muallif tomonidan yangi — hudud aholisining istiqbolda oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichga asoslangan uslubiy yondashuv taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, baholash uslublari, aholi bandligi, hududiy rivojlanish, oliy ma'lumotli kadrlar.

**Kirish (introduction).** Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim xizmatlari mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri kundan-kun ortib bormoqda. Oliy ta'lim – bu nafaqat malakali kadrlar tayyorlash, balki innovatsiya markazlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari soni sezilarli darajada oshib, talabalar kontingenti kengaydi. Biroq faqat miqdoriy o'sish emas, balki oliy ta'limning mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatayotgan sifatli ta'sirini baholash ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mavjud adabiyotlarda oliy ta'lim xizmatlarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini baholash uchun bir qancha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar taklif etilgan. Lekin ushbu ko'rsatkichlarning aksariyati yalpi tavsiflovchi xususiyatga ega bo'lib, sohaning rivojlanishi, aholi bandligini ta'minlash va istiqbolli salohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli ushbu mavzuni yanada chuqur tadqiq etish va mukammal uslubiy yondashuvlar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Maqolada O'zbekiston misolida oliy ta'lim

xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi mavqeini baholashning mavjud uslublari tahlil etiladi va yangi uslubiy yondashuv taklif qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mavjud baholash uslublari tizimlashtirish va ularning afzalliklari hamda cheklanishlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholash masalasi xorijiy va mahalliy olimlarning ko'pgina ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. A.A.Shcherbakova oliy ta'lim muassasalari nafaqat oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashi, balki ularni keyingi kasbiy faoliyatlari davomida ham qo'llab-quvvatlashi lozimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, hodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va mehnat bozorida talabni aniqlash orqali ham oliy ta'limning mavqeini baholash mumkinligini asoslaydi [1]. S.A.Shakhvatova hududdagi aholining innovatsion faolligiga qarab oliy ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash uslubini taklif etadi. Ushbu yondashuv aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini, mehnat unumdorligini va jamoat faoliyatini o'lchash imkonini beradi [2]. M.A.Kamenskix esa oliy ta'lim muassasalarining innovatsion xizmat turlarini (startup loyihalar, innovatsion yarmarkalar, tijoratlashtirish mexa-

nizmlari) ko'rsatish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini o'lchash mumkinligini isbotlaydi. Bunda YalM tarkibida innovatsion ishlanmalardan tushgan daromad ulushi asosiy indikator sifatida qaraladi [3]. O.V.Leshukov, D.G.Yevseeva, A.D.Gromov va D.P.Platonova Rossiya mintaqalari misolida oliy ta'limning hududiy iqtisodiyotga hissasini uchta yo'nalish – mahsulotlarni amalda tatbiq etish, innovatsion salohiyatni oshirish va ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish – orqali baholash uslubini ishlab chiqishgan [4]. Xorijlik olimlar R.Cowan va N.Zinovyeva universitetlarning mintaqaviy innovatsion salohiyatga ta'sirini empirik tadqiqot orqali isbotlashgan [5]. A.Bramwell va D.A.Wolfe esa Kanada tajribasida "tadbirkorlik universiteti" kontseptsiyasi asosida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi oliy ta'lim rolini o'rganishgan [6]. Mahalliy tadqiqotchi M.Q.Pardaev va Yu.P.Urinbayeva makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini baholovchi indikatorlar tizimi sifatida ta'riflaydi [7]. B.B.Mardonov esa xizmat ko'rsatish sohasida aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqqan [8]. Metodologiya (methods). Tadqiqotda mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash va tizimlashtirish usullari qo'llanilgan. O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasining 2016–2023 yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asosiy manba sifatida foydalanilgan. Aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi ta'lim xizmatlari ulushini rivojlangan davlatlar (Yevropa Ittifoqi, OECD) ko'rsatkichlari bilan solishtirma tahlil usuli orqali o'rganilgan. Oliy ta'lim bitiruvchilarining hududlar kesimidagi taqsimoti uchun o'quv yili boshiga to'g'ri keladigan ma'lumotlar asosida dinamik tahlil amalga oshirilgan. Aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash uchun B.B.Mardonov taklif etgan formuladan foydalanildi:

$$XTD = (Da.s - XKSo.m.x.) / XKSo.m.x.$$

Bunda: XTD – aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi; Da.s – doimiy aholi soni; XKSo.m.x. – xizmat ko'rsatish sohasidagi oliy ma'lumotli hodimlar soni. Hudud aholisi tarkibida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlarning ulushini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$D = (R / T) \times 100\%$$

Bunda: D – hudud aholisi tarkibida tahsil olayotgan mutaxassislarining ulushi; R – oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan mutaxassislar soni; T – hudud aholisi soni. Natijalar. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim xizmatlarini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi mavqeini baholashning beshta asosiy mavjud uslubiy yondashuvi aniqlandi va tizimlashtirildi. Birinchi yondashuv – yalpi xizmatlar

tarkibida oliy ta'limning ulushiga qarab baholash. 2022 yilda O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlarining yalpi xizmatlar tarkibidagi ulushi 4,3% ni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 10–15% dan ortiq. Bu yondashuv oliy ta'limning milliy iqtisodiyotdagi umumiy mavqeini tavsiflaydi. Ikkinchi yondashuv – aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi. Ushbu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasidagi oliy ma'lumotli bir hodimga mamlakat aholisining necha kishisi to'g'ri kelishini aniqlaydi. Bu yo'l bilan hududlardagi kadr tanqisligini aniqlash mumkin. Uchinchi yondashuv – aholi iste'mol xarajatlari tarkibida ta'lim xizmatlari ulushi. 2020 yilda O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 2,5% ni tashkil etgan. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 15,2% ga teng. Jami xizmatlarga sarf etiladigan xarajatlar ulushi rivojlangan davlatlarda 64,9% ni, O'zbekistonda esa atigi 20,0% ni tashkil etadi. Ushbu farq ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar borligini ko'rsatadi. To'rtinchi yondashuv – oliy ta'lim bitiruvchilarini hududlar kesimida tahlil qilish. 2016/2017 o'quv yilida O'zbekistonda jami 64 133 nafar bitiruvchi bo'lgan bo'lsa, 2022/2023 o'quv yiliga kelib bu ko'rsatkich 102 381 nafarga oshgan. Toshkent shahri (35 131 nafar), Samarqand (8 962 nafar) va Farg'ona (8 289 nafar) viloyatlari peshqadamlik qilayotgan bo'lsa, Sirdaryo (1 938 nafar) va Navoiy (3 253 nafar) viloyatlarida ko'rsatkich nisbatan past bo'lib qolmoqda. Beshinchi yondashuv – kutilayotgan ta'lim davomiyligiga qarab baholash. Ba'zi tadqiqotlarda ta'lim davomiyligining bir yilga ortishi YalMning 5–15% ga oshishiga olib kelishi ta'kidlanadi. AQSH tajribasida (E.Denison hisoblari) kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadning oshishi asosan ta'lim olish darajasining oshishi hisobiga ro'y bergan. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ko'rsatkichlar yalpi tavsiflovchi xususiyatga ega. Ular sohaning rivojlanishini va aholi bandligini ta'minlashning aniq yo'llarini to'la ko'rsatib bera olmaydi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijasida muallif oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi mavqeini baholashda yangi uslubiy yondashuvni taklif etadi. Ushbu yondashuv hudud aholisining istiqbolda oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichga asoslanadi. Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u nafaqat joriy holatni, balki istiqbolda ehtiyojni ham aks ettiradi. Bunda ikki asosiy ko'rsatkich – hududning doimiy aholi soni va hudud bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlar soni – qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichning ijtimoiy ahamiyati – aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanishini kafolatlash. Iqtisodiy ahamiyati esa – mehnat unumdorligini belgilash

va ish haqi darajasini prognoz qilish imkonini beradi. Hudud aholisi tarkibida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlar ulushi qancha ko'p bo'lsa, istiqbolda ushbu hududda barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasi oshadi. Aksincha, ushbu ko'rsatkich past bo'lsa, yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga jalb etish va maqsadli kvotalar ajratish choralarini ko'rish lozim. Shuningdek, ushbu yondashuv xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham ahamiyatli. Chunki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan hududlarga oqib keladi va u yerda yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlarini tashkil etadi. Taklif etilayotgan yondashuv mavjud baholash uslublarini inkor etmaydi, balki ularni to'ldiradi va aholi bandligini ta'minlash nuqtai nazaridan yangi o'lchov imkonini beradi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, O'zbekistonda oliy ta'limning yalpi xizmatlar tarkibidagi ulushi (4,3%) rivojlangan davlatlar ko'rsatkichidan (10–15%) ancha past. Bu sohani jadal rivojlantirish uchun

imkoniyat mavjudligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, aholi iste'mol xarajatlari tarkibida ta'lim xizmatlari ulushi (2,5%) rivojlangan davlatlardagi darajadan (15,2%) sezilarli darajada kam.

Bu ko'rsatkich aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan real ehtiyoji va to'lov qobiliyatini oshirishni taqozo etadi. Uchinchidan, oliy ta'lim bitiruvchilarini hududlar bo'yicha notekis taqsimoti ichki migratsiya muammolarini keltirib chiqaradi va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'zaro tenglashtirish vazifasini dolzarblashtiradi. To'rtinchidan, mavjud baholash uslublari yalpi tavsiflovchi xususiyatga ega bo'lib, soha rivojlanishini va aholi bandligini ta'minlashning aniq yo'llarini to'la aks ettira olmaydi. Beshinchidan, taklif etilayotgan yangi uslubiy yondashuv – hudud aholisining istiqbolda oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi – aholi bandligini rejalashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda amaliy samara beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шербакowa A.A. Региональные университеты и их влияние на развитие региона // Социально-экономическое явления и процессы. — 2019. — №1 (105).
2. Шавхатова С.А. Механизм влияния университетов на региональные развитие // Инновационная экономика и право. — 2022. — №3 (22). — С. 37–42.
3. Каменских М.А. Следование влияния университетов на региональные экономическое развитие // Региональная экономика. — 2014. — №42.
4. Лешуков О.В., Евсева Д.Г Громов А.Д., Платнова Д.П. Оценка вклада региональных систем высшего образование в социальноэкономическое развитие регионов России. — М.: НЮ ВШИ, 2017.
5. Cowan R., Zinovyeva N. University effects on regional innovation // Research Policy. — 2013. — Vol.42. — I.3. — Pp. 788–800.
6. Bramwell A., Wolfe D.A. Universities and regional economic development // Research Policy. — 2008. — Vol.37. — I.8. — Pp. 1175–1187.
7. Pardaev M.Q., Urinbayeva Yu.P. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishlarini baholash yo'llari. — Samarqand: SamISI, 2020.
8. Mardonov B.B. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish mexanizmlari: Monografiya. — T.: «Iqtisod va Moliya», 2024.
9. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi. — Toshkent: Davlat Statistika qo'mitasi, 2022.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы существующие методические подходы к оценке роли услуг высшего образования в социально-экономическом развитии страны. В частности, рассмотрены методы оценки на основе таких показателей, как доля высшего образования в структуре валовых услуг, потребительские расходы населения, распределение выпускников по регионам и продолжительность обучения. Также проведён сравнительный анализ методологических подходов зарубежных и отечественных учёных. В результате исследования автором предложен новый методический подход, основанный на показателе, отражающем уровень обеспеченности населения региона высококвалифицированными специалистами в перспективе.

**Ключевые слова:** услуги высшего образования, социально-экономическое развитие, методы оценки, занятость населения, региональное развитие, квалифицированные кадры.

**Annotation:** This article analyzes existing methodological approaches to assessing the role of higher education services in the socio-economic development of a country. In particular, evaluation methods based on indicators such as the share of higher education in total services, household consumption expenditures, regional distribution of graduates, and duration of education are examined. In addition, a comparative analysis of methodological approaches by foreign and domestic scholars is conducted. As a result of the study, the author proposes a new methodological approach based on an indicator that reflects the prospective level of provision of the regional population with highly educated specialists..

**Keywords:** higher education services, socio-economic development, evaluation methods, employment, regional development, highly educated workforce.

# XITOYNING JANUBIY XITOIY DENGIZIDAGI GEOSTRATEGIK SIYOSATI

J. Turg'unboyev,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil  
izlanuvchi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Xitoyning dengizga yo'naltirilgan tashqi siyosati evolyutsiyasi, Janubiy Xitoy dengizidagi geostrategik manfaatlari va "to'qqiz belgili chiziq" konsepsiyasini kompleks tahlil qiladi. Shuningdek, harbiylashuv, "kulrang zona" strategiyasi hamda geoiqtisodiy instrumentlar orqali global ta'sir kengayishi yoritiladi. Raqamli diplomatiya rivoji va O'zbekiston tajribasi ham qiyosiy asosda baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Xitoy tashqi siyosati, dengiz strategiyasi, Janubiy Xitoy dengizi, geosiyosat, to'qqiz belgili chiziq, harbiylashuv, kulrang zona, geoiqtisodiyot, raqamli diplomatiya, O'zbekiston.

**Kirish.** Xitoyning zamonaviy tashqi siyosatini tushinishda uning dengizga nisbatan yondashuvining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida kontinental davlat sifatida shakllangan ushbu mamlakat XXI asrga kelib asta-sekin dengizga yo'naltirilgan strategiyani rivojlantira boshladi. Bu jarayon nafaqat harbiy-strategik ehtiyojlar, balki iqtisodiy globalizatsiya va energiya xavfsizligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Mao Tzedun davrida tashqi siyosat asosan quruqlik xavfsizligiga yo'naltirilgan edi. Ushbu davrda davlat strategiyasi ichki barqarorlikni ta'minlash va kontinental tahdidlarga qarshi turishga qaratildi. Dengiz yo'nalishi ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, harbiy-dengiz kuchlari asosan qirg'oq mudofaasi bilan cheklangan edi. Bu yondashuv Xitoyning o'sha davrdagi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari bilan ham izohlanadi [1].

Den Syaopin davrida esa tashqi siyosatda muhim burilish yuz berdi. "Islohot va ochiqlik" siyosati natijasida Xitoy global iqtisodiy tizimga integratsiyalasha boshladi. Bu esa dengiz kommunikatsiyalarining ahamiyatini keskin oshirdi. Dengiz yo'llari orqali amalga oshiriladigan savdo hajmining ortishi mamlakatni dengiz xavfsizligiga ko'proq e'tibor qaratishga undadi. Shu davrda harbiy strategiyada ham asta-sekin qirg'oq mudofaasidan faol himoya (active defense) konsepsiyasiga o'tish kuzatildi [2].

XXI asr boshlariga kelib, Xitoyning dengiz strategiyasi yanada tizimli va kompleks xarakter kasb eta boshladi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishi va global savdo tizimidagi o'rni kengaygani sari dengiz

yo'llari ustidan nazorat masalasi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, energiya resurslarining katta qismi dengiz orqali import qilinishi ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini oshirdi [3].

Shu davrda Xitoy siyosiy diskursida "dengiz qudrati" (maritime power) konsepsiyasi faol qo'llanila boshladi. Bu tushuncha mamlakatning nafaqat qirg'oq hududlarini himoya qilish, balki uzoq dengiz hududlarida ham o'z manfaatlarini ta'minlash zaruratini aks ettiradi. Xitoy rahbariyati tomonidan ilgari surilgan ushbu konsepsiya davlatning global miqyosdagi rolini kengaytirishga qaratilgan strategik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot kompleks va ko'p darajali metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda sifat (qualitative) tahlil usullari ustuvor bo'lib, tarixiy-analitik, tizimli va qiyosiy metodlar qo'llanildi. Xitoy tashqi siyosatining evolyutsiyasini ochib berishda tarixiy yondashuvdan, uning zamonaviy dengiz strategiyasini tahlil qilishda esa tizimli (systemic) va geosiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy strategik hujjatlar, xalqaro tashkilotlar materiallari, ochiq statistik ma'lumotlar hamda yetakchi xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Xususan, xalqaro huquqiy hujjatlar va arbitraj qarorlari normativ-huquqiy tahlil doirasida o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali Xitoyning harbiy, geoiqtisodiy va siyosiy strategiyalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi hamda ularning mintaqaviy va global ta'siri baholandi. Shuningdek, kontent-tahlil yordamida siyosiy diskurs, rasmiy

bayonotlar va strategik konsepsiyalar tahlil qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review). Xitoyning dengiz strategiyasi va Janubiy Xitoy dengizi masalasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlarida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu mavzu asosan geosiyosat, xavfsizlik tadqiqotlari va xalqaro huquq doirasida tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda Xitoyning dengizga yo'naltirilgan strategiyasi uning umumiy tashqi siyosiy transformatsiyasining muhim elementi sifatida talqin etiladi.

Dastlabki tadqiqotlarda Xitoy ko'proq kontinental xavfsizlikka yo'naltirilgan davlat sifatida ko'rib chiqilgan bo'lsa, keyingi ishlarda uning dengiz qudratini oshirishga qaratilgan strategiyasi markaziy mavzuga aylangan. Xususan, zamonaviy tadqiqotlar Xitoyning "maritime power" konsepsiyasini global ta'sirni kengaytirish vositasi sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, harbiy-dengiz kuchlarining modernizatsiyasi va A2/AD strategiyasi xavfsizlik tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilgan yo'nalish hisoblanadi.

Janubiy Xitoy dengizi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda "to'qqiz belgili chiziq" konsepsiyasi eng bahsli masalalardan biri sifatida keng tahlil qilinadi. Ayrim mualliflar uni tarixiy huquqlar asosida asoslashga urinsa, boshqa tadqiqotchilar ushbu yondashuvning zamonaviy xalqaro huquq normalariga mos kelmasligini ta'kidlaydi. Xususan, BMT Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasi doirasida hududiy da'volarni aniqlash mezonlari va arbitraj qarorlari ilmiy munozaralarning asosiy markazida turadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda "kulrang zona" (grey zone) strategiyasi va "salami slicing" yondashuvi Xitoyning amaliy siyosatini tushuntirishda muhim konseptual vosita sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv Xitoyning ochiq harbiy to'qnashuvsiz, bosqichma-bosqich ta'sirini kengaytirish strategiyasini izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, geoiqtisodiy yondashuv, xususan, "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi iqtisodiy vositalar orqali geosiyosiy maqsadlarga erishish mexanizmi sifatida keng o'rganilgan.

Raqamli diplomatiya masalasi esa nisbatan yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, u asosan "soft power", "public diplomacy" va "strategic communication" konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli platformalar davlatlarning xalqaro imiji va tashqi siyosiy ta'sirini shakllantirishda muhim instrument sifatida baholanadi. AQSH va Yevropa davlatlari tajribasi bu borada keng o'rganilgan bo'lsa, O'zbekiston misolida ushbu yo'nalish hali shakllanish bosqichida ekanligi ta'kidlanadi.

Tahlil va natijalar. Dengiz strategiyasining transformatsiyasi Xitoy harbiy-dengiz kuchlarining

modernizatsiyasi bilan ham bevosita bog'liq. So'nggi yillarda flot tarkibining kengayishi, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi va uzoq masofali operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarining oshishi ushbu jarayonning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bu esa Xitoyning faqat mintaqaviy emas, balki global dengiz aktori sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi [4]. Mazkur taraqqiyot bosqichi faqat harbiy omillar bilan cheklanmaydi. Dengiz strategiyasi iqtisodiy va geosiyosiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, global savdo yo'llari ustidan nazorat, energiya ta'minoti xavfsizligi va logistika tarmoqlarini rivojlantirish ushbu strategiyaning muhim elementlari hisoblanadi. Shu sababli Xitoyning dengiz siyosati kompleks va ko'p qatlamli xarakterga ega bo'lib, unda harbiy, iqtisodiy va siyosiy omillar o'zaro uyg'unlashgan.

Energiya xavfsizligi ham Xitoyning geostrategik manfaatlarida alohida o'rin tutadi. Mamlakat iqtisodiyotining jadal o'sishi energiya resurslariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Xitoy iste'mol qilayotgan neft va gazning katta qismi tashqi manbalardan import qilinadi va ularning asosiy qismi dengiz yo'llari orqali yetkazib beriladi. Shu sababli energiya ta'minoti barqarorligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan.

Savdo yo'llari va dengiz kommunikatsiyalari ustidan nazorat ham Xitoy strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Global iqtisodiy tizimda yetakchi eksportchi davlat sifatida Xitoy uchun dengiz savdo yo'llarining uzluksiz ishlashi hayotiy ahamiyatga ega. Ushbu yo'llar orqali mamlakatning tashqisavdosining asosiy qismi amalga oshiriladi. Shu sababli dengiz kommunikatsiyalarining xavfsizligi iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur kontekstda dengiz kommunikatsiyalari ustidan nazorat masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'llar ustidan nazorat davlatlarga nafaqat iqtisodiy ustunlik, balki geosiyosiy ta'sir imkoniyatlarini ham beradi. Shu sababli Xitoy ushbu hududda o'z ta'sirini kengaytirishga intilmoqda.

Harbiy-strategik ustunlikni ta'minlash masalasi ham muhim geostrategik manfaatlardan biri hisoblanadi. Mazkur hudud Xitoyning janubiy qirg'oqlariga yaqin joylashgan bo'lib, u ehtimoliy xavfsizlik tahdidlarini oldindan bartaraf etish uchun muhim "chiziq" vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu hudud ustidan nazorat mamlakatning mudofaa strategiyasida muhim o'rin tutadi [6]. Bundan tashqari, ushbu hudud harbiy operatsiyalar uchun strategik platforma sifatida ham qaraladi. Harbiy infratuzilmaning rivojlanishi va dengiz kuchlarining kengayishi Xitoyga uzoqroq hududlarda operatsiyalar olib borish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning mintaqaviy va global miqyosdagi harbiy ta'sirini oshiradi.

Xitoyning Janubiy Xitoy dengiziga nisbatan siyosatini tushunishda “to‘qqiz belgili chiziq” (nine-dash line) konsepsiyasi markaziy o‘rin tutadi. Ushbu chiziq rasmiy Pekinning hududiy da‘volarini ifodalovchi asosiy kartografik va siyosiy vosita bo‘lib, u nafaqat huquqiy, balki geosiyosiy va strategik mazmunga ham ega. Shu sababli ushbu konsepsiyani tahlil qilish Xitoyning umumiy strategiyasini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“To‘qqiz belgili chiziq” mohiyatan dengiz hududining katta qismini qamrab oluvchi noaniq chegaralangan chiziqlar tizimidan iborat. Ushbu chiziq ilk bor 1947-yilda Xitoy Respublikasi tomonidan e‘lon qilingan xaritada paydo bo‘lgan bo‘lib, keyinchalik Xitoy Xalq Respublikasi

tomondan ham qabul qilingan. Dastlab “o‘n bir belgili chiziq” shaklida mavjud bo‘lgan ushbu konsepsiya keyinchalik qayta ko‘rib chiqilib, to‘qqiz chiziqli ko‘rinishga keltirilgan.

Mazkur chiziqning o‘ziga xos jihati shundaki, u aniq geografik koordinatalar bilan belgilab qo‘yilmagan. Bu esa uning huquqiy maqomi va talqinini murakkablashtiradi. Xitoy ushbu chiziqni tarixiy huquqlar asosida izohlab, mazkur hudud uzoq davr mobaynida uning ta‘sir doirasida bo‘lganini ta‘kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, konsepsiya Xitoy siyosiy diskursida tarixiy adolatni tiklash vositasi sifatida ham talqin qilinadi.

Tarixiy asoslash jarayonida Xitoy rasmiy manbalari qadimgi xaritalar, dengizchilik faoliyati va tarixiy yozuvlarga tayanadi. Biroq zamonaviy



ilmiy adabiyotlarda ushbu dalillarning huquqiy kuchi borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar tarixiy foydalanish suverenitetni avtomatik tarzda anglatmasligini va bu kabi yondashuvlar zamonaviy xalqaro huquq normalari bilan mos kelmasligini ta‘kidlaydi [7].

Huquqiy talqin nuqtai nazaridan qaralganda, “to‘qqiz belgili chiziq” konsepsiyasi xalqaro huquqda eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi. BMT Dengiz huquqi bo‘yicha konvensiyasi dengiz hududlarini aniq mezonlar asosida, masofa va geografik koordinatalar orqali belgilaydi. Shu sababli noaniq chiziqlar orqali ifodalangan hududiy da‘volar ushbu tizim bilan to‘liq mos kelmaydi.

Xitoy harbiy-dengiz kuchlarining moderni-

zatsiyasi faqat son jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham amalga oshirilmogda. Zamonaviy radar tizimlari, raketa texnologiyalari va dengiz aviatsiyasi imkoniyatlari Xitoyning dengizdagi operativ qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa unga strategik hududlarda uzoq muddatli harbiy mavjudlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Xitoyning harbiy strategiyasida muhim o‘rin tutuvchi yana bir konsepsiya bu “kirishni nazorat qilish/ hududni to‘shish” anti-access/area denial (A2/AD) strategiyasidir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — raqib davlatlarning, ayniqsa AQShning, ushbu hududga kirish imkoniyatlarini cheklash va ularning harbiy faoliyatini murakkablashtirishdan iborat [8].

Strategiyasi doirasida Xitoy uzoq masofali raketa tizimlari, dengiz va havo mudofaa vositalari hamda kiber urush imkoniyatlarini rivojlantirmoqda. Bu esa ehtimoliy raqiblar uchun xarajatlarni oshiradi va harbiy muvozanatni Xitoy foydasiga o'zgartirishga xizmat qiladi. Harbiy infratuzilmaning kengayishi ushbu strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dengiz portlari, radar tizimlari, aloqa tarmoqlari va logistika markazlarining rivojlanishi Xitoyga uzoq muddatli harbiy mavjudlikni ta'minlash imkonini beradi. Mazkur jarayon mintaqaviy xavfsizlik muvozanatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoyning harbiy imkoniyatlarining kengayishi boshqa davlatlar tomonidan tahdid sifatida qabul qilinib, ular ham o'z harbiy salohiyatini oshirishga intilmoqda. Natijada xavfsizlik dilemmasi kuchayib, mintaqada harbiy raqobatning yangi bosqichi shakllanmoqda.

Xitoyning "kulrang zona" strategiyasida davlatga qarashli bo'lmagan, ammo amalda davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar muhim rol o'ynaydi. Xususan, dengiz qo'riqchilari va dengiz militsiyasi ushbu yondashuvning asosiy instrumentlari hisoblanadi. Xitoy sohil qo'riqlash xizmati (China Coast Guard) rasmiy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida faoliyat yuritadi, biroq amalda u strategik hududlarda davlat manfaatlarini ilgari suruvchi yarim harbiy kuch sifatida qo'llaniladi [9].

"Kulrang zona" strategiyasining asosiy xususiyati — bu to'qnashuvsiz bosim o'tkazishdir. Xitoy ushbu yondashuv orqali boshqa davlatlarga nisbatan harbiy eskalatsiyasiz, ammo izchil bosim o'tkazadi. Masalan, baliqchilik faoliyatini kengaytirish, patrul kemalarini joylashtirish yoki boshqa davlat kemalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish orqali u o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu harakatlar alohida-alohida qaralganda keskin agressiya sifatida baholanmasligi mumkin, biroq ularning yig'indisi strategik natijaga olib keladi.

Mazkur yondashuv ko'pincha "salami slicing" — ya'ni qadam-baqadam strategiyasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu modelga ko'ra, davlat kichik, deyarli sezilmaydigan qadamlar orqali o'z ta'sirini kengaytiradi. Har bir alohida qadam keskin javob choralarini keltirib chiqarmaydi, biroq vaqt o'tishi bilan ularning umumiy ta'siri sezilarli bo'ladi. Natijada hudud ustidan real nazorat bosqichma-bosqich mustahkamlanadi.

Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi faoliyati faqat harbiy-strategik omillar bilan cheklanmaydi. Aksincha, u keng qamrovli geoiqtisodiy yondashuv bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuv doirasida iqtisodiy instrumentlar: savdo, investitsiya, infratuzilma va logistika tarmoqlari, geosiyosiy ta'sirni kengaytirish vositasiga aylantiriladi. Ayniqsa "Bir kamar — bir yo'l" (Belt and Road Initiative, BRI) tashabbusi ushbu strategiyaning

markaziy jihati sifatida namoyon bo'ladi.

"Bir kamar — bir yo'l" tarkibidagi muhim yo'nalishlardan biri Dengiz ipak yo'li (Maritime Silk Road) konsepsiyasidir. Ushbu tashabbus Xitoyning Janubi-Sharqiy Osiyo, Hind okeani, Yaqin Sharq va Yevropabilan bog'lovchidengizkommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dengiz yo'llari orqali savdo oqimlarini kengaytirish va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi [10].

Dengiz ipak yo'li nafaqat iqtisodiy loyiha, balki geosiyosiy strategiya sifatida ham qaraladi. Ushbu tashabbus orqali Xitoy global savdo tizimida o'z pozitsiyasini mustahkamlash, yangi bozorlarni egallash va logistika ustidan nazoratni kuchaytirishga intilmoqda. Shu sababli mazkur konsepsiya iqtisodiy va strategik manfaatlarining uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi strategiyasi bir yoqlama emas, balki ko'p qatlamli va kompleks xarakterga ega bo'lgan tizimli siyosat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu strategiya alohida jihatlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'liq harbiy, iqtisodiy va siyosiy komponentlarning integratsiyalashgan modeli sifatida shakllangan. Aynan shu yondashuv uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Avvalo, Xitoy strategiyasining kompleks tabiati uning turli vositalarni bir vaqtning o'zida va uyg'un holda qo'llashida namoyon bo'ladi. Harbiylashuv jarayonlari orqali hududiy nazorat mustahkamlanayotgan bo'lsa, geoiqtisodiy tashabbuslar orqali iqtisodiy ta'sir kengaytirilmoqda. Shu bilan birga, diplomatik va huquqiy vositalar yordamida ushbu siyosat legitimlashtirilmoqda. Bu esa strategiyaning ko'p darajali xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Harbiy komponent ushbu strategiyaning asosiy tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Dengiz kuchlarining modernizatsiyasi, sun'iy orollar va harbiy infratuzilmaning kengayishi orqali Xitoy o'zining real nazorat imkoniyatlarini oshirmoqda. Bu esa hududiy da'volarni amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan

birga, "kulrang zona" strategiyasi orqali ochiq to'qnashuvsiz bosim o'tkazish imkoniyati yaratilmoqda.

Iqtisodiy komponent esa ushbu strategiyaning muhim qo'shimcha ustuni hisoblanadi. "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi, dengiz logistika tarmoqlari va port infratuzilmasi orqali Xitoy iqtisodiy ta'sirini kengaytirmoqda. Bu esa boshqa davlatlar bilan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirib, siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa

iqtisodiy vositalar geosiyosiy maqsadlarga erishish instrumentiga aylanmoqda.

Siyosiy va huquqiy komponentlar ham strategiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Xitoy o'z da'volarini tarixiy va huquqiy asoslar orqali legitimlashtirishga intilib, diplomatik platformalarda faol pozitsiya yuritmoqda. Shu bilan birga, mintaqaviy institutlar bilan hamkorlik orqali o'z ta'sirini muvozanatli tarzda kengaytirishga harakat qilmoqda. Xavfsizlik dilemmasini kuchaytiruvchi

asosiy omillar qatoriga bir necha jihatlarni kiritish mumkin. Birinchidan, harbiy infratuzilmaning kengayishi va dengiz kuchlarining modernizatsiyasi. Ikkinchidan, "kulrang zona" strategiyasi orqali bosqichma-bosqich nazoratni kengaytirish. Uchinchidan, strategik hududlar ustidan nazorat uchun yirik davlatlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq holda mintaqaviy beqarorlikni kuchaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Andrew S. Erickson, Chinese Naval Strategy in the 21st Century, 2007, Naval Institute Press, p. 17.
2. You Ji, The Armed Forces of China, 1999, I.B. Tauris, p. 112 // [http://catalogue.nust.edu.pk:8081/cgi-bin/koha/opac-detail.pl?biblionumber=591614&shelfbrowse\\_itemnumber=582776](http://catalogue.nust.edu.pk:8081/cgi-bin/koha/opac-detail.pl?biblionumber=591614&shelfbrowse_itemnumber=582776).
3. Robert Kaplan, Asia's Cauldron, 2014, Random House, p. 58.
4. Andrew S. Erickson, "China's Modernization of Its Naval and Air Forces", Asia Policy, 2016, p. 33.
5. M. Taylor Fravel, Strong Borders, Secure Nation, 2008, Princeton University Press, p. 271.
6. Nan Li, China's Naval Strategy and Maritime Security, 2012, p. 88
7. Bill Hayton, The South China Sea: The Struggle for Power in Asia, 2014, Yale University Press, p. 72.
8. Andrew Krepinevich, Why AirSea Battle?, 2010, CSBA, p. 22 // <https://csbaonline.org/uploads/documents/2010.02.19-Why-AirSea-Battle.pdf>
9. Ryan Martinson, China's Maritime Gray Zone Operations, 2019, U.S. Naval War College, p. 12.
10. Nadège Rolland, China's Eurasian Century?, 2017, National Bureau of Asian Research, p. 45.

**Аннотация:** В статье анализируется эволюция морской стратегии Китая, его геостратегические интересы в Южно-Китайском море и концепция «девятипунктирной линии». Рассматриваются милитаризация, стратегия «серой зоны» и геоэкономические инструменты влияния. Также проводится сравнительный анализ развития цифровой дипломатии, включая опыт Узбекистана в современных международных отношениях и институциональных преобразованиях.

**Ключевые слова:** внешняя политика Китая, морская стратегия, Южно-Китайское море, геополитика, девятипунктирная линия, милитаризация, серая зона, геоэкономика, цифровая дипломатия, Узбекистан.

**Abstract:** This article examines the evolution of China's maritime-oriented foreign policy, its geostrategic interests in the South China Sea, and the "nine-dash line" concept. It explores militarization, grey-zone strategies, and geo-economic tools of influence. Additionally, the study provides a comparative analysis of digital diplomacy development, including Uzbekistan's institutional experience.

**Key words:** China foreign policy, maritime strategy, South China Sea, geopolitics, nine-dash line, militarization, grey zone, geo-economics, digital diplomacy, Uzbekistan.

# O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XODIMLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

R.P. Sadullayev,  
Ma'mun Universitet dotsenti (PhD).

Sh.A. Ibragimova,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil  
izlanuvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida marketing faoliyatini samaradorligini oshirish va xodimlar salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Mijozga yo‘naltirilgan marketing tizimini boshqarish iyerarxiyasi, GAP tahlil usuli asosida mijozlar qoniqishini baholash uslubiyati, marketing bo‘limi xodimlari uchun yo‘riqnoma, raqobatbardoshlikni oshirishga yo‘naltirilgan segmentlash algoritmi hamda munosabatlar marketingi strategiyalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklarining marketing faoliyatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, marketing faoliyati, mijozga yo‘naltirilgan yondashuv, GAP tahlil, xodimlar salohiyati, segmentlash, munosabatlar marketingi, CRM tizimi.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan marketing faoliyatining samaradorligiga bevosita bog‘liq. Mijozlar talablarining ortishi, raqamli xizmatlar bozorining kengayishi va moliya-bank tizimidagi institutsional islohotlar tijorat banklarini o‘z marketing strategiyalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish doirasida bank xizmatlarining sifatini oshirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimini rivojlantirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish ko‘zda tutilgan.[1] Shunday bo‘lsada, O‘zbekiston tijorat banklarida marketing faoliyatini ilmiy asoslangan, yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish masalasi yetarli

darajada o‘rganilmagan.

Marketing nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan Kotler va Keller (2016) marketing menejmentining zamonaviy konsepsiyasini keng yoritgan bo‘lib, bu asar bank sektori uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[6] Xizmat sifatini baholash sohasida Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan modeli bank sektorida keng qo‘llanilmoqda.[8] Mazkur model mijozlar kutganlari va haqiqatdagi xizmat sifati o‘rtasidagi besh tafovutni o‘lchash imkonini beradi. Gronroos (2007) munosabatlar marketingi nazariyasini rivojlantirib, mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikni saqlash strategik raqobat ustunligini ta‘minlashini ilmiy jihatdan asoslagan.[9]

O‘zbek olimlari orasida Ergashxodjaeva, Qosimova va Yusupov (2018) tomonidan yozilgan “Marketing” darsligi O‘zbekiston sharoitida marketing nazariyasi va amaliyotini, shu jumladan bozor segmentatsiyasini, raqobatli strategiyalarni va kommunikatsiya siyosatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.[3] Kuliev N.X. (2025) “Marketing”

jurnalida e'lon qilgan tadqiqotida O'zbekiston tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimini samarali joriy etish mexanizmlari va uning bank daromadlari hamda mijozlar sodigligiga ijobiy ta'sirini tahlil qilgan.[4] Tadjibayeva N.G. (2023) tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan.[5]

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda bir qator muhim masalalar yetarli darajada yoritilmagan: marketing faoliyatini iyerarxik tizim asosida boshqarish mexanizmi, GAP tahlil usulini O'zbekiston bank amaliyotiga moslashtirilgan tarzda qo'llash, xodimlar uchun vazifalar algoritmini o'z ichiga oluvchi yo'riq-noma tizimi, hamda mikro va makro segmentlar asosida munosabatlar marketingi strategiyalarini shakllantirish. Ushbu maqolada ana shu bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, so'rovnoma metodikasi, ekspert bahosi va GAP (mijozlar kutgan xizmat va haqiqiy ko'rsatilgan xizmat o'rtasidagi nomuvofiqlikni (uzilishni) aniqlash va bartaraf etish orqali xizmat sifatini baholash va yaxshilash menejmenti vositasi) tahlil usuli. Empirik ma'lumotlar 2020-2024-yillar davomida O'zbekistondagi bir qator tijorat banklari faoliyatini o'rganish jarayonida to'plangan. So'rovnomada 105 nafar bank mijozlari va 35 nafar marketing bo'limi xodimi ishtirok etgan; so'rovnoma 1-5 ball asosida tuzilgan.[8]

Tadqiqotning asosiy metodologik vositasi sifatida Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan GAP modeli qo'llanildi. Model xizmat sifatini besh o'lchov bo'yicha baholaydi: moddiy ko'rinish (tangibles), ishonchlilik (reliability), tezkor munosabat (responsiveness), kafolat (assurance) va empatiya (empathy). GAP modeli esa mijozlar kutganlari va idrok etilgan xizmat sifati o'rtasidagi tafovutlarni – beshta asosiy "gap"ni – aniqlash imkonini beradi.

Segmentlash algoritmini ishlab chiqishda klasterli tahlil va diskriminant tahlil usullaridan foydalanildi. Xodimlar salohiyatini baholashda 360 daraja baholash metodikasidan va samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimidan foydalanildi. Tahlil natijalari SPSS 26.0 dasturiy ta'minot vositasida qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Mijozga yo'naltirilgan marketing faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Tijorat banklarida mijozga yo'naltirilgan marketing

faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish uchun biz uch pog'onali iyerarxik mexanizmni taklif etamiz. Ushbu mexanizm mijozlar siyosatini izchil ishlab chiqish va baholash imkonini beradi.

Birinchi (strategik) pog'onada bank rahbariyati umumiy marketing strategiyasini belgilaydi, maqsadli bozor segmentlarini tanlaydi va brendni boshqaradi. Bu darajada asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) sifatida bozor ulushi, mijozlar bazasining o'sish sur'ati, mijozlar hayotiy tsikli davomidagi daromad va brendni tan olish darajasi qabul qilinadi.

Ikkinchi (taktik) pog'onada marketing bo'limi xodimlari analitik va kommunikatsion vazifalarni bajaradi: segmentatsiya, mahsulot va xizmatlarni pozitsiyalash, narxlash siyosati hamda reklama kampaniyalarini rejalashtirish. Ushbu darajada asosiy ko'rsatkichlar sifatida yangi mijozlarni jalb qilish xarajatlari, marketing investitsiyalarining rentabelligi va brend xabardorligi darajasi kuzatiladi.

Uchinchi (operatsion) pog'onada bank xodimlari bevosita mijozlar bilan ishlaydi. Bu darajada mijozlar qoniqishi indeksi, muammolarni hal qilish tezligi va mijozlarni ushlab qolish ko'rsatkichi (retention rate) kabi metrikalar monitoring qilinadi.

Ushbu uch pog'onali mexanizm boshqaruvning vertikal integratsiyasini ta'minlaydi: yuqori pog'onadagi strategik qarorlar pastki darajalarda amalga oshiriladi, quyi darajadagi operatsion ma'lumotlar esa teskari aloqa sifatida strategik qarorlarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kotler va Keller (2016) asarida ta'kidlanganidek, zamonaviy marketing menejmentining asosiy tamoyillaridan biri – bu har bir darajada qo'yilgan maqsadlarning aniq, o'lchanuvchi va ulashilgan bo'lishi hisoblanadi.[6]

GAP tahlil usuli asosida mijozlar qoniqishini baholash uslubiyati

Bank xizmatlari sifatini baholashda Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan metodikasidan foydalanish yashirin omillarni aniqlashga imkon beradi.[7] Biz ushbu modelni O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga moslashtirib, so'rovnoma natijalarini beshta tafovut bo'yicha tahlil qildik.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida barcha GAP ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgargan. Biroq 3-tafovut xodimlarning belgilangan standartlarni bajarishidagi farq hali ham eng yuqori salbiy qiymatga ega. Bu shuni bildiradi: bank xodimlari tomonidan standartlarni to'liq bajarishda tizimli qiyinchiliklar mavjud va bu holat xodimlar salohiyatini rivojlantirish masalasini dolzarb qiladi

## O'zbekiston tijorat banklari uchun GAP tahlil natijalari (2020-2024)

Tafovut turi (GAP)	2020-yil, ball	2024-yil, ball	O'zgarish yo'nalishi
Rahbariyat tasavvuri va mijozlar kutganlari o'rtasidagi tafovut	-0,84	-0,52	Ijoiy (+0,32)
Xizmat standartlari va rahbariyat tasavvuri o'rtasidagi tafovut	-0,93	-0,61	Ijoiy (+0,32)
Haqiqiy xizmat ko'rsatish va standartlar o'rtasidagi tafovut	-1,18	-0,74	Ijoiy (+0,44)
Tashqi kommunikatsiya va haqiqiy xizmat o'rtasidagi tafovut	-0,79	-0,46	Ijoiy (+0,33)
Umumiy (yalpi) tafovut — mijozlar kutganlari va idrok etganlari orasida	-1,41	-0,89	Ijoiy (+0,52)

Manba: muallif tomonidan so'rovnoma natijalari asosida hisoblangan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida barcha GAP ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgargan. Biroq 3-tafovut xodimlarning belgilangan standartlarni bajarishidagi farq hali ham eng yuqori salbiy qiymatga ega. Bu shuni bildiradi: bank xodimlari tomonidan standartlarni to'liq bajarishda tizimli qiyinchiliklar mavjud va bu holat xodimlar salohiyatini rivojlantirish masalasini dolzarb qiladi.

So'rovnoma ishtirokchilarining 68,4% ishonchlilik o'lchovi bo'yicha kutganlari to'liq qondirilmayotganini bildirgan. Empatiya (empathy) o'lchovida esa qoniqmovchilik 54,2% ni tashkil etgan. Bu natijalar Kuliev N.X. (2025) tadqiqotida keltirilgan xulosalar bilan ham mos keladi: CRM tizimini joriy etish xodimlar kompetensiyasi va mijozlar qoniqishi indeksini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Faktorli tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mijozlar qoniqishiga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy yashirin omil mavjud:

(1) texnologik omil – raqamli xizmatlarning qulayligi va ishonchliliigi; (2) insoniy omil – xodimlarning malakasi va muloqot madaniyati; (3) tezkorlik omili – bank operatsiyalarini bajarish vaqti; (4) shaffoflik omili – mahsulotlar va xizmatlar haqida to'liq axborot berish.

Marketing bo'limi xodimlari uchun yo'riqnoma tizimi

Tadqiqot doirasida tijorat banklarida marketing bo'limi xodimlari uchun uch yo'nalishli yo'riqnoma taklif etildi.

Ushbu yo'riqnoma tashkiliy tuzilma va KPI tizimi bilan uzviy bog'liq.

Birinchi yo'nalish – mijozlar bilan ishlash vazifalari: yangi mijozlarni jalb qilish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; mavjud mijozlarni

ushlab qolish uchun sodiqlik dasturlarini boshqarish; mijozlar shikoyatlari bilan ishlash tartibi; CRM tizimida ma'lumotlarni yuritish va yangilash; yangi mahsulot va xizmatlarni mijozlarga taqdim etish.

Ikkinchi yo'nalish – tashkiliy vazifalar: marketing tadbirlarini rejalashtirishda boshqa bo'limlar bilan muvofiqlashtirish; reklama materiallarini ishlab chiqish va tarqatish; bank brend qo'llanmasiga rioya etilishini ta'minlash; marketing byudjetini nazorat qilish va hisobotlarni tayyorlash.

Uchinchi yo'nalish – tahliliy vazifalar: bozor tendensiyalarini kuzatish va raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish; mijozlar segmentlari bo'yicha hisobotlar tayyorlash; marketing kampaniyalarining samaradorligini o'lchash; ROMI, CAC, CLV kabi asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va monitoring qilish. (ROMI (marketing investitsiyalarining rentabelligi) marketing xarajatlari qanchalik foyda keltirganini, CAC (mijozni jalb qilish xarajati) yangi mijoz uchun qancha pul sarflanganini, CLV (mijozning umr bo'yi qiymati) esa mijoz kompaniyaga jami qancha foyda keltirishini ko'rsatadi.)

Har bir xodim uchun oylik, choraklik va yillik samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) aniq va o'lchanuvchi tarzda belgilab beriladi. Gronroos (2007) ta'kidlaganidek, ichki marketing (internal marketing) tashkilot ichida xizmat yo'naltirilgan madaniyatni shakllantiradi va bu bevosita tashqi mijozlar qoniqishiga ta'sir ko'rsatadi.[9] Shu nuqtai nazardan yo'riqnoma tizimi ichki marketing vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqobatbardoshlikni oshiruvchi segmentlash algoritmi

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan marketing siyosatini uch asosiy segment bo'yicha ishlab chiqish algoritmi taklif

etildi: (1) mijozlar salohiyati segmenti; (2) faoliyat tarmog'i segmenti; (3) yuridik shakl segmenti.

Mijozlar salohiyati segmenti bo'yicha algoritm quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: mijozlarning daromad darajasi va bank bilan munosabat tarixini tahlil qilish; yuqori salohiyatli mijozlarni aniqlash va ularni premium xizmat dasturlariga jalb qilish; o'rta salohiyatli mijozlarni yuqori segmentga o'tkazish uchun rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish; past salohiyatli mijozlar uchun arzon, ammo qulay raqamli xizmatlarni yo'naltirish.

Faoliyat tarmog'i segmenti bo'yicha algoritm bankning korporativ mijozlarini iqtisod sektorlari bo'yicha ajratishni nazarda tutadi: qishloq xo'jaligi,

sanoat, savdo, xizmatlar va boshqalar. Har bir tarmoq uchun o'ziga xos bank mahsulotlari to'plami va kommunikatsiya strategiyasi taklif etiladi. Tadjibayeva N.G. (2023) ham bank marketing strategiyasini sektoral jihatdan farqlashning raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.[5]

Yuridik shakl segmenti bo'yicha algoritm mijozlarni yakka tartibdagi tadbirkorlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari va davlat korxonalariga bo'lib, har birining bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari va moliyaviy xavf profili bo'yicha farqlangan yondashuv qo'llashni ko'zda tutadi.

2-jadval

### Segmentlar bo'yicha marketing siyosati ko'rsatkichlari va yondashuvlari

Segment	Asosiy ko'rsatkich	Maqsad	Marketing usuli
<b>Yuqori salohiyatli (Premium)</b>	<b>CLV &gt; 50 mln so'm/yil</b>	<b>Ushlab qolish 95%</b>	<b>VIP dasturlari, shaxsiy menejer</b>
<b>O'rta salohiyatli</b>	<b>CLV 10–50 mln so'm/yil</b>	<b>Cross-sell 35%</b>	<b>Paket takliflar, raqamli kanallar</b>
<b>Past salohiyatli / Yangi</b>	<b>CLV &lt; 10 mln so'm/yil</b>	<b>Faollashtirish 20%</b>	<b>Mobil bank, avtomatlashtirish</b>
<b>Korporativ (tarmoq bo'yicha)</b>	<b>Kredit portfeli hajmi</b>	<b>Portfel o'sishi 18%</b>	<b>Sohaga maxsus mahsulotlar</b>

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Munosabatlar marketingi: mikro va makro segmentlar bo'yicha strategik qarorlar

Tijorat banklarida iste'molchilarning mikro va makro segmentlariga xos bo'lgan strategik qarorlar qabul qilishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish tadqiqotimizning muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etdi.

Makro segmentatsiya darajasida uch toifa ajratildi: jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznes, yirik korporativ mijozlar. Har bir toifa uchun munosabatlar marketingining asosiy elementlari – sodiqlik dasturlari, muloqot kanallari, xizmat ko'rsatish standarti va shikoyatlar bilan ishlash tartibi – farqlangan holda belgilandi.

Mikro segmentatsiya darajasida esa har bir makro toifaning ichida demografik, xulq-atvoriy va psixografik belgilar asosida kichik guruhlar ajratildi. Masalan, jismoniy shaxslar toifasida: 18–35 yoshli raqamli avlod vakillari, 36–55 yoshli professional qatlam va 55+ yoshli nafaqaxo'rlar guruhlar alohida ko'rib chiqildi. Har bir mikro segment uchun maqsadli xizmatlar to'plami, muloqot uslubi va rag'batlantirish dasturi taklif etildi.

Ergashxodjaeva va boshq. (2018) marketing

darsligida ta'kidlanganidek, bozor segmentatsiyasi korporativ va individual mijozlarni to'g'ri taqsimlash orqali bank resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.[3] Kuliev N.X. (2025) o'z tadqiqotida CRM tizimi yordamida O'zbekiston tijorat banklarida – xususan, ipoteka-bank misolida – mijozlar qoniqish indeksini 78 foizdan 84 foizga oshirish mumkinligini ko'rsatgan.[4]

Munosabatlar marketingini to'g'ri amalga oshirish bank uchun quyidagi natijalarni berishi mumkin: mijozlarni ushlab qolish xarajatlarini 15–20 foizga kamaytirish; qo'shib sotish darajasini 25–30 foizga oshirish; CLV ko'rsatkichini 30–40 foizga ko'paytirish imkoniyati. Bu taxminlar O'zbekiston bank sektori bo'yicha so'rovnoma va Kuliev (2025) asari ma'lumotlari asosida baholangan.[4]

Xodimlar salohiyatini rivojlantirish tizimi

Bank marketing faoliyatining samaradorligini oshirishda xodimlar salohiyatini maqsadli rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'tkazilgan so'rovnoma shuni ko'rsatdiki, marketing bo'limi xodimlarining 62,4 foizi CRM tizimlarini mustaqil ravishda boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi, 71,8 foizi esa mijozlar segmentatsiyasi bo'yicha

amaliy bilimlarining yetarli emasligini ta'kidlagan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun uch pog'onali rivojlantirish tizimi taklif etildi. Birinchi pog'ona – bilimlarni shakllantirish: marketing nazariyasi va amaliyotini o'rgatish; bank mahsulotlari va xizmatlarini chuqur bilish; mijozlar psixologiyasi va muloqot ko'nikmalarini egallash; raqamli marketing vositalari va CRM tizimlarini o'zlashtirish. Ikkinchi pog'ona – ko'nikmalarni rivojlantirish: amaliy mashg'ulotlar va rolli o'yinlar orqali muzokaralar san'atini rivojlantirish; real loyihalar asosida tahliliy ko'nikmalarni mustahkamlash; jamoaviy ishlash va loyiha boshqaruvi bo'yicha trening. Uchinchi pog'ona – munosabatlar va qadriyatlarini shakllantirish: mijozga yo'naltirilganlik madaniyatini singdirish; natijaga yo'naltirilganlik va mas'uliyatni rivojlantirish; innovatsiyaga ochiqlik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Har bir xodim uchun individual rivojlanish rejasini 6 oylik va 1 yillik maqsadlarni, zarur resurslarni va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. Gronroos (2007) ta'kidlaganidek, xizmat madaniyati va ichki marketing – tashqi mijozlar qoniqishini ta'minlashning zaruriy shartidir.

#### Xulosa

Amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

Birinchi, tijorat banklarida marketing faoliyatini boshqarishning uch pog'onali iyerarxik mexanizmi – strategik, taktik va operatsion darajalar – o'rtasida samarali integratsiyani ta'minlab, mijozlar siyosatini maqsadli ishlab chiqish va doimiy baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, GAP tahlil usuli asosida ishlab chiqilgan uslubiyat O'zbekiston tijorat banklarida xizmat sifatini yashirin omillar bo'yicha – texnologik, insoniy, tezkorlik va shaffoflik omillari – baholash imkonini beradi. So'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdi: eng katta tafovut xodimlarning standartlarni operatsion darajada amalga oshirishida kuzatilmoqda.

Uchinchidan, marketing bo'limi xodimlari uchun taklif etilgan uch yo'nalishli yo'riqnoma – mijozlar bilan ishlash, tashkiliy va tahliliy vazifalar – har bir xodimning roli va mas'uliyatini aniq belgilaydi hamda KPI tizimi bilan uzviy bog'liq.

To'rtinchidan, mijozlar salohiyati, faoliyat tarmog'i va yuridik shakl bo'yicha segmentlash algoritmlariga asoslangan marketing siyosati tijorat banklarga o'z resurslarini samarali taqsimlash va har bir segment uchun maqsadli takliflar yaratish imkonini beradi.

Beshinchidan, mikro va makro segmentlar uchun ishlab chiqilgan munosabatlar marketingi strategiyalari banklarga mijozlarni uzoq muddatli ushlab qolish, CLV ko'rsatkichini oshirish va qo'shib sotish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Tadqiqotning cheklovlari: empirik ma'lumotlar asosan yirik tijorat banklaridan to'plangan. Kichik va o'rta banklar uchun taklif etilgan mexanizmlarni moslashtirish talab etilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini bank marketing faoliyatiga integratsiya qilish masalalarini o'rganish maqsadga muvofiq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4811025>
3. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing: Darslik. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. — 314 b.
4. Kuliev N.X. Bank menejmentida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimining samaradorligini oshirish mexanizmlari // Marketing: ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. — 2025. — №10. — B. 369-376. URL: <https://marketingjournal.uz>
5. Tadjibayeva N.G. Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot": respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Toshkent, 2023. — B. 1058-1063.
6. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. 15th ed. — Pearson Education, 2016. — 832 p. ISBN: 978-0-13-385646-0
7. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research // Journal of Marketing. — 1985. — Vol. 49, Autumn. — P. 41-50.
8. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. — 1988. — Vol. 64, №1. — P. 12-40.
9. Gronroos C. Service Management and Marketing: Customer Management in Service Competition. 3rd ed. — Chichester: John Wiley & Sons, 2007. — 483 p. ISBN: 978-0-470-02862-9
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari to'g'risida statistik ma'lumotlar. URL: <https://cbu.uz/oz/statistics/> (murojaat sanasi: 2024-yil).

**Аннотация.** В данной статье исследуются организационно-экономические механизмы повышения эффективности маркетинговой деятельности и развития кадрового потенциала в коммерческих банках Узбекистана. Комплексно проанализированы иерархия управления клиентоориентированными маркетинговыми системами, методология оценки удовлетворённости клиентов на основе GAP - анализа, руководящие инструкции для сотрудников маркетинговых отделов, алгоритмы сегментирования, направленные на повышение конкурентоспособности, а также стратегии маркетинга взаимоотношений. Полученные результаты служат основой для разработки научно обоснованных рекомендаций по совершенствованию маркетинговой деятельности коммерческих банков Узбекистана.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, маркетинговая деятельность, клиентоориентированный подход, GAP-анализ, кадровый потенциал, сегментирование, маркетинг взаимоотношений, CRM-система.

**Abstract:** This article examines the organizational-economic mechanisms for improving the efficiency of marketing activities and developing staff potential in commercial banks of Uzbekistan. The management hierarchy of customer-oriented marketing systems, the methodology for assessing customer satisfaction using GAP analysis, guidelines for marketing staff, competitiveness-enhancing segmentation algorithms, and relationship marketing strategies are analyzed comprehensively. The findings serve to develop evidence-based recommendations for improving marketing activities of Uzbekistan's commercial banks.

**Keywords:** commercial banks, marketing activities, customer-oriented approach, GAP analysis, staff potential, segmentation, relationship marketing, CRM system.

# RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT XIZMATLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ZARURIYATI

D.M. Yusupova,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va davlat sektorida raqamli transformatsiyaning zaruriyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, shaffoflikni ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada raqamli davlat xizmatlarining iqtisodiy o‘lish, investitsiya muhiti, davlat byudjeti samaradorligi va tadbirkorlik rivojiga ta’siri yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, davlat xizmatlari, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, tranzaksiya xarajatlari, davlat boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya muhiti, platforma iqtisodiyoti, davlat sektori.

**Kirish.** Hozirgi globallashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida raqamli iqtisodiyot dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat biznes va ishlab chiqarish jarayonlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga ham keng joriy etilmoqda. Natijada an’anaviy davlat boshqaruvi tizimi bosqichma-bosqich raqamli boshqaruv tizimiga o‘tmoqda va davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yangi mexanizmlari shakllanmoqda. Bu jarayon davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, aholiga qulaylik yaratish, davlat xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlari iqtisodiyotning muhim institutsional elementlaridan biri hisoblanadi. Davlat xizmatlari orqali davlat va iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida turli iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlar amalga oshiriladi. Davlat xizmatlarining samarali tashkil etilishi biznes muhitini yaxshilaydi, investitsiyalarni jalb etadi, tadbirkorlikni rivojlantiradi va umumiy iqtisodiy o‘lishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini o‘rganish va

ularni raqamlashtirish zaruriyatini asoslash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini joriy etish va davlat boshqaruvini avtomatlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyani kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, pandemiya davri davlat xizmatlarini masofadan turib ko‘rsatish tizimini rivojlantirish zarurligini yanada yaqqol ko‘rsatdi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli transformatsiya va elektron hukumat konsepsiyasi iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ronald Koase’ning tranzaksiya xarajatlari nazariyasi davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali ma’muriy protsesslardagi tranzaksiya xarajatlari kamayishini va natijada iqtisodiy samaradorlik oshishini asoslab beradi. Coase’ning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, raqamli xizmatlar byurokratik to‘siqlarni bartaraf etadi hamda resurslardan samarali foydalanish

imkoniyatini yaratadi.

Institutsional iqtisodiyot sohasida Douglass Northning ishlari davlat xizmatlarini iqtisodiyotning muhim institutsional elementlari sifatida ko'rib chiqadi. Northning nuqtai nazariga ko'ra, raqamli texnologiyalar joriy etilgan davlatxizmatlari institutlararo axborot almashinuvini soddalashtirib, qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi hamda iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi ma'lumotlar assimetriyasini kamaytiradi. Bu yondashuv raqamli transformatsiyaning nafaqat texnologik o'zgarish ekanligini, balki iqtisodiy institut sifatida iqtisodiyotning samaradorligini oshirish mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar OECD va World Ban elektron hukumat bo'yicha hisobotlarida elektron davlat xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati alohida qayd etilgan. Bu hisobotlarda davlat xizmatlarini raqamlashtirish biznes va fuqaro uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha iqtisodiy samaralar berishi tahlil qilingan.

O'zbekiston olimlari ham raqamli davlat xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli algoritmlar va bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat boshqaruvi tizimida resurslardan samarali foydalanish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish va xizmatlar sifati hamda qamrovini oshirish masalalari tahlil qilingan. Ularning xulosalariga ko'ra, raqamli transformatsiya davlat xizmatlarining iqtisodiy qiymatini oshiribgina qolmay, davlat byudjeti samaradorligini ham kuchaytiradi.


Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va raqamli transformatsiyaning zaruriyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv qo'llanildi, bunda nazariy tahlil, solishtirma tahlil va amaliy kuzatuvlar asosiy metod sifatida ishlatildi. Avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar va jahon hamda

mahalliy tajribalar o'rganildi, shu jumladan elektron hukumat va raqamli davlat xizmatlari sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati an'anaviy davlat funksiyalarining yanada samarali, qulay va texnologiyalarga asoslangan tizimlarga aylanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Endilikda davlat xizmatlari faqatgina jismoniy idoralar va qog'oz hujjatlar bilan cheklanib qolmay, balki davlat, biznes va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqani tezlashtiruvchi yagona raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bunday o'zgarishlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, byurokratik to'siqlarni qisqartiradi va davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi. Natijada davlat resurslardan oqilona foydalanish bilan birga xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli transformatsiya davlat xizmatlarining iqtisodiy qiymatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali hukumat fuqarolarning ehtiyojlarini aniqroq baholaydi, xizmatlarga bo'lgan talabni oldindan prognoz qiladi hamda yanada samarali siyosat ishlab chiqadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi va byudjet mablag'larining noto'g'ri taqsimlanishining oldini oladi. Shu bilan birga, raqamli tizimlar xizmat ko'rsatishni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berib, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi.

Raqamli davlat xizmatlarining iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikka ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Masalan, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, soliqlarni to'lash yoki litsenziya olish jarayonlarining soddalashuvi biznes uchun vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirib, tadbirkorlikni rivojlantiradi va investitsiyalarni jalb etadi. Shu bilan birga, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi innovatsiyalarni rag'batlantiradi va iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishlarini yuzaga keltiradi.



1-rasm. Raqamli hukumat rivojlanish bosqichlari

Jamiyat ehtiyojlarining o'sib borishi ham davlat xizmatlarini raqamlashtirishni talab etmoqda. Bugungi kunda fuqarolar tezkor, qulay va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni kutmoqda. Raqamli platformalar esa foydalanuvchilar uchun tushunarli interfeys, doimiy 24/7 xizmat ko'rsatish va integratsiyalashgan tizimlar orqali ushbu talablarni qondirish imkonini beradi. Bu esa aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Raqamli transformatsiya ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholi uchun davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi. Onlayn xizmatlar geografik cheklovlarni bartaraf etib, barcha fuqarolar uchun teng sharoit yaratadi. Shu bilan birga, raqamli vositalar inson omilini kamaytirish orqali korrupsiya xavfini pasaytiradi va jarayonlarning shaffofligini oshiradi.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi davlat sektorining barqarorligi va moslashuvchanligini oshiradi. Raqamli tizimlar iqtisodiy inqirozlar yoki pandemiya kabi holatlarda xizmatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayon davlat boshqaruvini yanada samarali, ochiq va fuqaroga yo'naltirilgan tizimga aylantirib, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini yana bir jihatdan ko'rib chiqish mumkin, ya'ni davlat xizmatlari iqtisodiyotda muhim institutsional omil sifatida xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi takomillashgani sari iqtisodiy tizimda axborot almashinuvi tezlashadi, bozor ishtirokchilari o'rtasida ma'lumotlar assimetriyasi kamayadi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligi oshadi. Natijada iqtisodiyotda resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi va umumiy iqtisodiy o'sish uchun qulay muhit shakllanadi.

Raqamli davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati ularning jamiyatdagi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish funksiyasi bilan ham izohlanadi. An'anaviy davlat xizmatlarida hujjatlarni tayyorlash, navbat kutish, turli idoralarga borish kabi jarayonlar ko'p vaqt va mablag' talab qilgan bo'lsa, raqamli xizmatlar bu jarayonlarni sezilarli darajada soddalashtiradi. Bu esa aholining vaqt resurslarini tejaydi, korxonalar faoliyatini tezlashtiradi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu sababli raqamli davlat xizmatlari iqtisodiyotda

bilvosita ishlab chiqarish omili sifatida ham qaraladi.

Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi tizimida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi. Davlat, biznes va aholi o'rtasidagi munosabatlar elektron platformalar orqali amalga oshirilishi natijasida platforma iqtisodiyoti elementlari davlat boshqaruvi tizimiga ham kirib keladi. Masalan, elektron davlat xizmatlari portallari yagona xizmatlar bozoriga o'xshash tizimni yaratadi, bunda turli davlat organlari xizmatlari yagona platforma orqali taqdim etiladi. Bu esa xizmatlar integratsiyasini ta'minlaydi va boshqaruv xarajatlarini kamaytiradi.


Raqamli davlat xizmatlarining rivojlanishi davlat byudjeti samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Elektron hujjat aylanishi, raqamli arxivlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari qog'oz, logistika va ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, soliq tizimining raqamlashtirilishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq tushumlarini oshirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishga yordam beradi. Bu esa davlat moliya tizimining barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda davlat sektorida raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yigirma yil davomida hukumat an'anaviy ma'muriy tizimlardan elektron hukumat va raqamli davlat xizmatlariga bosqichma-bosqich o'tib bormoqda. Bu jarayon raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hujjat aylanishini joriy etish, milliy ma'lumotlar bazalarini yaratish hamda davlat organlarini yagona raqamli platformalar orqali integratsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim iqtisodiy jihati davlat xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish bilan bog'liq. Davlat xizmatlari ko'rsatishda xususiy sektor ishtiroki ortib boradi, davlat-xususiy sheriklik asosida turli elektron platformalar, to'lov tizimlari va xizmatlar yaratiladi. Bu esa innovatsiyalarni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va xizmatlar sifatini oshiradi.

Raqamli davlat xizmatlari mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi. Chunki xorijiy investorlar uchun biznesni ro'yxatdan o'tkazish, ruxsatnomalar olish, bojxona operatsiyalarini amalga oshirish va soliq to'lovlarini bajarish jarayonlarining soddaligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar ushbu jarayonlar raqamlashtirilgan bo'lsa, investorlar uchun ma'muriy to'siqlar kamayadi va investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantiradi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali davlat iqtisodiy jarayonlarni aniqroq



prognoz qilishi, hududiy rivojlanish dasturlarini samarali rejalashtirishi va ijtimoiy siyosatni optimallashtirishi mumkin. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati an'anaviy davlat boshqaruvi tizimining zamonaviy, samarali va texnologiyalarga asoslangan boshqaruv modeliga aylanishi bilan izohlanadi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish natijasida davlat, biznes va aholi o'rtasidagi munosabatlar soddalashadi, xizmat ko'rsatish jarayonlari tezlashadi va iqtisodiyotda tranzaksiya xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Bu esa umumiy iqtisodiy samaradorlikning oshishiga va resurslardan oqilona foydalanishga olib keladi.

Raqamli transformatsiya davlat xizmatlarining iqtisodiy qiymatini oshiradi, davlat byudjeti xarajatlarini kamaytiradi va xizmatlar sifati hamda qamrovini kengaytiradi. Elektron hukumat tizimlari, raqamli platformalar, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish davlat boshqaruvida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantiradi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni aniqroq prognoz qilish, hududiy rivojlanish dasturlarini samarali rejalashtirish va ijtimoiy siyosatni optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli davlat xizmatlari biznes muhitini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim

omil hisoblanadi. Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, soliq to'lovlari, bojxona va litsenziyalash jarayonlarining raqamlashtirilishi vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi, bu esa iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi platforma iqtisodiyoti elementlarining rivojlanishiga, davlat-xususiy sheriklikning kengayishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi.

Raqamli transformatsiya ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi, ayniqsa chekka hududlarda yashovchi aholi uchun qulaylik yaratadi. Onlayn xizmatlar geografik cheklavlarni kamaytiradi, xizmatlardan foydalanishda teng imkoniyatlarni yaratadi hamda inson omilining kamayishi orqali korrupsiya xavfini pasaytiradi va boshqaruv tizimining shaffofligini oshiradi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat texnologik modernizatsiya, balki iqtisodiy zarurat hisoblanadi. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, iqtisodiy munosabatlarni soddalashtiradi, davlat byudjeti barqarorligini ta'minlaydi va mamlakatning investitsion hamda innovatsion jozibadorligini oshiradi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularni integratsiyalashgan raqamli platformalar asosida takomillashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini keng joriy etish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется экономическая сущность государственных услуг в условиях цифровой экономики и необходимость цифровой трансформации государственного сектора. Внедрение цифровых технологий в систему государственного управления рассматривается как важный фактор повышения эффективности государственных услуг, снижения транзакционных издержек, обеспечения прозрачности и стимулирования экономического развития. В статье также рассматривается влияние цифровых государственных услуг на экономический рост, инвестиционный климат, эффективность государственного бюджета и развитие предпринимательства.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, государственные услуги, цифровая трансформация, электронное правительство, транзакционные издержки, государственное управление, экономическая эффективность, инвестиционный климат, платформенная экономика, государственный сектор.

**Abstract:** This article analyzes the economic essence of public services in the digital economy and the necessity of digital transformation in the public sector. The introduction of digital technologies into public administration is considered an important factor in increasing the efficiency of public services, reducing transaction costs, ensuring transparency, and stimulating economic development. The article also examines the impact of digital public services on economic growth, investment climate, state budget efficiency, and entrepreneurship development.

**Keywords:** digital economy, public services, digital transformation, e-government, transaction costs, public administration, economic efficiency, investment climate, platform economy, public sector.

# GLOBAL MOLIYAVIY TIZIMDA RAQAMLI AKTIVLARNI TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY DOKTRINAL ASOSLARI

A.U. Jumaboyev,

**Аннотация:** Mazkur maqolada global moliyaviy tizim sharoitida raqamli aktivlarni tartibga solishning zamonaviy doktrinal asoslari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot raqamli aktivlarning desentralizatsiyalangan, transchegaraviy va yuqori texnologik tabiati an'anaviy moliyaviy-huquqiy modellarni qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarayotganini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, texnologik neytrallik, funksional yondashuv, riskka asoslangan regulyatsiya va innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi (regulatory sandbox) modellar nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli aktivlar, global moliyaviy tizim, regulyatsiya, doktrinal asoslar, texnologik neytrallik, funksional yondashuv, riskka asoslangan tartibga solish, mutanosiblik tamoyili, regulatory sandbox, moliyaviy barqarorlik, AML/CFT, institutsional regulyativ arxitektura.

Kirish. So'nggi yillarda raqamli aktivlar global moliyaviy tizimning ajralmas elementiga aylanib, moliyaviy munosabatlar tabiatini tubdan o'zgartirmoqda. Blokcheyn va taqsimlangan reestr texnologiyalari asosida shakllangan mazkur fenomen desentralizatsiya, transchegaraviylik va yuqori texnologiklik kabi xususiyatlari bilan an'anaviy moliyaviy instrumentlardan farq qiladi. Natijada, ularni tartibga solishda mavjud huquqiy mexanizmlarni qo'llash yetarli emasligi, yangi doktrinal yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Asosiy qism. Raqamli aktivlar sohasini tartibga solish masalasi zamonaviy moliyaviy huquq va iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning desentralizatsiyalangan, transchegaraviy va texnologik tabiati an'anaviy moliyaviy regulyatsiya mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda va xalqaro amaliyotda raqamli aktivlarni tartibga solishga nisbatan bir necha uslubiy yondashuvlar shakllangan.

Xususan, texnologik neytrallik yondashuviga ko'ra, huquqiy normalar muayyan texnologiyaga emas, balki iqtisodiy funktsiya va huquqiy natijaga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu yondashuvda blokcheyn, DLT yoki boshqa texnologiyalar alohida

tartibga solinmaydi; aksincha, aktivning iqtisodiy mazmuni va funksiyasi hal qiluvchi mezon sifatida qabul qilinadi. Masalan, agar token investitsiyaviy xususiyatga ega bo'lsa, u qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik doirasida baholanadi; agar to'lov vositasi sifatida xizmat qilsa — to'lov xizmatlari regulyatsiyasiga tushadi. Yevropa Ittifoqida qabul qilingan Markets in Crypto-Assets Regulation (MiCA) aynan shu funksional yondashuv elementlarini mujassamlashtiradi.

Bu tamoyil kripto-aktivlarni tartibga solishda keng tarqalgan, ammo olimlar va ekspertlar uning amaliyotda qo'llanilishi haqida turli fikrlarni bildirishadi. Masalan, Bartolomeu Matis (Barthelemy Mathis) kripto-aktivlar tartibga solish bo'yicha qonun loyihalarining aksariyati texnologik neytrallik tamoyilini himoya qilishini ta'kidlab, bu tamoyil uch argumentga asoslanishini aytadi: siyosiy sezgir masalalardan qochish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va huquqiy aniqlikni ta'minlash. Biroq, u bu tamoyilni ba'zan siyosiy masalalardan qochish uchun bahona sifatida ishlatilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Floris Chengiz (Floris Cengiz) esa Yevropa Ittifoqi va AQSHning kripto-aktivlar tartibga solishdagi yondashuvlarini taqqoslab, Yevropa qat'iy texnologik neytrallikka amal qilishini, AQSH esa texnologik sezgirlik tomon harakat qilayotganini

ko'rsatadi. Uning fikricha, bu Yevropa uchun texnologik neytrallikning ustuvorligini, ammo AQSH uchun texnologiyalarning risklarini hisobga olgan holda tartibga solishning muhimligini ko'rsatadi. Bu farq kripto-aktivlar tartibga solishning kelajak yo'nalishlarini belgilashi mumkin.

Ekspertlar kripto-aktivlarga texnologik neytrallikni qo'llash qiyinchiliklari haqida ham gapiradi. Masalan, Shveysariya va Yevropa Ittifoqidagi tadqiqotlarga ko'ra, kripto-aktivlarning ham moliyaviy, ham texnologik xususiyatlari tufayli texnologik neytrallikni saqlash qiyin. Texnologiya tanlovi moliyaviy risklarga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, Bazal Bank Nazorati Qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision) kripto-aktivlarning texnologik arxitekturasini tartibga solishda hisobga olishni tavsiya qiladi. Bu tamoyil kripto-aktivlar uchun texnologik neytrallikning chegaralarini ko'rsatadi.

MiSA regulyatsiyasi haqidagi ekspert tahlillarida texnologik neytrallikning haqiqiy amaliyotdagi muammolari ko'tariladi. Mattias Xayentjens (Matthias Haentjens) va Luiza Gullifer (Louise Gullifer) MiKAning texnologik neytrallikni saqlashdagi qiyinchiliklarini ta'kidlab, elektron pul tokenlari (EMTs) an'anaviy elektron pullardan farqli tartibga solinganini misol qiladi. Bu holat texnologik neytrallik tamoyiliga zid kelishi mumkin, chunki substantiv jihatdan ular o'xshash, ammo tartibga solish qoidalari farqli. Tomash Tomchak (Tomasz Tomczak) MiKAda texnologik neytrallik va "bir xil risk, bir xil qoida" tamoyillariga amal qilinishini aytadi, ammo bu tamoyillar muayyan texnologiyalarni afzal ko'rmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Rafael Auer (Raphael Auer) tartibga solish texnologik neytral bo'lishi kerak, ammo nazorat texnologiya bilan birga rivojlanishi lozimligini aytadi, chunki desentralizatsiyalangan moliya (DeFi) texnologik neytrallikning chegaralarini sinab ko'rmoqda.

Olimlar blokcheyn va DLT tartibga solishda texnologik neytrallikning huquqiy ma'lumotlar himoyasi (GDPR) bilan ziddiyati haqida ham gapiradi. Ahmad Zafar (Ahmad Zafar) blokcheynning doimiyliги GDPRning o'chirish huquqiga zid kelishini ta'kidlab, chameleon xeshlar va zeroknauleq prufklar kabi texnologik yechimlarni taklif qiladi. Bu texnologik neytrallikni saqlash uchun huquq va texnologiyani uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ekspertlar texnologik neytrallikni innovatsiyalarni rag'batlantirish va huquqiy aniqlikni ta'minlash uchun muhim deb hisoblashadi, ammo uning kripto-aktivlarga qo'llanilishida qiyinchiliklar borligini, xususan texnologik sezgirlikni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu tamoyil MiKA kabi regulyatsiyalarda muhim o'rin tutib, kelajakdagi tartibga solish modellarini shakllantirishi mumkin.

Raqamli aktivlar sohasini tartibga solishda qo'llaniladigan eng keng tarqalgan va amaliy ahamiyatga ega yondashuvlardan biri — funksional yondashuvdir. Ushbu yondashuv "shakl emas, mohiyat ustuvor" tamoyiliga asoslanib, aktivning texnologik konstruksiyasidan ko'ra uning iqtisodiy vazifasini hal qiluvchi mezon sifatida qabul qiladi. Ya'ni token blokcheyn asosida yaratilgani yoki muayyan standartga (masalan, ERC-20) muvofiq chiqarilgani emas, balki u bozor munosabatlarida qanday funksiyani bajarayotgani uning huquqiy rejimi uchun asos bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi bir qator olimlarning nazariy qarashlari shakllangan. Xususan, Dirk A. Zetsche raqamli tokenlarni tartibga solishda texnologiyaga emas, ularning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bir xil texnologik formatdagi token turli iqtisodiy mazmun kasb etishi mumkin, shuning uchun regulyatsiya universal emas, funksiyaga mos bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, funksional yondashuv raqamli aktivlarning ko'p qirrali tabiatini hisobga olish imkonini beradi. Zetsche Yevropa Ittifoqining Markets in Crypto-Assets Regulation (MiCA) qonunchiligini tahlil qilib, u kripto-valyutalarning iqtisodiy funksiyasiga asosan tartibga solishning misoli sifatida keltiradi, chunki MiKA qimmatli qog'ozlar, tovarlar yoki to'lov vositalari sifatidagi kripto-aktivlarga mos qoida joriy etadi. Uning fikricha, funksional yondashuv "bir xil biznes, bir xil xavflar, bir xil qoida" tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi.

Investitsiya tokenlari misolida bu yondashuv ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Agar token investorlarga foyda olish umidi bilan taklif etilsa va daromad boshqalarning harakatlari natijasida shakllansa, u qimmatli qog'oz sifatida baholanishi mumkin. AQSH amaliyotida U.S. Securities and Exchange Commission tomonidan qo'llaniladigan "Howey test" mezoni aynan shu funksional tahlilga asoslanadi. U SEC v. W. J. Howey Co. ishidan kelib chiqqan bo'lib, aktivning investitsiyaviy tabiatiga e'tibor qaratadi. Agar aktiv pul investitsiyasi orqali umumiy korxonada ishtirok etish va foyda kutilmasi bilan bog'liq bo'lsa, u holda texnologiyadan qat'i nazar, qimmatli qog'oz sifatida tartibga solinadi. Shu bilan birga, funksional yondashuv utilitar tokenlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Angela Walch ta'kidlashicha, tokenning rasmiy ravishda "xizmatga kirish vositasi" sifatida e'lon qilinishi uning real bozordagi muomalasini aks ettirmasligi mumkin. Agar utilitar token amalda spekulativ investitsiya obyektiga aylansa, u holda uning iqtisodiy mohiyati qayta baholanishi lozim. Demak, funksional tahlilda deklarativ maqsad emas, balki real iqtisodiy munosabat hal qiluvchi ahamiyat kasb

etadi. Uolch kripto-aktivlarning ta'riflari va ularning real qo'llanilish orasidagi farqni ta'kidlab, utilitar tokenlarning spekulativ investitsiyaga aylanishi moliyaviy xavflarni oshirishi mumkinligini aytadi. Desentralizatsiyalangan moliya (DeFi) sohasida esa funksional yondashuv yanada murakkab shaklda namoyon bo'ladi. Kevin Werbach ta'kidlaganidek, agar desentralizatsiyalangan protokollar amalda kreditlash, derivativlar yoki depozit qabul qilish kabi an'anaviy bank funksiyalarini bajarayotgan bo'lsa, ular texnologiyasidan qat'i nazar, moliyaviy institut sifatida baholanishi mumkin. Bu pozitsiya texnologiya neytralligi va iqtisodiy mazmun ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlaydi. Verbach DeFi-ni tartibga solishda funksional yondashuvni taklif qilib, uning risklarini hisobga olgan holda siyosatchilar uchun qo'llanma ishlab chiqqan. U DeFi-dagi desentralizatsiyaning haqiqiy darajasini baholash va unga mos qoida joriy etishni tavsiya qiladi.

Funksional yondashuv kripto-aktivlar tartibga solishdagi boshqa ekspertlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Brett Xemenvey Falk va Sara Xammer kripto-aktivlarni tartibga solishda uch qismli yondashuvni taklif qilib, ularning funksiyasiga asosan himoya, qoida va standartlarni joriy etishni tavsiya qiladi. Iqtisodiy barqarorlik kenrgashi (Financial Stability Board FSB) kripto-aktivlarning global tartibga solish tartibining tematik tahlilida funksiyaga asoslangan yondashuvning afzalliklarini ta'kidlaydi.

Shutariqa, funksional yondashuv raqamli aktivlarning huquqiy maqomini belgilashda universal va moslashuvchan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U texnologiyaga bog'liq formal tasnifdan voz kechib, iqtisodiy mazmuni asosiy mezon sifatida qabul qiladi. Ilmiy va ekspert qarashlar shuni ko'rsatadiki, mazkur model investorlarni himoya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va regulyativ aniqlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan eng maqbul yondashuvlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli aktivlar dinamik va gibridd tabiatga ega bo'lgani sababli, funksional tahlil doimiy ravishda bozor amaliyoti bilan uyg'un holda rivojlanib borishi zarur.

Raqamli aktivlarni tartibga solishda so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan yondoshuvlardan biri – riskka asoslangan (risk-based) yondashuvdir. Ushbu yondashuvning markazida aktivning huquqiy shakli yoki nomlanishi emas, balki uning moliyaviy barqarorlik, iste'molchilar huquqlari va pul yuvishga qarshi kurash (AML/CFT) nuqtayi nazaridan qanday xavf tug'dirishi turgan bo'ladi. Ya'ni regulyativ rejim aktivning iqtisodiy funksiyasidan tashqari, uning bozorga ta'sir ko'lamini va sistemaviy ahamiyatiga qarab belgilanadi. Iqtisodiy barqarorlik kenrgashi

(Financial Stability Board FSB) kripto-aktivlarni tartibga solishning holatini tahlil qilib, davlatlar yurisdiksiyalaridagi jiddiy farqlar sababli regulyativ arbitraj va moliyaviy barqarorlik xavflarini keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Bazel Bank Nazorati Qo'mitasi (the Basel Committee on Banking Supervision (BCBS)) ekspertlari kripto-aktivlar tartibga solishda riskka asoslangan yondashuvni tavsiya qilib, milliy risk bahosi va hamkorlikni kuchaytirishni taklif etadilar.

Valyuta va moliya institutlarining rasmiy forumi (OMFIF) tahlil markazi ekspertlari kripto-mahsulotlarni tartibga solishda riskka asoslangan yondashuvni yoqlagan holda, xavflarning oldini olish uchun huquqiy baza yaratishni tavsiya qiladilar.

Riskka asoslangan yondashuv moliyaviy huquq nazariyasida "proportional regulation" (proporsional tartibga solish) tamoyili bilan uyg'un. Unga ko'ra, tartibga solish darajasi potensial xavf darajasiga mutanosib bo'lishi lozim. Agar aktiv kichik bozor ulushiga ega bo'lsa va sistemaviy xavf tug'dirmasa, unga nisbatan yengilroq nazorat choralarini qo'llanilishi mumkin; aksincha, keng miqyosda qo'llanilayotgan va moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan aktivlar kuchliroq regulyativ rejimga tushadi. Halqaro valyuta fondi IMF ekspertlari A. Nareyn va J. Moreti kripto-aktivlar tartibga solishda "bir xil faoliyat, bir xil xavf, bir xil qoida" tamoyilini qo'llashni tavsiya qilib, global hamohanglikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar. Xalqaro moliyaviy institutlar ushbu modelni faol targ'ib etmoqda. Xususan, Financial Action Task Force (FATF) kriptoaktivlar sohasida AML/CFT standartlarini joriy etishda aynan riskka asoslangan yondashuvni tavsiya qiladi. Unga ko'ra, virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilar (VASP) faoliyati xavf darajasiga qarab monitoring qilinadi va "travel rule" talablari qo'llanilishi lozim. FATF virtual aktivlar va VASP-lar uchun riskka asoslangan yondashuv bo'yicha yangilangan qo'llanmani chiqarib, risklarni baholash va unga ko'ra kripto aktivlar sohasida ishlash uchun litsenziyalar berishni tavsiya qiladi. FATF 2025 yilgi hisobotida VASP-larning AML/CFT talablariga rioya etilishidagi olg'a siljishlarni, ammo global xavflarning saqlanib qolayotganini ta'kidlaydi. Moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan esa Financial Stability Board raqamli aktivlarning sistemaviy xavfini baholash zarurligini ta'kidlaydi. Agar muayyan kriptoaktiv yoki steyblkoin keng qo'llanilib, to'lov tizimlari yoki bank likvidligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, u holda unga nisbatan kapital, rezerv va oshkoralik talablari kuchaytirilishi kerak. FSB kripto-aktivlar tartibga solishning global ramkasining amaliyotdagi holatini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlik xavflarini hisobga olgan holda takomillashtirishni tavsiya qiladi. FSB kripto-aktivlar tartibga solish uchun yuqori darajali tavsiyalarni

chiqarib, risklarni hisobga olgan holda huquqiy baza yaratishni taklif etadi. FSB kripto-aktivlar va steyblkoinlar tartibga solishdagi farqlarni ta'kidlab, regulyativ arbitraj va moliyaviy barqarorlik xavflarini oldini olishni chaqiradi.

Steyblkoinlar misoli riskka asoslangan yondashuvning amaliy ifodasidir. Ularning qiymati fiat valyuta yoki boshqa aktivlarga bog'langani sababli, keng miqyosda qo'llanilganda ular "kvazibank" funksiyasini bajarishi mumkin. Shu bois Bank for International Settlements ekspertlari steyblkoinlarni to'lov tizimlari infratuzilmasining bir qismi sifatida baholab, qat'iy rezerv va hisobdorlik standartlarini taklif etmoqdalar. Bu esa oddiy utilitar tokenlarga nisbatan ancha kuchli nazoratni anglatadi. Duglas Arner, Rafael Auer va Jon Frost (BIS) steyblkoinlarning xavflarini tahlil qilib, global steyblkoinlarning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholashni tavsiya qiladilar. BIS steyblkoinlar o'sishi yangi xavflarni keltirib chiqarishini ogohlantirib, "bir xil xavf, bir xil tartibga solish" tamoyilining yetarli emasligini ta'kidlaydi. IMF ekspertlari E. Cherutti va digarlar steyblkoinlarning makroiqtisodiy va moliyaviy xavflarini tahlil qilib, global hamkorlik va tartibga solishni kuchaytirishni taklif etadilar.

Iste'molchilarni himoya qilish nuqtayi nazaridan ham riskka asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Yuqori volatillikka ega kriptoaktivlar chakana investorlar uchun katta moliyaviy yo'qotish xavfini tug'dirishi mumkin. Shu sababli ayrim davlatlar marketing cheklovlarini, axborot oshkoraligi va litsenziyalash talablarini joriy etmoqda. Bu yerda asosiy mezon — aktivning bozor hajmi, narx o'zgaruvchanligi (volatillik), institutsional integratsiya darajasi va sistemaviy ta'siri hisoblanadi. FDIC, Federal Reserve va OCC kripto-aktivlarni saqlashdagi risklarni tahlil qilib, banklarning xavflarni hisobga olgan holda faoliyat olib borishini tavsiya qiladi. D. Sobolev kripto-valyuta investorlarining risklarni baholash haqidagi tadqiqotida regulyatorlarning ma'lumotlarni yaxshilashni tavsiya qiladi. Shu tariqa, riskka asoslangan yondashuv raqamli aktivlarni universal yoki bir xil tartibga solishdan voz kechib,

xavf darajasiga mutanosib regulyativ mexanizm yaratishga qaratilgan. Ufunktsional yondashuvni to'ldirib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarning oldini olishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli aktivlar bozorining institutsionallashuvi va global integratsiyasi sharoitida mazkur model tartibga solish siyosatining strategik asoslaridan biriga aylanmoqda. IMF va FSB kripto-aktivlar siyosatini amalga oshirish yo'l xaritasida global hamkorlikni kuchaytirishni tavsiya qiladi. Elliptic ekspertlari

FSB-ning 2025 yilgi tahlilida steyblkoinlar tartibga solishdagi farqlarni ta'kidlab, xavflarni hisobga olgan holda bir xil yondashuvni taklif etadi.

Riskka asoslangan yondashuv raqamli aktivlarni tartibga solishda zamonaviy moliyaviy siyosatning eng muhim konsepsiyalaridan biriga aylandi. Ushbu model aktivning formal huquqiy tabiatiga emas, balki uning moliyaviy barqarorlikka, iste'molchilar huquqlariga va pul yuvishga qarshi kurash (AML/CFT) tizimiga qanday xavf tug'dirishiga qarab regulyativ choralarni belgilashni nazarda tutadi. Ya'ni tartibga solish darajasi aktivning bozor hajmi, volatilligi, institutsional integratsiyasi va sistemaviy ahamiyatiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Mazkur yondashuv xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, Financial Action Task Force (FATF) virtual aktivlar va virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilar (VASP) faoliyatini baholashda riskka asoslangan metodologiyani tavsiya etadi. FATF standartlariga ko'ra, nazorat choralari xavf darajasiga mutanosib bo'lishi kerak, xususan, transchegaraviy operatsiyalar va anonimlik yuqori bo'lgan platformalar kuchaytirilgan monitoringga tortilishi lozim.

Moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan Financial Stability Board raqamli aktivlar bozorining sistemaviy xavfini baholash zarurligini ta'kidlaydi. Agar muayyan kriptoaktiv yoki steyblkoin to'lov tizimi yoki bank sektorining likvidligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, unga nisbatan qat'iy kapital va rezerv talablari joriy etilishi lozim. Shu ma'noda riskka asoslangan yondashuv makroprudensial siyosat bilan uyg'unlashadi.

Ilmiy adabiyotlarda ham mazkur yondashuv keng muhokama qilinmoqda. Masalan, Duglas V. Arner raqamli moliya sohasida "dynamic regulation" konsepsiyasini ilgari surib, texnologiya tez o'zgarayotgan sharoitda regulyatsiya xavflarga mos ravishda dinamik xarakter kasb etishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, riskka asoslangan model innovatsiyani to'xtatmasdan, bir vaqtning o'zida moliyaviy xavflarni cheklash imkonini beradi. Shuningdek, Ross P. Buckley raqamli aktivlar bozorida "proportionality principle" (mutanosiblik tamoyili)ni qo'llashni asoslab, yuqori xavfli aktivlar uchun kuchliroq litsenziyalash va oshkoralik talablari joriy etish zarurligini qayd etadi. Uning qarashlariga ko'ra, bir xil regulyatsiya barcha tokenlarga tatbiq etilishi innovatsiyaga to'siq bo'lishi mumkin, shu sababli xavf darajasiga qarab differentsiatsiya qilingan rejim joriy etilishi lozim.

Steyblkoinlar masalasida riskka asoslangan yondashuv ayniqsa muhim. Bank for International Settlements ekspertlari steyblkoinlarning ommaviy qo'llanilishi bank tizimiga o'xshash funksiyalarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlab, ularni rezerv

aktivlari, likvidlik standartlari va audit talablari bilan tartibga solishni taklif qiladilar. Bu esa oddiy utilitar tokenlarga nisbatan ancha qat'iy rejimni anglatadi. Iste'molchilarni himoya qilish nuqtayi nazaridan esa Chris Brummer kriptoaktivlar yuqori volatillik va axborot asimetriyasi tufayli chakana investorlar uchun katta xavf tug'dirishini ta'kidlab, risk profiliga qarab axborot oshkoraligi va litsenziyalash talablarini kuchaytirishni taklif etadi. Raqamli aktivlar va fintex texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda davlatlar oldida ikkilamchi muammo yuzaga keldi: bir tomondan, moliyaviy barqarorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish zarur; ikkinchi tomondan esa innovatsiyani cheklab qo'yimaslik kerak. Shu ehtiyoj zahirida innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi, ya'ni "regulatory sandbox" yondashuvi shakllandi. Xilari J. Allen (Hilary J. Allen) ushbu yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, sandbox fintex innovatsiyalarining huquqiy to'siqlarini pasaytirish va regulyatorlarga yangi texnologiyalarni o'rganish imkonini berishini ta'kidlaydi, ammo uning iste'molchilar himoyasi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri haqida ehtiyotkorlik bilan fikr yuritadi. Deydre Axern (Deirdre Ahern) sandbox-ning YEI davlatlarida tarqalishini "huquqiy lag" va "huquqiy to'qnashuv" bilan bog'lab, uning innovatsiyalarni bozorga kiritishga yordam berishini, ammo xalqaro hamohanglik zarurligini ta'kidlaydi.

"Regulatory sandbox" — bu regulyator tomonidan yaratilgan maxsus huquqiy rejim bo'lib, u innovatsion moliyaviy loyihalarni cheklangan vaqt va miqyos doirasida nazorat ostida sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Ushbu mexanizmida ishtirok etuvchi kompaniyalar odatda yengillashtirilgan litsenziya talablari yoki ayrim regulyativ imtiyozlarga ega bo'ladi, biroq ular qat'iy monitoring va hisobdorlik majburiyatlarini bajaradi. Den Kuan (Dan Quan) sandbox-ning ta'rifini keltirib, uning innovatsiyalarni rag'batlantirish va iste'molchilarni himoya qilish o'rtasida muvozanat yaratishini ta'kidlaydi, ammo regulyatorlarning "darvozabon" roli innovatsiyalarni to'xtatib qo'yishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Yevropa Parlamenti hisobotida sandbox va innovatsion xablarning ramkasini tahlil qilib, ularning shaffof va qat'iy qoidalarga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur yondashuv ilk bor Buyuk Britaniyada amaliy ko'rinish oldi. Financial Conduct Authority (FCA) 2016-yildan boshlab fintex-kompaniyalar uchun maxsus sandbox dasturini joriy etdi. Ushbu dastur doirasida kriptoaktivlar, raqamli to'lov tizimlari va blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlar cheklangan muhitda sinovdan o'tkazildi. FCA modeli regulyatsiya va innovatsiya o'rtasida muvozanatni ta'minlash bo'yicha samarali amaliyot sifatida baholanadi. L.G. Tomas (L.G. Thomas)

sandbox-ning AQSHdagi potensialini tahlil qilib, uning Britaniya modelidan ilhomlanib, federal darajada joriy etilishini taklif qiladi. P.Vidjayagopal (P. Vijayagopal) qiyosiy tahlilda sandbox-ning Britaniya, AQSH va Hindistondagi rolini ko'rsatib, uning innovatsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilishdagi samarasini ta'kidlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda sandbox yondashuvi "experimental regulation" (tajribaviy tartibga solish) konsepsiyasi bilan bog'lanadi. Masalan, Douglas W. Arner raqamli moliya sohasida innovatsiyalar tez o'zgarayotgan sharoitda an'anaviy qat'iy regulyatsiya samarasiz bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, moslashuvchan va tajribaviy modellarni qo'llash zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, sandbox mexanizmi regulyatorlarga yangi texnologiyalarni tushunish va ularning xavflarini amalda baholash imkonini beradi. Yu. Tan (Y. Tan) Gonkong misolida Arnerning fikrlarini qo'llab-quvvatlab, sandbox-ning fintex innovatsiyalarini tartibga solishdagi rolini tahlil qiladi. Shuningdek, Ross P. Buckley sandbox modelini "learning by doing" (amaliyot orqali o'rganish) usuli sifatida baholab, davlat va biznes o'rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, bunday model innovatsiyani rag'batlantirish bilan birga, kelgusidagi samarali huquqiy baza uchun empirik asos yaratadi.

Sandbox yondashuvi raqamli aktivlar sohasida ayniqsa muhim, chunki blokcheyn, DeFi va tokenlashtirish kabi texnologiyalar an'anaviy moliyaviy kategoriyalarga to'liq mos kelmaydi. Agar ularga darhol qat'iy regulyatsiya qo'llanilsa, innovatsion startaplar bozorga kirish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin. Shu bois sandbox mexanizmi innovatsiya va xavfni boshqarish o'rtasida institutsional muvozanatni ta'minlaydi.

Shu tariqa, innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi yondashuv raqamli aktivlarni tartibga solishda moslashuvchan va progressiv model sifatida namoyon bo'ladi. U davlatga — xavflarni baholash va nazoratni ta'minlash, biznesga esa — yangi texnologiyalarni huquqiy xavfsiz muhitda sinovdan o'tkazish imkonini yaratadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur yondashuv regulyatsiyaning statik emas, balki dinamik va hamkorlikka asoslangan shakliga aylanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida, raqamli aktivlar global moliyaviy tizimda yangi institutsional voqelikni shakllantirib, an'anaviy regulyativ modellarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnologik neytrallik, funksional va riskka asoslangan yondashuvlar hamda innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar raqamli aktivlar sohasida samarali tartibga solishning asosiy doktrinal yo'nalishlarini tashkil etadi.

Shu bois, raqamli aktivlarni tartibga solish

universal va qat'iy model emas, balki xavf darajasiga mutanosib, iqtisodiy funksiyaga asoslangan va dinamik xarakterga ega bo'lgan integratsiyalashgan regulativ arxitekturani talab qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Thomas L. G. The Case for a Federal Regulatory Sandbox for Fintech Companies // North Carolina Banking Institute. – 2018. – Vol. 22, Iss. 1. – P. 257–281. (мурожаат санаси: 10.02.2026).
2. Vijayagopal P., Jain B., Viswanathan S. A. Regulations and Fintech: A Comparative Study of the Developed and Developing Countries // Journal of Risk and Financial Management. – 2024. – Vol. 17, Iss. 8. – 324 p. – <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/8/324> (мурожаат санаси: 10.02.2026).
3. Tan Y., Tan Y. Fintech Innovation and Regulation - The Case of Regulatory Sandbox in Hong Kong // Financial Engineering and Applied Economics. – 2024. – Vol. 2, No. 6. – P. 12-18. – URL: <https://www.mospbs.com/uploads/files/2025/01/20250114/d37299015fa7384e489b186856cd6658.pdf> (мурожаат санаси: 10.02.2026).
4. Allen H. J. Regulatory Sandboxes // George Washington Law Review. – 2019. – Vol. 87, Iss. 3. – P. 579–645. – URL: <https://www.gwlr.org/wp-content/uploads/2019/06/87-Geo.-Wash.-L.-Rev.-579.pdf> (мурожаат санаси: 10.02.2026).
5. Ahern D. Regulatory Lag, Regulatory Friction and Regulatory Transition as FinTech Disenablers: Calibrating an EU Response to the Regulatory Sandbox Phenomenon // European Business Organization Law Review. – 2021. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8294240/> (мурожаат санаси: 10.02.2026).
6. Parenti R. Regulatory Sandboxes and Innovation Hubs for FinTech: Impact on innovation, financial stability and supervisory convergence. – Brussels: European Parliament, 2020. – 64 p. – URL: [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2020/652752/IPOL\\_STU\(2020\)652752\\_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2020/652752/IPOL_STU(2020)652752_EN.pdf) (мурожаат санаси: 10.02.2026).
7. Quan D. A Few Thoughts on Regulatory Sandboxes // Cato Institute: Alt-M. – 2018. – URL: <https://pacscenter.stanford.edu/a-few-thoughts-on-regulatory-sandboxes/> (мурожаат санаси: 10.02.2026).

**Аннотация:** В данной статье проводится комплексный анализ современных доктринальных основ регулирования цифровых активов в условиях глобальной финансовой системы. Исследование обосновывает, что децентрализованный, трансграничный и высокотехнологичный характер цифровых активов обуславливает необходимость пересмотра традиционных финансово-правовых моделей. С этой точки зрения теоретически и практически анализируются модели технологической нейтральности, функционального подхода, регулирования, основанного на риске, и поддержки инноваций (regulatory sandbox).

**Ключевые слова:** цифровые активы, глобальная финансовая система, регулирование, доктринальные основы, технологическая нейтральность, функциональный подход, регулирование, основанное на риске, принцип пропорциональности, регуляторный песок, финансовая устойчивость, AML/CFT, институциональная регулятивная архитектура.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the modern doctrinal foundations for regulating digital assets within the global financial system. The study substantiates that the decentralized, cross-border, and highly technological nature of digital assets necessitates a reconsideration of traditional financial and legal models. From this perspective, such approaches as technological neutrality, functional approach, risk-based regulation, and innovation-supporting models (regulatory sandbox) are examined from both theoretical and practical standpoints.

**Keywords:** digital assets, global financial system, regulation, doctrinal foundations, technological neutrality, functional approach, risk-based regulation, principle of proportionality, regulatory sandbox, financial stability, AML/CFT, institutional regulatory architecture.